



O'zbekiston Respublikasi qishloq va suv xo'jaligi vazirligi

**Samarqand Qishloq xo'jalik instituti
Iqtisodiyot va boshqaruv fakulteti
Buxgalteriya hisobi va audit kafedrası**

T.Qudratov

Soliq va soliqqa tortish fanidan

(leksiyalar kursi)

Samarqand 2011



Leksiyalar kursi Samarqand qishloq xo'jalik instituti O'quv ishlari bo'yicha birinchi prorektor, professor T.Ostonaqulov tomonidan 2008 yil 29-avgustda tasdiqlangan "Soliq va soliqqa tortish fani dasturi" ga mos holda noiqtisodiy ta'lim yo'nalishlari talablar uchun tayyorlangan.

Leksiyalar kursida "Amaliy mashg'ulotlarda bajariladigan vazifalar to'plami" ham keltirilgan.

Muallif dosent; iqtisod fanlari
nomzodi, xizmat ko'rsatgan dosent:

T.Qudratov

Taqrizchilar:

1. Rahmonov T.R.-Samarqand davlat universiteti
dosenti, iqtisod fanlari nomzodi
2. Xolboyev D.X.-Samarqand qishloq xo'jalik instituti dosenti,
iqtisod fanlari nomzodi.

Leksiyalar kursi Sam QXI "Buxgalteriya hisobi va audit" kafedrasida (2011 yil 17-yanvar 5-sonli bayoni), iqtisodiyot va boshqaruv fakultetining o'quv-uslubiy komissiyasi yig'ilishida (2011 yil 18-fevral 6-sonli bayoni), fakultet ilmiy kengashida (2011 yil 25-fevral 7-sonli bayoni), institutning markaziy o'quv-uslubiy kengashida (2011 yil 25-mart, 7-bayoni) institut ilmiy kengashida (2011yil 31 mart,8-bayeni) muhokama qilinib maqullangan va chop etishga tavsiya etilgan.



MUNDARIJA

KIRISH

1-MAVZU: SOLIQ TIZIMI ASOSLARI

- 1.1. Soliqlarning iqtisodiy mohiyati va obyektiv zarurligi.
- 1.2. Soliq va boshqa majburiy to'lovlarning turlari va elementlari
- 1.3. Soliqlarni soliqqa tortish obyekti va iqtisodiy mohiyati bo'yicha turkumlanishi.
- 1.4. Soliq tizimining huquqiy asoslari va qonun xujjatlarining prinsiplari. Soliq to'lovchilarning huquq va majburiyatlari.

2- MAVZU: YuRIDIK ShAXSLARDAN OLINADIGAN SOLIQLAR

- 2.1. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i.
- 2.2. Qo'shilgan qiymat solig'i.
- 2.3. Aksiz solig'i.
- 2.4. Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i
- 2.2..Kichik biznes subyektlari uchun yagona Soliq to'lovi.

3-MAVZU: QISHLOQ XO'JALIGI TOVAR ISHLAB CHIKARUVCHILARI UCHUN YAGONA YER SOLIG'I

- 3.1. Yagona yer **solig'**ining mohiyati, ahamiyati va uni to'lovchilari.
- 3.2. Yagona yer **solig'**ini to'lash tartibini qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari.
- 3.3. Soliq solish obyekti, bazasi va stavkalari.
- 3.4. Soliqni hisoblab chiqarish hisob-kitoblarini tag'dim etish va soliqni to'lash tartibi.

4- MAVZU: JISMONIY ShAXSLARDAN OLINADIGAN SOLIQLAR

- 4.1. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i.
- 4.2. Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq.
- 4.3. Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i.
- 4.4. Jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yonilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq

5- MAVZU: IJTIMOIIY JAMG'ARMALARGA MAJBURIY TO'LOVLAR

- 5.1 Yagona ijtimoiy to'lov va fuqarolarning byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi sug'urta badallari
- 5.2. Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalar
- 5.3.Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy to'lovlar va yig'imlar.

AMALIY MASHG'ULOTLARDA BAJARILADIGAN VAZIFALAR TO'PLAMI

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI



*Ilm sahrosida do'st, hayot yo'llarida-tayanch,
yolg'iz damlarda yo'ldosh, baxtiyor
daqiqalarda rahbar, qayg'uli onlarda
madadkor, odamlar orasida-zebu ziynat,
dushmanlarga qarshi kurashda-quroldir
Muhammad payg'ambar
hadislaridan (14,46)*

Kirish

Soliqlar har qanday davlatning faoliyat ko'rsatishida moddiy asos bo'lib xizmat qiladi, ularsiz davlat o'z faoliyatini yuritmaydi. Demak, soliqlarning mamlakat doirasida amal qilishi obyektiv zaruriyatdir. Xullas, soliqlar davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida va taraqqiyotida muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Shuning uchun har bir jamiyat a'zosi, ayniqsa mutaxassis va rahbarlar soliqlarning mazmun-mohiyati va ijtimoiy-iqtisodiy hayotda tutgan o'rni va ahamiyati bilan bog'liq bo'lgan bilimni egallashi zarur. Ushbu bilim, birinchi navbatda, o'quv yurtlarida ta'lim olayotgan talaba-o'quvchilar orqali egallanadi. Shu boisdan bo'lsa kerak, OO'MTV tomonidan tasdiqlangan o'quv rejalarida "Soliq va soliqqa tortish" faniga alohida o'rin ajratilgan. Shu jumladan "Noiqtisodiy ta'lim yo'nalishlari"ning o'quv rejalarida 22 soat (ma'ruzaga 10 soat, amaliy mashg'ulotga 12 soat) miqdorda dars o'tish ko'zda tutilgan.

Ushbu fanni talabalar yaxshi o'zlashtirishi uchun ular o'quv adabiyotlari bilan yetarli darajada ta'minlangan bo'lishi kerak. Ammo ushbu muammo "Noiqtisodiy ta'lim yo'nalishlari" uchun yetarli darajada hal qilingan emas. Ushbu nuqsonni oz bo'lsada tugatish va talabalarning ushbu fanga bo'lgan ehtiyojini qondirish maqsadida muallif tomonidan keyingi yillardagi o'zgarish va yangiliklarni hisobga olingan holda ma'ruza matni tayyorlangan.

Ma'ruzalar matni agronomiya, agrokimyo va tuproqshunoslik, o'simliklar himoyasi va karantini, qishloq xo'jaligi ekinlari urug'chiligi va seleksiyasi kabi ta'lim yo'nalishlari uchun ta'lim texnologiyalari usullari va uning talablarini qo'llagan holda tayyorlangan.



1 – Mavzu. Soliqlar tizimi asoslari

1.1.Soliqlarning iqtisodiy mohiyati va obyektiv zarurligi.

1.2.Soliq va boshqa majburiy to'lovlarning turlari va elementlari.

1.3.Soliqqa tortish obyekti va iqtisodiy mohiyati bo'yicha soliqlarning turkumlanishi.

1.4.Soliq tizimining huquqiy asoslari. Soliq to'lovchilarning huquq va majburiyatlari.

Adabiyotlar ro'yxati

1.«O'zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi (2010 yil 1-martgacha bo'lgan o'zgarish va qo'shimchalar bilan).Rasmiy nashr. T.: "Adolat", 2010.

2.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 y 24-dekabrdagi «O'zbekiston Respublikasining 2011 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichilari va davlat byudjeti parametrlari to'g'risida»gi PQ-1449-sonli qaroriga 7-32 ilovalar "Soliq to'lovchining jurnali", 2011 yil yanvar.

3.Jo'rayev A. va boshqa lar. Soliq va soliqqa tortish. O'quv qo'llanma. Toshkent-2009y.

Tayanch iboralar

Soliqlar. Majburiy to'lovlar. Yuridik shaxslar. Jismoniy shaxslar. Bevosita Soliqlar. Bilvosita Soliqlar. Byudjet. Davlat byudjeti. Mahalliy byudjet. Soliq obyekti. Soliq solinadigan baza. Soliq stavkasi. Soliq tamoyillari

Ma'ruzani o'tish metodi

Ma'ruza «Bilaman. Bilishni xoxlayman. Bilib oldim» va aqliy hujum metodlarini qo'llagan holda o'tiladi.

1.1.Soliqlarning iqtisodiy mohiyati va obyektiv zarurligi

Soliqlar davlatning paydo bulishi bilan vujudga kelgan. Soliqlar davlatning faoliyat ko'rsatishida moddiy asos bo'lib xizmat qiladi. Soliqlarsiz biron-bir davlat faoliyat ko'rsataolmaydi. Shuning uchun jamiyatda Soliqlarning amal qilishi obyektiv zaruriyat bo'lib hisoblanadi.

Ma'lumki, jamiyatni tashkil etuvchi barcha subyektlar ishlab chiqarish soxalarida faoliyat kursata olmaydi, ularni bir qismi ishlab chiqarish bilan shug'ullansa, qolgan qismi esa noishlab chiqarish soxalarida faoliyat ko'rsatadi. Ushbu soxalar bir-biri bilan bog'liqbo'lsada, moliyalashtirish soxasida ularda bog'liqlik mavjud emas. Ishlab chiqarish bilan band bo'lgan subyektlar noishlab chiqarish subyektlarini bevosita mablag' bilan ta'minlamaydilar, bevosita ta'minlashni xech vaqtda buyniga olmaydilar, aksincha ular ushbu jarayonni rad etadilar. Shuning uchun noishlab chiqarish soxasi bo'lgan ijtimoiy jabxolarda band bo'lganlarni mablag' bilan ta'minlash, ya'ni ularni moliyalashtirish faqat davlat orkali amalga oshiriladi. Ushbu jarayonni moliyalashtirishni asosiy manbai bo'lib, davlat tomonidan jalb qilinadigan Soliqlar va ularga tenglashtirilgan majburiy to'lovlar hisoblanadi. Ma'lumki, ijtimoiy soxalar bo'lib , madaniyat, fan, tibbiyot kabilar jabxalar hisoblanadi. Bu soxalarning xizmatlarini barcha subyektlar, shu jumladan ishlab chiqarish bilan shug'ullanuvchi subyektlar xam iste'mol qiladi. Bularning iste'moli barcha subyektlar uchun umumiy bo'ladi. Shuning uchun umumiy iste'molni moliyalashtirishda jamiyat a'zolarining xammasi qatnashishi shart. Moliyalashtirish vazifasini, asosan davlat o'z foydasiga jamiyat a'zolaridan undiriladigan Soliqlar va ularga tenglashtirilgan boshqa majburiy to'lovlar orkali amalga oshiradi.



Demak, davlat umumxalk manfaatlarini o'zida gavidolantiruvchi, ularni himoya qiluvchi va moliyaviy mablag'lar bilan ta'minlovchi siyosii institutdir. Davlat o'zining vakolatiga kiruvchi vazifalarni bajarish uchun moliyaviy manbalardan foydalanadi, shulardan asosiysi bo'lib Soliqlar hisoblanadi.

Soliqlar deganda nima tushuniladi?

Soliqlar va majburiy to'lovlar ta'rifi Soliq Kodeksining 12-moddasida bayon qilingan.

Soliqlar deganda, muayyan miqdorlarda undiriladigan, qaytarib berilmaydigan va begoraz xususiyatga ega bo'lgan, byudjetga yo'naltiriladigan majburiy pul to'lovlari tushuniladi. Moliyaviy manbalardan yana biri boshqa majburiy to'lovlardir.

Boshqa majburiy to'lovlar deganda nima tushuniladi?

Boshqa majburiy to'lovlar deganda davlat maqsadli jamg'armalariga majburiy pul to'lovlari, bojxona to'lovlari, shuningdek vakolatli organlar hamda mansabdor shaxslar tomonidan yuridik axamiyatga molik harakatlarni to'lovchilarga nisbatan amalga oshirish uchun, shu jumladan muayyan huquqlarni yoki lisenziyalar va boshqa ruxsat beruvchi xujjatlarni berish uchun to'lanishi lozim bo'lgan yig'imlar, davlat boji tushuniladi.

Savol bo'yicha Ma'ruza jarayonida talabalarga beriladigan savollar

- 1.Soliqlar deganda nima tushuniladi?
- 2.Soliqlarga tenglashtirilgan boshqa majburiy to'lov deganda kaysi to'lovlar tushuniladi?
- 3.Soliqqa tortish obyekti bo'yicha ular qanday turlarga bo'linadi?

1.2. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning turlari va elementlari

Soliqlar va jamg'armalarning barcha turlari davlat foydasiga yuridik va jismoniy shaxslardan majburiy undiriladigan to'lovlardir. 5 ularning turlariga o'tishdan oldin yuridik va jismoniy shaxslar tushunchasiga tuxtaldin.

Yuridik shaxs deganda quyidagi lar tushuniladi:

1) O'zbekiston Respublikasining qonun xujjatlariga muvofik tashkil etilgan, o'z mulkiga egabo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan mol-mulki bilan javob beradigan, mustaqil balansga esa bo'lgan, o'z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy xuquqlarga ega, majmuriyatlarini bajaraoladigan, sudda davogar va javobgar bo'la oladigan, xo'jalik yurituvchi subyekt;

2) Chet davlatning Qonun Xujjatlariga muvofiq tashkil etilgan hamda Qishloq Respublikasida fuqarolik xuquq layoqatiga ega bo'lgan xorijiy yoki xalqaro tashkilot.

Jismoniy shaxs deganda O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, chet davlat fuqarolari, shuning dek fuqaroligi bo'lmagan shaxslar tushuniladi.

Soliq va majburiy to'lovlarning turlari. Bular Soliq kodeksining 23-moddasida aks ettirilgan. Shu moddaga ko'ra soliqlar quyidagi turlari bo'linadi.

- 1.yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i;
- 2.jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i;
- 3.ko'shilgan qiymat solig'i;
- 4.aksiz solig'i;
- 5.yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun Soliqlar va maxsus to'lovlar;
- 6.suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;
- 7.mol-mulk solig'i;
- 8.yer solig'i;
- 9.obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i;



10. jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yokilgisi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq.

Boshqa majburiy to'lovlar ham 23-moddada qayd qilingan.

Bularga quyidagilar kiradi:

1. Ijtimoiy jamg'armalarga majburiy to'lovlar:

- yagona ijtimoiy to'lov;
- larning byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari;
- byudjet tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalar;

2. Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy to'lovlar;

- Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalar;
- Respublika yo'l jamg'armasiga yig'imlar;

3. Davlat boji;

4. Bojxona to'lovlari;

5. Ayrim turdagi tovarlar bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlarni ko'rsatish huquqi uchun yig'im.

Kodeksda belgilangan xollardan va tartibda Soliq solishning **soddalashtirilgan tartibida** to'lanadigan quyidagi soliqlar ko'llanilishi mumkin:

- yagona Soliq to'lovi;
- yagona yer solig'i;
- tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo'yicha kat'iy belgilangan Soliq.

Davlat umummilliy dasturlarini amalga oshirish davrida tegishli jamg'armalar tashkil etilishi mumkin bo'lib, ularga qonun xujjatlarida nazarda tutilgan tartibda majburiy to'lovlar belgilanadi.

Soliq va boshqa majburiy to'lovlarning elementlari

Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning elementlari "Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar tizimi" ning asosiy bo'g'ini bo'lib hisoblanadi. Bular soliq solishdagi asosiy tushunchalardir. Ushbu tushunchalar davlat byudjeti va soliq to'lovchilar ertasidagi iqtisodiy-xuqukiy munosabatlarda yuzaga keladi.

Soliq Kodeksining 24-moddasida soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning elementlari aks ettirilgan. Bularga quyidagilar kiradi:

Soliq elementlari:

1. soliq solish obyekti;
2. soliq solinadigan baza;
3. soliq stavkasi;
4. soliqni hisoblab chiqarish tartibi;
5. soliq davri;
6. soliq hisobotini tag'dim etish tartibi;
7. soliqni to'lash tartibi.

Soliq solish obyekti - soliq to'lovchida soliq yoki boshqa majburiy to'lov hisoblab chiqarilishi va (yoki) to'lanishi yuzasidan majburiyat keltirib chiqaruvchi mol-mulk, harakat natijasidir.

Soliq solinadigan baza - soliq solish obyekti soliq yoki boshqa majburiy to'lovning stavkasi tatbikan belgilangan ko'rsatkichlardagi qiymat, miqdor, fizik va boshqa tavsiflarini ifodalaydi.

Soliq stavkasi - soliq solinadigan bazaning o'lchov birligiga nisbatan hisoblanadigan foizlardagi yoki mutlaq so'mmadagi miqdorni ifodalaydi.

Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning stavkalari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan belgilanadi.

Soliq va boshqa majburiy to'lovni hisoblab chiqarish tartibi – soliq davri uchun soliq solinadigan bazadan, stavkadan, shuningdek imtiyozlar mavjud bo'lsa, shu imtiyozlardan kelib chiqib, soliq va boshqa majburiy to'lov so'mmasini hisoblash koidalarini belgilaydi. Soliq va boshqa



majburiy to'lovlarni hisoblab chiqarish soliq to'lovchi tomonidan mustakil ravishda amalga oshiriladi. Soliq Kodeksda nazarda tutilgan hollarda, soliq va boshqa majburiy to'lovni hisoblab chiqarish majburiyati davlat soliq xizmati organiga yoki soliq agenti zimmasiga yuklatilishi mumkin.

Soliq davri – u tugaganidan keyin soliq solinadigan baza aniqlanadigan hamda soliq yoki boshqa majburiy to'lov so'mmasi hisoblab chiqariladigan davrdir. Soliq davri bir necha hisobot davriga bo'linishi mumkin bo'lib, ularning yakunlari bo'yicha hisob-kitoblarni taqdim etish hamda soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning to'lanishi lozim bo'lgan so'mmalarini to'lash majburiyati yuzaga keladi. Joriy to'lovlarni to'lash bo'yicha majburiyat yuzaga kelgan davr hisobot davri bo'lmaydi.

Soliq to'lash tartibi – Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash milliy valyutada, qonun xujjatlarida nazarda tutilgan hollarda esa chet el valyutasida amalga oshiriladi.

Savol bo'yicha ma'ruza jarayonida talabalarga beriladigan savollar

- 1.Soliqning qaysi turlarini bilasiz?
- 2.Majburiy to'lovlar degan nimani tushunasiz?
- 3.Soliqni hisoblab chiqarish uchun zarur bo'lgan elementlarni ayting, tushuntiring.

1.3. Soliqqa tortish obyekti va iqtisodiy mohiyati bo'yicha soliqlarning turkumlanishi

Soliq solish obyekti bo'yicha soliqlar 4-ta guruhga bo'linadi:

- 1.Oborotdan olinadigan soliqlar;
- 2.Daromaddan olinadigan soliqlar;
- 3.Mol-mulk qiymatidan olinadigan soliqlar;
- 4.Yer uchastkalari maydonidan olinadigan soliqlar.

Endi, har bir guruhga kiruvchi soliqlarni ko'rib chiqamiz.

Oborotdan olinadigan soliqlarga qo'shilgan qimmat solig'i, aksiz solig'i, bojxona boji va yer qa'ridan foydalanganlik uchun olinadigan soliqlar kiradi. Yalpi tushumdan olinadigan yagona soliq to'lovi ham oborotdan olinadigan soliqlarga kiradi.

Daromaddan olinadigan soliqlarga, yuridik shaxslarning foydasiga solinadigan, jismoniy shaxslarning daromadiga solinadigan, ixtisoslashtirilgan ulgurji savdo korxonalarsining yalpi daromaddan olinadigan hamda obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilgani rivojlantirish soliqlari kiradi.

Mol-mulk qiymatidan olinadigan soliqlarga yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk soliqlari kiradi.

Yer uchastkalari maydonidan olinadigan soliqlarga qishloq xo'jalik tovar ishlab chikaruvchilarining yagona yer solig'i, yuridik shaxslardan va jismoniy shaxslardan olinadigan yer soliqlari kiradi.

Iqtisodiy mohiyatiga ko'ra soliqlar ikki turga bo'linadi:

- 1.to'g'ri soliqlar;
- 2.egri soliqlar.

To'g'ri soliqlar to'g'ridan-to'g'ri ochiq daromadga va mulklarga solinadi.

To'g'ri soliqlarni bevosida soliq to'lovchining o'zi to'laydi, soliq to'lovchi ularni to'g'ridan-to'g'ri to'laydi. To'g'ri soliqlarga barcha daromadlardan to'lanadigan soliqlar va mol-mulkka solinadigan soliqlari kiradi, ya'ni bular quyidagilardi:

To'g'ri soliqlar:

- Yuridik shaxslardan olinadigan daromad solig'i



- **Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i**
- **Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqlar**
- **Jismoniy shaxslarning mol-mulniga solinadigan soliqlar**

Egri soliqlar mahsulot (ish va xazmat)larni narxidan qimmatga, ustiga qo'yib sotish orqali davlat xazinasiga kelib tushadigan mablag'lardir. Egri soliqlarning to'lovchilari mahsulotlarni yuklab yuboruvchilar hisoblanadi. Quyidagilar egri soliqlar bo'lib hisoblanadi. Egri soliqlarning ijoboy tomoni shundaki, ular mamalakatda ishlab chiqarilgan mahsulotlarning respublikadan tashqariga chiqib ketishini chegaralaydi, mamlakat ichida tovarlarning serob bo'lishiga yordam beradi.

Egri soliqlar:

- **Qo'shilgan qiymat solig'i**
- **Aksiz solig'i**
- **Bojxona boji**
- **Jismoniy shaxslarning transport vositalari uchun benzin, dizel yonilg'isi va gaz ishlatganlik uchun soliq**

Egri soliqlarning ijobiy tomoni shundaki, ular mamlakat ishlab chiqarilgan mahsulotlarning respublikadan tashqariga chiqib ketishini cheralaydi, mamlakat ichida tovarlarning serob bo'lishiga yordam beradi.

To'g'ri va egri soliqlar yagona soliq tizimini tashkil etadi. Ularning davlat byudjetiga hissalarini tahminan bir-birlariga yaqindir. Masalan, to'g'ri soliqlarning hissasi 2007 yilda 44,8%ni, to'g'ri soliqlarning hissasi 47,4%ni tashkil qilgan.

Savol bo'yicha ma'ruza jarayoni davrida talabalarga beriladigan savollar

- 1.Oborotdan olinadigan soliqlar deganda qaysi soliqlarni tushunasiz?
- 2.Daromardan olinadigan soliqlar qaysi soliqlar kiradi?
- 3.Egri soliqlar deb nimani tushunasiz?
- 4.To'g'ri soliqlarga qaysi soliqlar kiradi?

1.4. Soliq tizimining hukukiy asoslari. Soliq to'lovchilarning huquq va majburiyatlari

Soliq tizimining huquqiy asoslari va soliq solish prinsiplari

Mamlakatimizda soliq tizimining huquqiy asoslari, soliq to'lovchilarning huquq va majburiyatlari, soliq ishlarini yuritish tartib-qoidalari va soliqlar hakidagi qonun qoidalarining talablarini bo'zganlik uchun javobgarlik Soliq kodeksi va boshqa qonun xujjatlari orqali tartib solinadi. Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O'zbekiston Respublikasining soliq to'g'risidagi Qonun xujjatlarida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, unda xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi.

Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi bilan belgilanadi, o'zgartiriladi yoki bekor qilinadi. Mamalakatimizda soliq solish masallariga daxldor bo'lgan Normativ – Huquqiy xujjatlar Soliq Kodeksi qoidalariga mos holda bo'lishi kerak. Agar Normativ–Huquqiy xujjatlar qoidalari Soliq kodeksi qoidalariga mos bo'lmagan yoki farq qilgan tag'dirda, faqat soliq kodeksi qoidalari qullaniladi.

Soliq solish soliq majburiyatlari yuzaga kelgan paytda amalda bo'lgan qonun xujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Soliq to'g'risidagi Qonun xujjalari soliqqa tortish prinsiplariga asoslanadi.

Soliq solish prinsiplari soliq kodeksining 5-moddasi aks ettirilgan. Bular soliq solishning prinsiplari (tamoyillari) bo'lib hisoblanadi.

Soliq solish prinsiplari:

- **soliq solishning majburiyligi;**



- soliq solishning aniqligi;
- soliq solishning adolatliligi;
- soliq tizimining yagonaligi;
- soliq to'g'risidagi qonun xujjatlarining ishkoraligi;
- soliq to'lovchining haqligi prezumpsiyasi tamoyili.

Soliq solishning majburiyligi prinsipi. Har bir shaxs kodeksa belgilangan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash shart.

Soliq solishning aniqligi prinsipi. Soliq to'g'risidagi qonun xujjatlari har bir soliq to'lovchi qaysi soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni, qachon, qancha miqdorda hamda qanday tartibda to'lashi kerakligini aniq biladigan tarzda ifodalangan bo'lishi kerak.

Soliq solishning adolatliligi prinsipi. Soliq solish umumiydir. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha imtiyozlarni belgilash ijtimoiy adolat prinsiplariga mos bo'lishi kerak. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha yakka tartibdagi xususiyatga ega bo'lgan imtiyozlar berilishiga yo'l ko'yilmaydi. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar kamsitish xususiyatiga ega bo'lishi mumkin emas hamda ijtimoiy, irkiy, milliy, diniy va boshqa shu kabi mezonlardan kelib chiqqan holda kullanilishi mumkin emas.

Soliq tizimining yagonaligi prinsipi. Soliq tizimi O'zbekiston Respublikasining butun xududida barcha soliq to'lovchilarga nisbatan yagonadir. O'zbekiston Respublikasining bojxona xududi doirasida tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) yoki moliyaviy mablag'larning erkin muomalada bo'lishini bevosita yoki bilvosita cheklab ko'yadigan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar belgilanishiga yo'l ko'yilmaydi.

Soliq to'g'risidagi qonun xujjatlarining oshkoraligi prinsipi. Soliq solish masalalarini tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy xujjatlar rasmiy nashrlarda e'lon kilinishi shart. Barchaning e'tibor uchun rasmiy e'lon kilinmagan me'yoriy-huquqiy xujjatlar kuchga kiritilmagan xujjat sifatida huquqiy oqibatlarni keltirib chikarmaydi va soliq soxasidagi munosabatlarni tartibga solishga, ulardagi ko'rsatmalar bajarilmagannligi uchun biron bir sanksiyani ko'llashga asos bo'lib xizmat qilishi mumkin emas.

Soliq to'lovchining haqligi prezumpsiyasi prinsipi. Soliq to'g'risidagi qonun xujjatlaridagi bartaraf etib bo'lmaydigan barcha karama-karshiliklar va noaniqliklar soliq to'lovchining foydasiga talkin qilinadi.

Soliq kodeksining 31-32 moddalarida soliq to'lovchilarining huquq va majburiyatlari aks ettirilgan.

Soliq to'lovchining huquqlari

Soliq kodeksining 31-moddasida soliq to'lovchilarning huquqlari keltirilgan. Soliq to'lovchilar quyidagi huquqlarga ega:

1. davlat soliq xizmati organlari va boshqa vakolatli organlardan amaldagi soliqlar, boshqa majburiy to'lovlar, soliq to'g'risidagi qonun xujjatlaridagi o'zgarishlar, haqida axborot olish;
2. o'z soliq majburiyatlarini bajarish yuzasidan davlat soliq xizmati organlari hamda boshqa vakolatli organlardagi mavjud ma'lumotlarni olish;
3. soliq munosabatlari masalalari yuzasidan o'z manfaatlarini shaxsan yoki o'z vakili orkali ifoda etish;
4. Kodeksda, boshqa qonunlar va O'zbyokistoan Respublikasi Prezidentining karorlarida belgilab qo'yilgan asoslar mavjud bo'lgan taqdirda hamda tartibda soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha imtiyozlardan foydalanish;
5. soliqlar, boshqa majburiy to'lovlar, penya va jarimalarning ortiqcha to'langan yoki undirilgan so'mmalarini hisobga olish yoki qaytarib olish;
6. kodeksa hamda boshqa normativ-huquqiy xujjatlarda belgilangan shartlarda va tartiba soliqlar va majburiy to'lovlarni to'lashni kechiktirish va bo'lib to'lash;



7. soliq solish obyektini hisobga olishda, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblab chiqarish hamda to'lashda o'zlari yo'l ko'ygan xatolarni mustakil ravishda to'zatis;

8. soliq tekshiruvlari materiallari bilan tanishish va tekshiruv dalolatnomalarini olish;

9. soliq tekshiruvlarini amalga oshirayotgan davlat soliq xizmati organlariga soliq to'g'risidagi qonun xujjatlarini bajarishga doir masalalar yuzasidan tushuntirishlar berish;

10. davlat soliq xizmati organlarining, boshqa vakolatli organlar va ular mansabdor shaxslarining Kodeksga va boshqa normativ-huquqiy xujjatlarga muvofik bo'lmagan xujjatlari hamda talablarini bajarmaslik;

11. davlatsoliq xizmati organlarning va boshqa vakolatli organlarning karorlari, ular mansabdor shaxslarining harakatlari ustidan belgilangan tartibda shikoyat qilish;

12. davlat soliq xizmati organlarining va boshqa vakolatli organlarning qonunga xilof karorlari yoki ular mansabdor shaxslarining qonunga xilof harakatlari tufayli yetkazilgan zararining o'rni koplanishini belgilangan tartibda talab qilish.

13. soliq to'lovchilar qonun xujjatlariga muvofik boshqa huquqlarga xam ega bo'lishi mumkin.

Soliq to'lovchining soliq munosabatlarida shaxsan ishtirok etishi uni vakilga ega bo'lish huquqidan mahrum etmaydi, xuddi shuningdek vakilning ishtirok etishi soliq to'lovchini bunday munosabatlarda shaxsan ishtirok etish huquqidan maxrum etmaydi. Soliq to'lovchi vakillarining mazkur soliq to'lovchining soliq munosabatlaridagi ishtiroki munosabati bilan sodir etilgan harakati (harakatsizligi) soliq to'lovchining harakati (harakatsizligi) deb e'tirof etiladi.

Soliq to'lovchilarning majburiyatlari:

Soliq kodeksining 32-moddasiga ko'ra soliq to'lovchilarning majburiyatlari bo'lib, quyidagilar hisoblanadi:

1. o'z soliq majburiyatlarini o'z vaqtida va to'lik hajmda bajarishi;

2. qonun xujjatlariga muvofik buxgalteriya hisobini yuritish, moliyaviy va soliq hisobotini to'zishi;

3. davlat soliq xizmati organlariga va boshqa vakolatli organlarga imtiyozlar olish huquqini tasdiqlovchi xujjatlarni taqdim etishi;

4. soliq tekshiruvlari o'tkazilayotgan vaqtda davlat soliq xizmati organlariga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblab chiqarish, to'lash bilan bog'liq xujjatlar hamda ma'lumotlarni taqdim etishi;

5. davlat soliq xizmati organlarining va boshqa vakolatli organlarning hamda ular mansabdor shaxslarining qonuniy talablarini bajarishi, shuningdek mazkur organlarning, ular mansabdor shaxslarining qonuniy faoliyatiga to'skinlik kilmasligi shart.

Soliq agentlariyukorida nazarda tutilgan majburiyatlardan tashqari:

- soliq to'lovchilarga to'lanadigan mablag'lardan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'g'ri va o'z vaqtida hisoblab chiqarishi, ushlab qolishi hamda byudjetga va davlat maqsadli jamg'armalariga o'tkazishi;

- soliq to'lovchilarga to'langan daromadlarning, ushlab qolingani hamda byudjetga va davlat maqsadli jamg'armalariga o'tkazilgan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning hisobini yuritishi, shu jumladan har bir soliq to'lovchi bo'yicha alohida-alohida hisob yuritishi shart.

Savol bo'yicha ma'ruza jarayoni davrida talabalarga beriladigan savollar:

1. Soliqqa tartish prinsiplarini aytib, tushuntirib.

2. Soliq to'lovchining huquqlari soliq kodeksini nechanchi moddasida aks ettirilgan va ular qaysilar?

3. Soliq to'lovchining majburiyatlari deganda nimani tushunasiz?



2-Mavzu: Yuridik shaxslardan olinadigan soliqlar.

- 2.1 Yuridik shaxslardan olinadigan foyda **solig'i**.
- 2.2 Qo'shilgan qiymat solig'i
- 2.3 Aksiz **solig'i**.
- 2.4 Yuridik shaxslardan olinadigan yer **solig'i**.
- 2.5. Kichik biznes subyektlari uchun yagona Soliq to'lovi

Adabiyotlar ro'yxati.

- 1.O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi Rasmiy nashr Toshkent "Adolat", 2010. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 24-dekabrda "O'zbekiston Respublikasining 2011 yildagi asosiy mikroiqtisodiy ko'rsatkichlari va davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi PQ-1449-sonli Qaroriga 7,9,12,19 ilovalar "Soliq to'lovchining jurnali" 2011 yil yanvar.
- 2.Jo'rayev A. va boshqalar. Soliq va Soliqqa tortish. O'quv qo'llanma. Toshkent, 2009.

Tayanch iboralar

Yuridik shaxs. Foyda **solig'i**. Foyda **solig'i** obyekti.Soliq solinadigan baza.Soliq to'lovchi.Chegiriladigan va chegirilmaydigan harajatlar.Soliq stavkasi.

Kichik korxonalar.Mikrofirmalar.Soliq obyekti.Soliq solinadigan harajatlar.Soliq stavkasi.

Aksiz **solig'i**.Soliq to'lovchilar.Aksiz **solig'i** obyekti.Soliq solinadigan baza.Aksiz to'lanadigan tovarlar.Aksiz **solig'i** stavkalari.

Yer **solig'i**.Yer **solig'i**ni to'lovchilar.Soliq solish obyekti.Soliq solinadigan baza. Soliq imtiyozlari.Yer **solig'i** stavkalari.

Ma'ruza o'tish metodi

Ma'ruza "Bilaman.Bilishni xoxlayman. Bilib oldim", aqliy hujum metodlarini qo'llagan holda o'tiladi.

2.1 Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i

Foyda solig'i davlat byudjeti daromad qismining asosiy manbalaridan biri bo'lib hisoblanadi.ushbu soliq 1995 yil yanvar oyidan boshlab, 1992 yildan buyon harakatda bo'lgan daromad solig'i o'rniga joriy qilindi. Foyda **solig'i** mamlakatimizda tasdiqlangan Soliq kodeksining 23-moddasiga ko'ra umumdavlat soliqlari tarkibiga kiritilgan.

Yuridik shaxslar Foyda solig'ini to'lovchi

Foyda **solig'ini** to'lovchilar bo'lib, moliya yilida Soliqqa tortiladigan foydaga ega bo'lgan yuridik shaxslar hisoblanadi. Soliq to'lovchilar kodeksning 126-moddasida aks ettirilgan. Bular quyidagilardir:

1)O'zbekiston Respublikasining rezidentlari;

2) O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan yoki hosil bo'lish manbai O'zbekiston Respublikasi xududida joylashgan daromadlarni oladigan O'zbekiston Respublikasi norezidentlari.

O'zbekiston Respublikasi norezidentlari faqat Respublikada olgan daromadlaridan foyda **solig'ini** to'laydilar.

Soliq solishning alohida tartibiga o'tgan yuridik shaxslar foyda **solig'i** to'lovchilar bo'lib hisoblanmaydi. Shu jumlasiga quyidagi korxonalar kiradi:



Yagona Soliq to'loviga o'tgan mikrofirma va kichik korxonalar;
Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari;
Yagona yer **solig'ini** to'lovchi Qishloq xo'jalik korxonalari;

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining obyekti.

O'zbekiston Respublikasi rezidentlari va norezidentlarining foydasi hamda ularning chegirmalar kilinmagan holda to'lov manbaida Soliq solinadigan daromadlari foyda **solig'ining** obyekti bo'lib hisoblanadi.

Foyda solig'i solinadigan baza. Soliq silinadigan baza jami daromad bilan chegirib tashlanadigan harajatlar o'rtasidagi farq sifatida, soliq kodeksining 159-moddasiga muvofiq Soliq solinadigan foydaning kamaytirilishi hisobga olingan holda hisoblab chiqilgan soliq solinadigan foydadan kelib chiqib belgilanadi. Jami aromad tarkibiga kaysi daromadlar kiradi? Jami daromadlar tarkibiga tovarlarni (ishlarini, xizmatlarini) sotishdan olingan daromadlar va boshqa mulklarni sotishdan, ishlatishdan kelgan daromadlar kiradi. Boshqa mulklarni sotish va ishlatishdan kelgan daromadlarga asosiy vositalar va boshqa mol-mulkning chiqib ketishidan olinadigan daromadlar, mol-mulkni ijaraga berishdan olinadigan daromadlar, tyokin olingan mol-mulk, inventarizasiya natijasida aniqlangan tovar moddiy zaxiralar qiymati, majburiyatlarni hisobdan chiqarishdan olingan daromadlar, xizmat ko'rsatuvchi xo'jaliklaridan olingan daromadlar, valyuta kursidagi ijobiy farq, dividendlar va foizlar va boshqa daromadlar kiradi.

Soliq to'lovchining harajatlari Soliq solinadigan foydani aniqlash paytida hisobga olinadi. Harajatlar Soliq kodeksning 141 moddasiga ko'ra chegirib tashlanadigan va chegirib taylanmaydigan turlariga bulinadi. Chegirib tashlanadigan harajatlarga quyidagi lar kiradi:

- 1) Moddiy harajatlar;
- 2) Mehnatga haq to'lash harajatlari;
- 3) Amortizasiya harajatlari;
- 4) Boshqa harajatlar.
- 5) Kelgusida soliq solinadigan foydadan chegirib tashlanadigan hisobot davridagi harajatlar.

Soliq solinadigan bazaga kiratiladigan harajatlar Soliq kodeksning 141-moddasida aks etirilgan. Bular chegirib tashlanmaydigan harajatlardir.

Chegirilmaydigan harajatlar quyidagilarkiradi:

1. Moddiy qimmatliklarning tabiiy kamayishi me'yorlaridan ortiqcha yo'qotishlar va buzilishlar;
2. Xodimlarga berilgan yoki Soliq to'lovchining umumiy ovqatlanish ehtiyojlari uchun yordamchi xo'jaliklar tomonidan ishlab chiqariladigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo'yicha narxdagi farqlar. (zararlar);
3. Belgilangan me'yorlardan ortiqcha harajatlar (xizmat safarlari, vakillik harajatlari, ixtiyoriy sug'urta turlari bo'yicha ajratmalar);
4. Nodavlat pensiya jamg'armalariga ajratmalar;
5. Xo'jalik boshqaruvi organini saqlab turish uchun ajratmalar;
6. Umumiy ovqatlanish korxonalari va boshqa chet el tashkilotlariga joylarni bepul berish harajatlari;
7. Yilik moliyaviy hisobotni bir hisobot davrida bir martadan ortiq auditdan o'tkazish harajatlari;
8. Soliq to'lovchining faoliyatida talab etilmaydigan kasblar bo'yicha kadrlar tayyorlash harajatlari;
9. Xodimlarga bepul ko'rsatiladigan kommunal xizmatlar, beriladigan oziq ovqatlar, tovarlar, mahsulotlar va boshqa qimmatliklar yoki xodimlar uchun ishlar hamda xizmatlarni bajarish qiymati, ularga bepul beriladigan uy joy haqini to'lash harajatlari (yoki uy-joy, kommunal xizmatlar va boshqa lar uchun pul kompensasiyasi so'mmalari);
10. Xodimlarga qo'shimcha berilgan ta'tillarga to'langan haq va ular yuzasidan qonun



xujjatlarida nazarda tutilgan me'yorlardan ortiqcha kompensasiyalar;

11. Xodimlarning ovqatlanishi, yo'l haqi, davolanishi uchun, davolanish va dam olishi uchun yo'llanmalar, ekskursiyalar va sayoxatlar uchun, sport seksiyalari, to'garaklari, klublaridagi mashg'ulotlarga, madaniy-tomosha, jismoniy tarbiya va sport tadbirlariga borishi uchun, obuna hamda xodimlarning shaxsiy foydalanishi uchun tovarlarga qilingan harajatlarning o'rnini qoplash yoki to'lash va boshqa shunga o'xshash to'lovlar;

12. Pensiyalarga ustamalar, pensiyaga chiqayotgan mehnat faxriylariga bir yo'la to'lanadigan nafaqalar;

13. Bayram sanalari va muxim sanalar, jamoat faoliyatidagi yutuqlar munosabati bilan xodimlarni rag'batlantirish hisoblanadigan bir yo'la mukofotlar;

14. Sud chiqimlari va boshqalar.

Soliq bo'yicha belgilangan imtiyozlar.

Soliq kodeksining 158-159 moddalarida yuridik shaxslarga foyda **solig'i** bo'yicha beriladigan imtiyozlar qayd qilingan. Bular o'z navbati 3-ta guruhga bo'linadi:

1. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda **solig'ini** to'lashdan quyidagi yuridik shaxslar ozod qilinadi:

- nogironlarning jamoat birlashmalari, «Nuroni» jamg'armasi va «O'zbekiston chernobilchilari» assosiasiyasi mulkida bo'lgan, ishlovchilari umumiy sonining kamida 50 foizini nogironlar, 1941-1945 yillardagi urush va mehnat fronti faxriylari tashkil etgan yuridik shaxslar, bundan savdo, vositachilik, taminlash-sotish va tayyorlov faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslar mustasno. Mazkur imtiyozni olish huquqini belgilayotganda xodimlarning umumiy soniga shtatda turgan xodimlar kiritiladi;

- davolash muassasalari xo'zuridagi davolash-ishlab chiqarish ustaxonalari;

- jazoni ijroitish muassasalari;

- ichki ishlar organlari xuzuridagi qo'riqlash bo'linmalari.

2. Yuridik shaxslarning quyidagi foydasi yuridik shaxslardan olinadigan foyda **solig'ini** to'lashdan ozod qilinadi:

- protez-ortopediya buyumlari, nogironlar uchun inventarlar ishlab chiqarishdan,

shuningdek nogironlarga ortopedik protezlash xizmati ko'rsatishdan, nogironlar uchun mo'ljallangan protez-ortopediya buyumlari va inventarlarni ta'mirlash hamda ularga xizmat ko'rsatishdan olingan foydasi;

- shahar yo'lovchilar transportida (taksidan, shu jumladan yo'nalishli taksidan tashqari) yo'lovchilarni tashish bo'yicha xizmatlar ko'rsatishdan olingan foydasi;

- tarixiy va madaniyat yodgorliklarini ta'mirlash hamda qayta tiklash ishlarini amalga oshirishdan olingan foydasi;

- investisiya fondlarining xususiylashtirilgan korxonalar aksiyalarini sotib olishga yo'naltiriladigan foydasi;

- xalk banki tomonidan larning shaxsiy jamgarib boriladigan pensiya hisobvaraklaridagi mablag'lardan foydalanishdan olingan foydasi.

3. Yuridik shaxslarning Soliq solinadigan foydasi quyidagi so'mmaga kamaytiriladi:

- ekologiya, sog'lomlashtirish va xayriya jamg'armalari, madaniyat, xalk ta'limi, soglikni saklash, mehnat va aholini ijtimoiy muxofaza qilish, jismoniy tarbiya va sport muassasalariga, larning o'zini-o'zi boshqarish organlariga beriladigan badallar so'mmasiga, biroq Soliqsolinadigan foydaning bir foizidan ko'p bo'lmagan miqdorda;



- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining qarori asosida kollejlari, akademik liseylar, maktablar va maktabgacha tarbiya ta'lim muassasalari qurilishiga yo'naltirilgan mablag'lar so'mmasiga, lyokin Soliq solinadigan foydani 30 foizdan ko'p bo'lmagan miqdorda;

- Asosiy ishlab chiqarishni yangi qurilish shaklida kengaytirishga, ishlab chiqarish maqsadida foydalaniladigan binolar va inshootlarni rekonstruksiya qilishga, shuningdek ushbu maqsadlar uchun olingan kreditlarni o'zishga yo'naltiriladigan mablag'lar so'mmasiga, tegishli Soliq davrida hisoblangan amortizatsiyani chegirib tashlagan holda, biroq Soliq solinadigan foydani 30 foizdan ko'p bo'lmagan miqdorda;

- Ishlab chiqarishni modernizatsiyalashga, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlashga, yangi texnologik jihozlari harid qilishga, ushbu maqsadlar uchun berilgan kreditlarni o'zishga, lizing obyekti qiymatining o'rnini qoplashga, tegishli Soliq davridan hisoblangan amortizatsiyani chegirgan holda yo'naltiriladigan mablag'lar so'mmasiga. Soliq solinadigan bazani kamaytirish yukorida kursatib utilgan xajaratlar amalga oshirilgan Soliq davrida e'tiboran, texnologik jihozlari bo'yicha esa u foydalanishga topshirilgan paytdan e'tiboran 3 yil ichida amalga oshiriladi. Yangi texnologiya jihozlari ular olingan (import qilingan)paytdan e'tiboran 3 yil ichida realizatsiya qilingan yoki tyokin berilgan taqdirda, mazkur imtiyozni amal qilishi foydadan olinadigan Soliqni to'lash bo'yicha majburiyatlar tiklangan holda , imtiyoz qo'llanilgan butun davr uchun bekor qilinadi;

- Yosh oilalar toifasiga kiruvchi xodimlarga ipoteka kreditlari badallari to'lashga va (yoki) mulk sifatida uy-joy olishga tyokin yo'naltiriladigan mablag'lar so'mmasiga, biroq Soliq solinadigan bazaning 10 foizidan oshmagan miqdorda;

- diniy va jamoat birlashmalarining (kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar va harakatlardan tashqari), xayriya jamg'armalarini mulkida bo'lgan korxonalar foydasidan shu birlashmalar va jamg'armalarining ustavda belgilangan faoliyatini amalga oshirish uchun yo'naltiriladigan ajratmalari so'mmasiga.

Yuridik shaxslarning foyda solig'i stavkalari.

Soliq stavkalari Prezident qarori bilan tasdiqlanadi.

2011 yil uchun foyda **solig'i** stavkalari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 24-dekabrda PK-1449-sonli qarori bilan tasdiqlangan. Bular quyidagi jadvalda keltirilgan.

Yuridik shaxslar foydasiga solinadigan Soliq stavkalari.

No	Soliq to'lovchilar	Soliq solinadigan bazaga nisbatdan foizda
	Yuridik shaxslar (2-3 bandlardagidan tashqari)	9
	Tijorat banklari	15
	Auksionlar o'tkazishdan, gastrol-qonsert faoliyati bilan shug'ullanishga lisenziyasi bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslarni (shuningdek norezidentlarni) jalb etish yo'li bilan ommaviy tomosha tadbirlarini tashkil etishdan daromad oluvchi yuridik shaxslar	35
	O'zi ishlab chikargan tovarlar, ishlar, xizmatlar eksportining (ishlarni bajarish, xizmatlarni ko'rsatish joyidan qat'iy nazar) erkin almashtiriladigan valyutadagi ulushi quyidagi miqdorlarni tashkil etadigan eksportchi korxonalar uchun (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997 yil 12 oktyabrda PF-1871-son Farmoni bilan tasdiqlangan ro'yxatda keltirilgan xom-ashyo mahsulotlaridan tashqari) :	



	Sotishning umumiy hajmi da 15 foizdan 30 foizgacha	Belgilangan stavka 30 % ga pasaytiriladi
	Sotishning umumiy hajmi da 30 foiz va undan yukori	Belgilangan stavka 50 % ga pasaytiriladi
	1-bandda ko'rsatilgan xizmatlar ko'rsatish soxasi korxonalari uchun, plastik kartalar qo'llanib haq to'langan holda ko'rsatilgan xizmatlar hajmi bo'yicha.	Belgilangan stavka 10 % ga pasaytiriladi

O'zbekiston Respublikasi norezidentlarining daromadlariga to'lov manbaida Soliq solish stavkalari.

Soliq stavkalari Soliq kodeksining 160-soddasida aks ettirilgan.

O'zbekiston Respublikasi norezidentining doimiy muassasa bilan bog'liq bo'lmagan va to'lov manbaida Soliq solinadigan daromadlariga quyidagi stavkalar bo'yicha Soliq solinadi:

- 1.Dividendlar va foizlarga –10 foiz;
- 2.Sug'urta qilish ,birgalikda sug'urta qilish va qayta sug'urta qilish shartnomalari bo'yicha sug'urta mukofotlariga-10 foiz;
- 3.Xalqaro aloqa uchun telekommunikasiyalar, xalqaro tashishlarga (fraxtdan olinadigan daromadlarga)- 6 foiz;
4. Soliq kodeksining 155-moddasida belgilangan daromadlar, bundan ushbu qismning 1-3 bandlarida ko'rsatilgan daromadlar mustasno 20 foiz.

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini hisoblab chiqarish Soliq solinadigan bazadan va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

Soliq hisoboti, soliqni to'lash muddatlari.

Foyda **solig'i** bo'yicha hisobotlar to'ziladi va belgilangan muddatlarda tegishli Soliq idoralariga taqdim qilinadi,ya'ni ortib boruvchi yakun bilan yilning har choragida hisobot choragidan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatda taqdim qilinadi.

Foyda **solig'i** byudjetga belgilangan muddatlarda to'lanadi. Yilning hisobot choragida tahmin qilinayotgan Soliq solinadigan foydasi eng kam ish haqining 200 barabaridan ko'proq miqdorni tashkil etadigan yuridik shaxslar foyda **solig'i** bo'yicha joriy avans (bunak) to'lovlarini amalga oshiradi. Bunak to'lovlari har oyning 15-kunida yilning choragi bo'yicha tahmin qilinayotgan Soliq solinadigan foydaga nisbatdan hisoblab chikilgan foyda **solig'i** so'mmasining uchdan bir qismi miqdorida to'laydi.

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda **solig'i** bo'yicha joriy to'lovlarning so'mmasini aniqlash uchun Soliq to'lovchilar yilning joriy choragi birinchi oyning 10 kunigacha davlat Soliq xizmati organiga yilning tegishli choragida tahmin qilinayotgan foyda va belgilangan foyda **solig'i** stavkasi asosida ma'lumotnoma taqdim etadilar. Joriy to'lovlar belgilangan muddatlarga to'lanmasa, har bir kechiktirilgan kun uchun hisoblangan Soliq so'mmasiga nisbatan 0,05 foiz miqdorida penya hisoblanadi.

Tahmin qilinayotgan Soliq solinadigan foydasi eng kam ish haqining 200 barobaridan kam bo'lgan yuridik shaxslar bir marta foyda **solig'ini** to'laydilar. Bunday yuridik shaxslar joriy avans to'lovlarini amalga oshirmaydilar.

Mazkur savol bo'yicha maruza jarayenida talabalarga beriladigan savollar

1. Foyda **solig'ini** to'lovchi yuridik shaxslarini ayting?



2. Foyda **solig'i** obyekti qanday aniqlanadi?
3. Foyda **solig'i** bazasi deganda nima tushuniladi?
4. Qaysi yuridik shaxslar foyda **solig'idan** ozod qilinadi?

2.2 Qo'shilgan qiymat solig'i.

Qo'shilgan qiymat **solig'i** har bir ishlab chiqarish boskichida yaratilgan qo'shimcha qiymatdan realizasiya jarayonida undiriladigan ko'p kirrali ergi Soliqdir. Ushbu Soliq O'zbekistonda 1992 yilda joriy etildi. Ushbu Soliq Davlat byudjeti daramodlar qismida eng yukori salmoqli o'rinni egallaydigan Soliqlardan biridir

Soliq to'lovchilar.

Soliq kodeksining 197- moddasiga ko'ra , Soliq to'lovchilar bo'lib , quyidagi lar hisoblanadi:

- 1) Soliq solinadigan oborotlarga ega bo'lgan yuridik shaxslar;
- 2) O'zbekiston Respublikasi norezidentlari tomonidan amalga oshirilayotgan Soliq solinadigan oborotlar uchun Qo'shilgan qiymat **solig'i** to'lash bo'yicha majburiyat yuklatiladigan yuridik shaxslar;
- 3) Tovarlarni O'zbekiston xududiga import qiluvchi yuridik va jismoniy shaxslar;
- 4) Oddiy shirkat Soliq solinadigan oborotlarni amalga oshirayotganda zimmasiga uning ishlarini yuritish yuklatilgan (ishonchli shaxs) odiy shirkat shartnomasining sherigi (ishtirokchisi).

Soliq solish obyekti.

Soliq kodeksining 198-m oddasida Soliq solish obyekti aniq ko'rsatilgan. Ushbu moda bo'yicha Soliq solish obyekti bo'lib quyidagi lar hisoblandi:

- 1) Soliq solinadigan oborot;
- 2) Soliq solinadigan import.

Soliq solinadigan oborot deganda nima tushuniladi?

Soliq solinadigan oborot deganda tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizasiya qilish oboroti tushuniladi.

Tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizasiya qilish oboroti deb quyidagi lar e'tirof etiladi:

- 1) Mol- mulkka bo'lgan mulk-huquqini o'tkazish, shu jumladan:
 - tovar va boshqa mol- mulkni junatish (sotish);
 - ustav fondiga Qo'shilgan xissa;
 - mol- mulkni bepul berish;
 - xodimga ish haqi hisobiga yoki muassisa dividendlar to'lash hisobiga mol- mulk berish;
- 2) Mol- mulkni moliyaviy ijaraga berish.
- 3) Mol –mulkni moliya ijarasiga berish.
- 4) Intellektual mulk obyektlariga bo'lgan huquqni o'tkazish yoki ulardan foydalanish huquqini berish va boshqalar.

Realizasiya qilish oborotiga kiritilmaydigan tovarlar xam Soliq kodeksining 199 moddasiga aks ettirilgan.

Soliq solinadigan import deganda nima tushuniladi?

Soliq solinadigan import deganda,O'zbekiston Respublikasining bojxona xududiga olib kirilayotgan tovarlar tushuniladi. Bular tarkibiga Kodeksning 211-moddasini muvofiq qo'shimcha qiymat **solig'idan** ozod etilgan import tovarlar kiritilmaydi.

Soliq solinadigan baza.

Soliq solinadigan baza Soliq kodeksining 204- moddasiga binoan aniqlanadi.

Soliq solinadigan baza realizasiya kilinayotgan tovarlarning qiymati asosida, unga Qo'shilgan qiymat **solig'ini** kiritmagan holda belgilanadi.



Tovarlar tanarxidan yoki tovarlar olingan narxdan past narxlarda realizasiya qilingan tagdirda , Soliq solinadigan baza tovarlarning tannarxidan yoki tovarlar olingan narxdan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Tovarlar qayta ishlashga berilganda xom-ashyo va materiallardan tayyorlangan taqdirda , Soliq solinadigan baza Qo'shilgan qiymat solig'ini kiritmagan holda ularni qayta ishlash xizmatlarining qiymati asosida, aksiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha esa, ularni qayta ishlash xizmatlarini qiymati asosida, kodeksning 232- moddasiga muvofik hisoblab chiqarilgan aksiz solig'ini hisobga olgan holda belgilanadi.

Import qilingan tovarlar realizasiya qilinganda, soliq solinadigan baza realizasiya qilinayotgan tovarlarning qo'shilgan qiymat solig'i kiritilmagan qiymatidan kelib chiqqan holda belgilanadi. Bunda ba'za mazkur import qilinganda qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblab chiqarish uchun qabul qilingan qiymatdan past bo'lishi mumkin emas.

Aksiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha Soliq solinadigan bazaga aksiz **solig'**ining so'mmasi kiritiladi.

Tovarlarni import qilishda Soliq solinadigan baza.

Tovarlarni import qilishda Soliq solinadigan baza bo'lib, belgilangan bojxona qiymati, tovarlarni import qilishda to'lanishi lozim bo'lgan aksiz solig'i va bojxona bojlarning so'mmalarining yigindisi hisoblanadi.

Soliq stavkasi.

Qo'shilgan qiymat Soliq stavkasi, u joriy etilgan paytda (1992 yilda) 30 % kilib belgilangan. 2000 yilda 20% kilib belgilangan. Ushbu stavka

xozirgi kunga kadar o'zgargan emas. 2010 yil uchun xam O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 24- dekabrda PK - 1245 – sonli qarori bilan stavka darajasi 20 foiz miqdorida koldirilgan. Xozirgi vaqtda mamlakatimizda 20 foizli va nol darajali stavka qo'llanimoqda.

Nol darajali stavka bo'yicha tovarlarni chet el valyutasida eksportga realizasiya qilish (paxta tolasi va lint bundan mustasno) oborotiga Qo'shilgan Qiymat **solig'i** solinadi.

Tovarlar eksporti degan nima tushuniladi?

Tovarlar ekporti deganda tovarlarni O'zbekiston Respublikasining bajxona xududidan olib chikish tushuniladi.

Soliq imtiyozlari.

Soliq bo'yicha imtiyozlar Soliq Kodeksining 37-bobani 208-211 moddalarida keltirilgan ya'ni ular to'rt guruhga bo'lib berilgan. Bular quyidagilardir:

I)Soliqdan ozod etiladigan tovarlarni realizasiya qilish oboroti (208 modda). Ularning soni kodeksda 35–ta punktda qayd qilingan. Shularni ayrimlarini misol tariqasida keltirdik:

- davlat organlari fuqarolarning o'zini o'zi boshqa rish organlari tomonidan ko'rsatiladigan, davlat boji va yig'imlar undiriladigan xizmatlar;

- maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni tarbiyalashga doir xizmatlar;
- protez – ortopediya buyumlari, nogironlar uchun mo'ljallangan inventarlar;
- byudjet mablag'lari hisobidan bajariladigan ilmiy- tarkikot va innovasiya ishlari;
- shahar yo'lovchilar transportining xizmatlari (taksidan tashqari) va boshqa lar.

II) Soliqdan ozod qilinadigan moliyaviy xizmatlar (209 modda). Shular jumlasiga quyidagilarni misol kilib , keltiramiz:

- kreditlar, zayemlar bo'yicha hisoblab chiqarish va undirish . kreditlar, zayemlar berish;
- to'lovlar , o'tkazmalar, qarz mojburyatlari, cheklar bilan bog'liq operasiyalar;
- akkreditivlar ochish va ularga xizmat ko'rsatish;



- pul mablag'larini qonvertasiya qilish bo'yicha operatsiyalar va boshqa lar (xammasi 16 – ta punktda aks ettirilgan).

III) Soliqdan ozod qilinadigan sug'urta xizmatlari (210 - modda). Shular jumlasiga quyidagi xizmatlarni misol kilib ko'rsatamiz:

1. Sug'urta bozorining professional ishtirokchisi quyidagi larni olsa, Qo'shilgan qiymat **solig'idan** ozod etiladi ;

- sug'urta qilish, birgalikda sug'urta qilish va kayti sug'urta qilish shorthnomalari bo'yicha sug'urta mukofotlari;

- sug'urta agenti, sug'urta va kayita sug'urta brokeri va hamda sug'urta bozorining boshqa professional ishtirokchilarining xizmatlari uchun vositachilik haqi;

- qayta sug'urta qilishga topshirilgan shartnomalar bo'yichaa sug'urta to'lovlari ulushining qayta sug'urtalovchilar tomonidan to'lanadigan to'lovini va boshqalar (13–ta punkta ko'rsatilgan).

2. Sug'urta qildiruvchi (naf oluvchi) quyidagilarni olsa, qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilinadi:

-sug'urta to'lovi (sugorta to'voni)

-sug'urta qilish shartnomasi zararsiz amal qilishi uchun sug'urtalovchi to'laydigan mablag'lar;

-sug'urta qilish shartnomasiga muvofiq boshqa mablag'lar.

IV) Soliqdan ozod qilinadigan import. Bular Soliq Kodeksining 211–moddasida 10 punkta qayd qilingan . Shulardan ayrimlarni quyida misol tarakasida keltirdik :

-jismoniy shaxslar tomonidan tovarlarni bojsiz olib kirishning bojxona to'g'risidagi qonun xujjatlarida tasdiqlangan normalari doirasida olib kiriloyetgan tovarlar;

- Vazirlar maxkamasi tomonidan belgilangan tartibda insonparvarlik yordami tariqasida olib kirilayotgan tovarlar;

- davlatlar, xukumatlar va Xalqaro tashkilotlar tomonidan xayriya yordami maksodida olib kirilayotgan tovarlar;

- dori vositlari va tibbiy (vetirinariya) buyumlari hamda ularni ishlab chiqarish uchun olib kirilayetgan xam ashyo va boshqa lar.

Soliqni hisoblab chiqarish va to'lash tartibi.

Soliq solinadigan oborotlar bo'yicha Qo'shilgan qiymat **solig'i**, Soliq solinadigan baza va belgilangan stavkalardan kelib chiqqan holda hisoblab chiqiladi. Byudjetga to'lanishi lozim bo'lgan Qo'shilgan qiymat **solig'i** Soliq solinadigan oborot bo'yicha hisoblab chikkarilgan Soliq so'mmasi bilan, Kodeksning 218 – moddasiga muvoriq hisobga olinadigan Soliq so'mmasi o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadi.

Tovarlarni import qilish bo'yicha Qo'shilgan qiymat **solig'ining** so'mmasi Soliq solinadigan baza va belgilangan stavkada kilib chiqqan holda aniqlanadi.

Soliqning hisob - kitobi Soliq xizmati organlariga ortib beruvchi yakun bilan kuyidagi muddatlarda taqdim etiladi:

1) Soliq to'lovchi bo'lgan mikrofirma va kichik korxonolar tomonidan – yilning har chorogida hisobot davrining keyingi oyining 25 kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yil moliyaviy hisobot topshirilgan muddatda tag'dim etildi.

2) Mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan Soliq to'lovchilar tomonidan – har oyilar hisobot davridan keyingi oyining 25 kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan mudda tag'dim etiladi.



Qo'shilgan qiymat solig'ining hisob- kitoblari bilan bir vaqtda Soliq davri mabaynida olingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo'yicha hisobvarak – fakturalar reyestri tag'dim etiladi. Ushbu xujjatlar shakli O'zbekiston Respublikasi Davlat Soliq Qo'mitasi tomonidan belgilanadi. Soliqni byudjetga to'lash hisob- kitoblarni tag'dim etish uchun belgilangan kundan kechiktirmay amalga oshiriladi. Import qilinadigan tovarlar bo'yicha Soliqni to'lash bojxona rasmiylashtiruviga kadar yoki bojxona rasmiylashtiruvi vaqtida amalga oshiriladi.

Savol bo'yicha talabalarga beriladigan savollar.

- 1) Qo'shilgan qiymat **solig'**ini to'lovchi shaxslarni ayting.
- 2) Soliq solinadigan oborot degan nima tushuniladi?
- 3) Soliq solinadigan import deganda nima tushuniladi?
- 4) Qo'shilgan qiymat **solig'**i qanday hisoblab chiqiladi?

2.3 Aksiz solig'i

Mamlakatimizda aksiz **solig'**i 1992 yilda joriy etildi. Aksiz **solig'**i individual harakterga ega bo'lib, faqat aksiz to'lanadigan tovarlarga nisbatan qo'llaniladi. U bajarilgan ish, ko'rsatilgan xizmatlarga nisbatan qo'llaniladi. Qo'shilgan qiymat **solig'**i tovarlar, bajarilgan ish va ko'rsatilgan xizmatlarga nisbatan qo'llaniladi. Demak, faqat aksiz **solig'**i ayrim tovar va mahsulotlarga nisbatan qo'llaniladi, ya'ni ular bilan chegaralangan.

Aksiz **solig'**i egri Soliqlar tarkibiga kiradi. U Qo'shilgan qiymat **solig'**iga tortiladigan bazada va narxda hisobga olinadigan yuklab junatilgan tovarlar qiymatining bir qismini byudjetga undirish shakli hisoblanadi. Aksiz **solig'**i Respublika byudjetiga tulik kelib tushadi. U byudjet daromadlarini shakllantirishda salmokli o'rinni egallaydi.

Aksiz solig'ini to'lovchilar

Aksiz to'lanadigan tovarlarni ishlab chikaruvchi va import qiluvchi yuridik va jismoniy shaxslar aksiz **solig'**ini to'lovchilar bo'lib hisoblanadi.

Aksiz solig'i solinadigan obyekt

Aksiz **solig'**i obyekt Soliq kodeksining 230-moddasida aks ettirilgan, Ushbu moddaga ko'ra quyidagi operatsiyalar aksiz **solig'**i solinadigan obyekt bo'lib hisoblanadi:

- 1) aksiz to'lanadigan tovarlarni realizatsiya qilish;
- 2) aksiz to'lanadigan tovarlarni yuridik shaxsning ustav fondiga (ustav kapitaliga) xissa yoki pay badali tariqasida topshirish;
- 3) aksiz to'lanadigan tovarlarni yuridik shaxsning ishtirokchisiga (muassisiga) u yuridik shaxs tarkibidan chiqqan (chiqib ketgan) taqdirda topshirish;
- 4) aksiz to'lanadigan tovarlarni ulush qo'shish asosida qayta ishlashga topshirish;
- 5) ishlab chiqarilgan va (yoki) kazib olingan aksiz to'lanadigan tovarlarni o'z ehtiyojlari uchun topshirish;
- 6) aksiz to'lanadigan tovarlarni O'zbekiston Respublikasining bojxona xududiga import qilish.

Kaysi aksiz to'lanadigan tovarlarga aksiz solig'i solinmaydi?

Aksiz **solig'**i to'lanmaydigan tovarlarga quyidagi lar kiradi:

- 1) aksiz to'lanadigan tovarlarni ularning ishlab chikaruvchilari tomonidan eksportga realizatsiya qilishga, bundan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi tomonidan belgilanadigan aksiz to'lanadigan tovarlarning ayrim turlari mustasno;
- 2) keyinchalik O'zbekiston Respublikasining bojxona xududidan olib chiqib ketilishi sharti bilan «bojxona xududida qayta ishlash» bojxona rejimiga joylashtirilgan tovarlardan ishlab chiqarilgan qayta ishlash maxsuli bo'lgan aksiz to'lanadigan tovarlarni topshirishga;



3) tabiiy ofatlar, kurolli mojarolar, baxtsiz xodisalar yoki avariylar yuz berganda yordam ko'rsatish uchun, insonparvarlik yordami va begaraz texnik ko'mak sifatida, shuningdek xayriya maqsadlari uchun aksiz to'lanadigan tovarlarni davlatlar, xukumatlar, Xalqaro tashkilotlar tomonidan O'zbekiston Respublikasining bojxona xududiga import qilishga;

4) aksiz to'lanadigan tovarlarni O'zbekiston Respublikasining bojxona xududiga aksiz **solig'i** solinmaydigan tovarlarni olib kirish me'yorlari doirasida jismoniy shaxslar tomonidan import qilishga;

5) vakolatli davlat organining yozma tasdig'i mavjud bo'lgan tagdirda, telekommunikasiyalar operatorlari va tezkor-kidiruv tadbirlari tizimining texnik vositalarini sertifikatlashtirish bo'yicha maxsus organ tomonidan olinadigan tezkor-kidiruv tadbirlari tizimi texnik vositalarini import qilishga.

Aksiz solig'i solinadigan baza

Soliq kodeksining 232-moddasida soliq solinadigan baza baratafsil bayon qilingan. Bu quyidagilardir:

Aksiz solig'ining stavkalari mutloq so'mmada (qat'iy) belgilangan aksiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha soliq solinadigan baza aksiz to'lanadigan tovarlarning naturada ifodalangan hajmi asosida aniqlanadi.

Aksiz **solig'ining** stavkalari foizlarda (advalor) belgilangan ishlab chiqarilayotgan aksiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha, agar boshqa cha koida nazarda tutilmagan bo'lsa, realizasiya qilingan aksiz to'lanadigan tovarlarning aksiz **solig'i** hamda Qo'shilgan qiymat **solig'i** kiritilmagan qiymati Soliq solinadigan bazadir.

Ish haqi hisobiga, hisoblab chiqarilgan devidendlar hisobiga, bepul yoki boshqa tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga) ayirboshlash uchun beriladigan aksiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha, shuningdek tovarlar tannarxidan past narxlarda realizasiya qilingan taqdirda Soliq to'lovchi tovarlarni topshirish paytida uning haqiqiy tannarxidan kam bo'lmagan darajada belgilaydigan narx asosida hisoblangan qiymat Soliq solinadigan bazadir.

Qayta ishlashga berilgan xom ashe va materiallardan ishlab chiqarilgan aksiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha Soliq solinadigan baza aksiz to'lanadigan tovarlarni ishlab chiqarishga doir ishlar qiymatini hamda qayta ishlashga berilgan xom ashe va materiallar qiymatini o'z ichiga oladi.

Aksiz solig'ining stavkalari foizlarda belgilangan import qilinayotgan aksiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha Soliq solinadigan baza bojxona to'g'risidagi qonun xujjatlariga muvofik aniqlanadigan bojxona qiymati asosida belgilanadi

Aksiz solig'i stavkalari

Aksiz solig'i to'lanadigan tovarlar ro'yxati va Soliq stavkalari Prezident Karorlari bilan tasdiqlanadi. Aksiz solig'i stavkalari tovarning qiymatiga nisbatan foizlarda va (yoki) naturada ifodalangan o'lchov birligi mutlaq so'mmada (qat'iy) belgilanadi. 2011 yil uchun tasdiqlangan aksiz to'lanadigan tovarlar ro'yxati va Soliq stavkalari quyida keltirildi.

Jadval

Mamlakatda ishlab chiqarilib aksiz solig'iga tortiladigan tovarlarga nisbatan aksiz solig'i stavkalari

Tovarlar nomi	Soliq stavkasi	
	Aksiz solig'i va QQSni hisobga olmagan holda sotilgan tovarlar	bir o'lchov birligiga so'mlarda



	qiymatiga nisbatan foizlarda	2010 yil	2011 yil
1. Etil spirti (1 dal uchun)		1763	2292
2. Vino (1 dal tayyor mahsulot uchun) ¹		4125	4744
3. Qonyak, arok va boshqa alkogolli mahsulotlar (1 dal tayyor mahsulot uchun) ¹		15538*	18956
4. Pivo (1 dal tayyor mahsulot uchun) ¹		1875	2156
5. Usimlik (paxta) yogi (1 tonna uchun) ¹ :			
oziq-ovqat yogi (salomas ishlab chiqarish uchun ishlatiladigan yog va «O'zbekiston» yogidan tashqari)		544500	657900
texnik moy (kislota miqdori 0,3 mg QON/g dan yukori, oziq-ovqat mahsulotlari tarkibiga qo'shishga yaroksiz bo'lgan)		361900	361900
6. Sigaretalar (1 ming dona uchun) ¹ :			
filtrli		7159	8949
Filtrsiz va papirosalar		2879	4319
7. Zargarlik buyumlari	25		
8. «Jeneral Motors O'zbekiston» YoAJ ishlab chikargan avtomobillar ²	29		
9. Kumushdan ishlangan oshxona anjomlari	11		
10. Qimmatbaho metallar ²			
11. Neft mahsulotlari ¹ :			
Ai-80 benzini	40%, biroq 1 tonna uchun 292250so'mdan kam bo'lmagan miqdorda		
Ai-91, Ai-92, Ai-93 benzin	40%, biroq 1 tonna uchun 321300 so'mdan kam bo'lmagan miqdorda		
Ai-95 benzini	40%, biroq 1 tonna uchun 371750 so'mdan kam bo'lmagan miqdorda		
dizel yokilgisi	34%, biroq 1 tonna uchun 248550 so'mdan kam bo'lmagan miqdorda		
aviakerosin	9%, biroq 1 tonna uchun 43350 so'mdan kam bo'lmagan		



	miqdorda		
12. Tabiiy gaz (aholiga sotiladigan tabiiy gaz hajmlaridan tashqari) ² , shu jumladan eksport	25		
13. Ishlab chikaruvchi korxonalar tomonidan sotiladigan suyultirilgan gaz («O'ztransgaz» AK mintakalararo unitar korxonalari tomonidan aholiga sotiladigan gaz hajmi bundan mustasno), shu jumladan eksport ²	26		
14. Paxta tolasi ³			

*) Hajmiy ulushda etil spirti 40 foizdan ko'p bo'lgan qonyak, arok va boshqa alkogolli mahsulotlarga aksiz **solig'i** stavkasi 1 dal tayyor mahsulot uchun 31236 so'm miqdorida belgilanadi.

Izox:

1. Bir o'lchov birligiga so'mda belgilangan aksiz **solig'i** stavkalari O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan narxlarning dinamikasi hamda mahsulotning sotilishi hajmi dan kelib chiqqan holda yil mobaynida qayta kurib chiqilishi mumkin.

2. «Jeneral Motors O'zbekiston» YoAJ avtomobillari, tabiiy va suyultirgan gaz, shuningdek qimmatbaho metallarga aksiz **solig'i**ni to'lovchilar va uni to'lash tartibi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Davlat Soliq qo'mitasi bilan kelishilgan holda belgilanadi.

3. Paxta tolasining ichki narxlari (realizasiya bo'yicha harajatlarni hisobga olgan holda) va uni realizasiya qilishning haqiqiy narxi o'rtasidagi ijobiy farq Paxta tozalash korxonalarining maxsus hisob raqamida jamlanadi va 25 foizgacha bo'lgan miqdorda Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan tartibga muvofiq kreditorlik qarzini so'ndirish uchun paxtachilik fermer xo'jaliklariga 25 foiz miqdorda O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi xuzuridagi davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan qishloq xo'jalik mahsulotlarini hisob-kitob qilish jamg'armasining kreditlari bo'yicha qarzlarni so'ndirishga, qolgan qismi esa-mazkur Jamg'armaning oborot mablag'larini to'ldirishga yo'naltiriladi.

O'zbekiston Respublikasi xududiga olib kelinadigan aksizli tovarlarga aksiz **solig'i** stavkalari Prezident qarori bilan tasdiqlanadi. Soliq stavkalari tovarning bojxona qiymatiga nisbatan foizlarda yoki bir o'lchov birligi uchun AKSh dollarida belgilangan.

Soliqni hisoblab chiqarish tartibi. Hisob-kitobni taqdim etish va to'lash tartibi.

Aksiz **solig'i**ni so'mmasi Soliq solinadigan baza va aksiz **solig'i** uchun belgilangan stavkalar asosida hisoblanadi.

- Aksiz **solig'i** stavkalari mahsulot bir birligiga belgilangan bo'lsa, uning so'mmasini quyidagi formula orkali aniqlanish mumkin:

$$\text{Aksiz solig'i} = (Q \times C)$$

Bu yerda: Q – mahsulotning jami natura miqdori,

S – mahsulot birligi uchun belgilangan aksiz **solig'i** stavkasi, so'm hisobida

- Aksiz **solig'i** stavkasi aksiz **solig'i** va KKSni hisobga olmagan holda sotilgan tovarlar qiymatiga nisbatan foizlarda belgilangan bo'lsa, aksiz **solig'i** so'mmasi quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$\text{Aksiz solig'i} = (O \times S):100$$

Bu yerda: O – sotilgan tovarlarning aksiz va Qo'shilgan qiymat Soliqlarisiz kelishilgan (erkin) narxlar bo'yicha hisoblangan qiymati (hajmi);

S – aksiz **solig'i**ning stavkasi, foiz hisobida.



Hisob-kitobni taqdim etish tartibi. Aksiz solig'ining hisob-kitobi Soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat Soliq xizmati organlariga tag'dim etiladi.

Aksiz solig'i byudjetga quyidagi muddatlarda to'lanadi:

joriy oyning 13-kunidan kechiktirmay – joriy oyning birinchi un kunligi uchun;
joriy oyning 23-kunidan kechiktirmay – joriy oyning ikkinchi un kunligi uchun;
kelgusi oyning 3-kunidan kechiktirmay – hisobot oyining qolgan kunlari uchun.

Mazkur savol bo'yicha Ma'ruza jarayonida talabalarga beriladigan savollar:

1. Aksiz solig'i to'lovchilari bo'lib, kaysi shaxslar hisoblanadi?
2. Aksiz solig'i obyektiga deganda nimani tushunasiz?
3. Aksiz solig'i stavkalari kim tomonidan kaysi tartibda belgilanadi?

2.4. Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i

Yer solig'i o'zining iqtisodiy mohiyatiga ko'ra u renta to'lovidir.

Yer solig'i Mahalliy Soliqlar va yig'img'lar tarkibiga kiradi. U Mahalliy byudjetning daromad manbai bo'lib hisoblanadi.

Yer solig'i to'lovchilar

Yer solig'ini to'lovchilar bo'lib, mulk huquqi, egalik qilish huquqi, foydalanish huquqi yoki ijara huquqi asosida yer uchastkalariga ega bo'lgan yuridik shaxslar, shu jumladan O'zbekiston Respublikasining norezidentlari hisoblanadi.

Yer uchastkasidan bir nechta yuridik shaxs birgalikda foydalangan taqdirda, har bir yuridik shaxs yer uchastkasining foydalanilayotgan maydonidagi o'z ulushi uchun yer solig'ini to'laydi.

Soliq solishning alohida tartibi urnatilgan yuridik shaxslar hamda notijorat tashkilotlar, agar asosiy faoliyati turi bilan bir katorda boshqa faoliyat turlari bilan shug'ullansalar, unda ular shu faoliyatda foydalangan yerlari uchun yer solig'ini to'laydilar.

Yer solig'i obyektiga

Soliq solish obyektiga bo'lib, mulk huquqi, egalik qilish huquqi foydalanish huquqi yoki ijara huquqi asosida yuridik shaxslarda bo'lgan yer uchastkalari hisoblanadi.

Aholii punktlarining umumiy foydalanishdagi yerlari yoki uning madaniy-maishiy, kommunal-maishiy ehtiyojlarini qondirish va dam olish uchun foydalaniladigan hamda zaxira yerlar Soliq solish obyektiga sifatida karalmaydi.

Soliq solinadigan baza

Yuridik shaxslar ixtiyorida mavjud bo'lgan yer uchastkalaridan Soliq solinmaydigan yer uchastkalari maydonlarini chegirib tashlash orkali yer solig'i solinadigan baza aniqlanadi.

Yer solig'i bo'yicha imtiyozlar

Yuridik shaxslarda yer solig'i bo'yicha imtiyoz huquqlari vujudga kelgan taqdirda, Soliq solinadigan baza ushbu huquq vujudga kelgan oydan e'tiboran kamaytiriladi. Yer solig'i bo'yicha imtiyoz huquqi bekor qilingan taqdirda, Soliq solinadigan baza ushbu huquq bekor qilinganidan keyingi oydan e'tiboran hisoblab chiqariladi.

Yer solig'idan quyidagi yuridik shaxslar ozod qilinadi:

- 1) madaniyat, ta'lim, soglikni saklash, aholini ijtimoiy muxofaza qilish muassasalari;
- 2) nogironlarning jamoat birlashmalari, «Nuroniy» jamg'armasi va «O'zbekiston chernobilchilari» assosiasiyasi mulkida bo'lgan, ishlovchilari umumiy sonining kamida 50 foizini nogironlar, 1941-1945 yillardagi urush va mehnat fronti faxriylari tashkil qilgan yuridik shaxslar, bundan savdo, vositachilik, ta'minot-sotish va tayyorlov faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslar mustasno.



3) Yangi tashkil etilgan dehqon xo'jaliklari – davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan boshlab, ikki yil muddatga;

Soliq solinmaydigan yer uchastkalari

Soliq kodeksining 282-moddasiga ko'ra Soliqlik solinmaydigan yer uchastkalariga quyidagi lar kiradi:

1) bog'dorchilik, o'zumchilik yoki polizchilik shirkatlarining umumiy foydalanishdagi (kirish yo'llari, sugorish ariklari, kollektorlar va umumiy foydalanishdagi boshqa yerlar), jamoa garajlarining yerlari;

2) muhofaza etiladigan tabiiy xududlarning yerlari, bundan xo'jalik faoliyati yuritilayotgan yerlar mustasno;

3) sog'lomlashtirish ahamiyatiga molik yerlar. Profilaktika va davolash ishlarini tashkil etish uchun kulay tabiiy shifobaxsh omillarga ega bo'lgan yer uchastkalari;

4) tarixiy-madaniy ahamiyatga molik yerlar (qo'riqxonalar, xotira bog'lari);

5) suv fondi yerlari;

6) elektr o'zlashish liniyalari va ularning inshootlari egallagan yerlar;

7) madaniyat, xalk ta'limi va soglikni saklash obyektlari egallagan yerlar;

8) umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llari egallagan yerlar;

9) O'zbekiston Respublikasining Investisiya dasturiga kiritilgan obyektlar qurilishi uchun ajratilgan yerlar, normativ qurilish muddati davrida;

10) yuridik shaxs balansida bo'lgan va xo'jalik faoliyatida foydalanilmaydigan muxofazasi hamda safarbarlik ahamiyatiga molik alohida joylashgan obyektlar egallagan yerlar;

11) ixota o'rmon daraxtzorlari egallagan yerlar; ilmiy yoki tarixiy ahamiyatga molik o'rmonlar;

12) Qishloq xo'jaligi maqsadlari uchun yangi o'zlashtirilayotgan yerlar, ularni o'zlashtirish ishlari bajariladigan davrda va ular o'zlashtirilgan vaqtdan e'tiboran besh yil mobaynida;

13) meliorasiya ishlari amalga oshirilayotgan mavjud Sug'oriladigan yerlar, ishlar boshlanganidan e'tiboran besh yil muddatga;

14) yangi barpo etilayotgan bog'lar, tokzorlar va tutzorlar egallagan yerlar, daraxtlarning kator oralaridan Qishloq xo'jaligi ekinlarini ekish uchun foydalanilishidan kat'i nazar, uch yil muddatga;

15) Qishloq xo'jaligi va o'rmon xo'jaligi sohasidagi ilmiy-tadqiqot tashkilotlari hamda O'quv yurtlariga karashli tajriba, eksperimental va O'quv-tajriba xo'jaliklarining bevosita ilmiy hamda O'quv maqsadlari uchun foydalaniladigan yerlari (jami 26 punkt).

Belgilangan maqsadda bevosita foydalanilmayotgan yer uchastkalariga ushbu moddada belgilangan imtiyozlar tatbik etilmaydi.

Yer solig'i stavkalari

Yuridik shaxslardan olinadigan Yer solig'i stavkalari Prezident Qarori bilan tasdiqlanadi. Soliqlik stavkalari tuprok sifatini (bonitetini) hisobga olgan holda belgilanadi. Yer resurslaridan yanada samarali foydalanish uchun Soliqlik stavkasi 2009 yilga nisbatan 2010 yilda 1,15 barovarga indeksasiya kilindi, ya'ni 15 foizga oshirildi. 2010 yil uchun belgilangan yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i stavkalarining guruhlanishini quyidagi ma'lumotlardan kurish mumkin:

Yuridik shaxslardan undiriladigan yer solig'i stavkalari

1-jadval

	1 ga uchun yer toifalari bo'yicha yer solig'i stavkalari (so'm)									
	I	P	Sh	IY	Y	YI	YII	YIII	IX	X
	0 dan 10	11 dan 20 ball gacha	21 dan 30	31 dan 40	41 dan 50	51 dan 60	61 dan 70 ball gacha	71 dan 80 ball gacha	81 dan 90 ball gacha	91 dan 100 ball
Tuman										



	ball gacha		ball gacha	ball gacha	ball gacha	ball gacha				gacha
Samarqand viloyati										
Okdaryo	6771	10150,8	15216,6	24251,4	31637,4	45910,3	60901,2	79070,4	97207,5	118502,2
Bulungur	6708,4	10053,9	15081,8	22052,5	31342,4	45479,7	60343,4	78343,8	96315,5	117403,3

Baholanmagan yerlar uchun Soliq 41 dan 50 ballgacha bo'lgan yerlar uchun belgilangan stavkada to'lanadi.

Lalmi ekinzorlar, bo'z yerlar va ko'p yillik ko'chatlar uchun undiriladigan yer solig'i stavkalari

2-jadval

Viloyat	1 ga uchun yer solig'ining zonalar bo'yicha stavkalari, so'm		
	Tyokislik (yogingarchiliklar bulmaydigan zonasi)	Adir (yogingarchiliklar bilan kam ta'minlangan) zonasi	Tog oldi va toglik (yogingarchiliklar bilan ta'minlangan) zona
Samarqand viloyati	723,4	1027,9	1297,2

Sug'orilmaydigan pichanzorlar va yaylovlar uchun undiriladigan yer solig'i stavkalari

3-jadval

Viloyat	Balandlik mintakalari bo'yicha 1 ga uchun yer solig'i stavkalari, so'm		
	Chul	Adir	Tog
Samarqand viloyati	148,3	255,4	425,4

Qishloq xo'jaligi va o'rmon xo'jaligida foydalanilmaydigan boshqa yerlar uchun undiriladigan yer solig'i stavkalari

4-jadval

Viloyat	1 ga uchun yer solig'i stavkalari, so'm		
	Suv xavzalari, kanallar, kollektorlar, yo'llar	Jamoat kurilmalari va hovlilari	Qishloq xo'jaligida foydalanilmaydigan boshqa yerlar
Samarqand viloyati	243,8	128575,8	22,3

Shahar va qo'rg'onlarda yer uchastkalaridan olinadigan yer solig'i stavkalari

5-jadval

Shahar	Undiriladigan yer solig'i stavkalari yuridik shaxslardan 1 ga uchun, so'm			
	1-zona	2-zona	3-zona	4-zona
Kattaqo'rg'on	4456584	3753690	3194200	
Samarqand	6562967	6168455	5771580	5319719
Urgut	3933016	3230044	2780548	

Qishloq joylarda joylashgan yer uchastkalaridan foydalanganlik uchun yuridik shaxslardan undiriladigan yer solig'i stavkalari

6-jadval



Viloyat	1 ga uchun yer solig'i stavkalari, so'm		
	yuridik shaxslar band etgan yer uchun, zonalar bo'yicha		
	Sug'oriladigan		Lalmi-yaylov
	aholi punktlarida	aholi punktlaridan tashqarida	
Samarqand	2271306	2084842	114765

Eslatma: 2010 yilda amal qilgan yer solig'i stavkalari 2011 yil uchun 1,2 baravaga indeksasiya qilingan.

Yer solig'ini hisobi va to'lash tartibi

Yer solig'i har yili 1-yanvargacha hisoblab chiqariladi va uning hisob-kitobi davlat Soliq xizmati organiga hisobot yilining 15 fevraliga kadar taqdim etiladi.

Yer solig'i Soliq solinadigan baza va belgilangan stavka asosida hisoblab chiqiladi.

Yil mobaynida yuridik shaxslarda yer uchastkalariga bo'lgan mulk huquqi, egalik qilish huquqi, ulardan foydalanish huquqi yoki ijara huquqi vujudga kelganida (bekor qilinganda), shuningdek ular foydalanayotgan yer maydoni ko'paygan (kamaygan) yoki yer solig'i bo'yicha imtiyozlar huquqlari bekor qilingan (vujudga kelgan) taqdirda, yuridik shaxslar davlat Soliq xizmati organiga yer solig'ining aniqlashtirilgan hisob-kitobini yer uchastkasi ajratilgan (olib kuyilgan) yoki imtiyoz huquqlari bekor qilingan (vujudga kelgan) kundan e'tiboran bir oylik muddatdan kechiktirmay taqdim etishlari shart.

Soliq davri mobaynida Qishloq xo'jaligi ekinlarining umumiy maydonida va tarkibida o'zgarishlar yuz bergan yagona yer solig'ini to'lashga utmagan Qishloq xo'jaligi korxonalari yer solig'ining aniqlashtirilgan hisob-kitobini davlat Soliq xizmati organiga joriy yilning 1 dekabriga kadar taqdim etadi.

Yer solig'i yuridik shaxslar tomonidan har chorakda, chorakni ikkinchi oyining 15-kuniga kadar teng ulushlarda to'laydi (15 fevral, 15 may, 15 avgust, 15 noyabr).

Mazkur savol bo'yicha Ma'ruza jarayonida talabalarga beriladigan savollar:

1. Kimlar yer solig'ini to'lovchilar hisoblanadi?
2. Yer solig'ini undirish obyekti nima?
3. Qanday yerlarga Soliq solinmaydi?
4. Yer solig'ini hisoblash tartibini ayting

2.5. Kichik biznes subyektlari uchun yagona soliq to'lovi

Mamlakat iqtisodiyotining rivojida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari salmog'i kun sayin ortib bormoqda. Masalan, ularning YaIM-dagi ulushi 2009 yilda 49%ni, 2010 yilda 52% ni tashkil qilgan, 2011 yilda 54 % ga yetkazish ko'zda tutilgan. Bu esa iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlash bilan birga aholi o'rtasida ishsizlik muammosining bartaraf etilishida ham muhim omil bo'ladi. Shu bois, yurtimizda mazhur sohani yanada rivojlantirish, ichki bozorni raqobatbardosh va sifatli mahsulotlar bilan to'ldirish, yangi ish o'rinlarini yaratish orqali aholi daromadlarini ko'paytirib, xalq farovonligini ta'minlash maqsadida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Mamlakatimiz Prezidenti va hukumati bu sohaga alohida e'tibor berib kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 20 iyundagi «Mikrofimalar va kichik korxonalarni rivojlantirishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PF-3620-sonli Farmoniga asosan 2005 yilning 1 iyulidan boshlab, kichik biznes subyektlari uchun yagona Soliq to'lovi joriy etildi.



Ushbu farmon kichik biznes subyektlarini iqtisodiy rag'batlantirishni samarali tashkil etish orqali ularni yanada rivojlantirish va ularning Iqtisodiyotdagi ulushini oshirish maqsadida qabul qilindi.

Ilgori to'lanib kelingan quyidagi majburiy to'lovlar urniga Ushbu yagona Soliq qabul kilindi:

- yagona Soliq;
- byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi;
- Respublika yo'l jamg'armasi;
- maktab ta'limini rivojlantirish jamg'armasiga majburiy ajratmalar.

Yagona Soliq to'lovi faqat kichik biznes subyektlari – mikrofirmalar va kichik korxonalarga tadbik etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003 yil 30 avgustdagi PF-3305-sonli farmoniga ko'ra kichik biznes subyektlari tarkibiga 2004 yil 1 yanvardan boshlab, quyidagi lar kiritilgan:

- 1) yakka tartibda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi lar;
- 2) xodimlarining urtacha yillik soni:
 - ishlab chiqarish tarmoklarida 20 kishidan;
 - xizmat ko'rsatish soxasida 10 kishidan;
 - ulgurji, chakana savdo va umumiy ovqatlanish soxasida 5 kishidan oshmagan mikrofirmalarda;
- 3) quyidagi tarmoklarning urtacha yillik xodimlari soni:
 - yengil va oziq-ovqat sanoati, metalga ishlov berish va asbobsozlik yogochni qayta ishlash, mebel sanoati va qurilish materiallari sanoati 100 kishidan;
 - mashinasozlik metallurgiya yokilgi-energetika va Kime sanoati, Qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish va qayta ishlash, qurilish hamda boshqa sanoat ishlab chiqarish soxalari 50 kishidan;
 - Fan, ilmiy, transport, aloqa, xizmat ko'rsatish soxasi (sug'urta kompaniyalaridan tashqari), savdo va umumiy ovqatlanish hamda boshqa ishlab chiqarishga aloqador bo'lmagan soxalar 25 kishidan oshmagan kichik korxonalar.

Soliq obykti

Kichik biznes subyektlariga Soliq solish obykti bo'lib , yalpi tushum hisoblanadi.

Yalpi tushum quyidagi daromadlardan tashkil topadi:

- 1) tovarlarni (ish va xizmatlarni) sotishdan olingan sof pul tushumi;
- 2) asosiy faoliyatning boshqa daromadlari;
- 3) moliyaviy faoliyat daromadlari;
- 4) fovkulodda yuzaga kelgan daromadlar

Soliq solinadigan baza.

Yalpi tushumdan Soliqqa tortilmaydigan daromadlarni hamda yalpi tushumni kamaytirish uchun belgilangan Soliq va to'lovlarni chegirib tashlash orkali Soliq solinadigan baza aniqlanadi.

Yalpi tushumdan chegirib tashlanadigan daromadlarga quyidagi lar kiradi:

- 1) davlat qimmatli qog'ozlari bo'yicha daromadlar;
- 2) to'lov manbaida Soliq solinadigan dividendlar va foizlar tariqasida olingan daromadlar;
- 3) dividendlar tariqasida olingan va kaysi yuridik shaxsdan olingan bo'lsa, usha yuridik shaxsning ustav fondiga (ustav kapitaliga) yo'naltirilgan daromadlar.
- 4) hisobot yilida aniqlangan o'tgan yillardagi daromadlar. Mazkur daromadlarga ular kaysi davrda paydo bo'lgan bo'lsa, usha davrdagi qonun xujjatlariga muvofik Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha o'tkazilgan hisob-kitoblar inobatga olingan holda Soliq solinishi kerak;
- 5) ko'p oborotli qaytariladigan taraning qiymati, agar uning qiymati tovarlarni (ishlar va xizmatlarni) realizasiya qilishdan olingan tushumning tarkibiga ilgari kiritilgan bo'lsa;
- 6) mahsulot yetkazib beruvchilarning siylovi (skidka) tariqasida va asosiy vositalarni tugatish natijasida olingan boshqa daromadlar.



Shular bilan bir qatorda soliq solinadigan baza quyidagi soliq to'lov va yig'implarga ham kamaytiriladi:

- 1) avtomobillarga yokilgi kuyish shoxobchalari uchun:
jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yokilgisi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan Soliq so'mmasiga;
benzin, dizel yokilgisi va gazning avtomobillarga yokilgi kuyish shoxobchalarining belgilangan eng yukori ustamadan oshadigan chakana narxi bilan olish narxi o'rtasidagi Mahalliy byudjetga o'tkazilishi lozim bo'lgan farq so'mmasiga;
- 2) lotereya uyinlarini tashkil etish bo'yicha faoliyatni amalga oshirish doirasida yuridik shaxslar uchun – yutuq (mukofot) fondining so'mmasiga, biroq tarkatilgan chiptalarga chiqqan yutuqlarning (mukofotlarning) umumiy so'mmasidan ortiq bo'lmagan miqdoriga;
- 3) brokerlik tashkilotlari uchun – bitim so'mmasidan birjaga o'tkaziladigan vositachilik yig'imi so'mmasiga;
- 4) vositachilik, topshirik shartnomasi bo'yicha vositachilik xizmatlari ko'rsatuvchi yuridik shaxslar uchun – realizasiya qilingan tovar ulushida tovarlarni import qilishda to'langan bojxona to'lovlari so'mmasiga.

Yagona Soliq imtiyozlari.

Yagona Soliq to'lovini to'lashdan kaysi subyektlar ozod qilinadi?

Yagona Soliq to'lovini to'lashdan nogironlarning jamoat birlashmalari, «Nuroni» jamg'armasi va «O'zbekiston chernobilchilari» assosiasiyasi mulkida bo'lgan, ishlovchilari umumiy sonining kamida 50 foizini nogironlar, 1941-1945 yillardagi urush va mehnat fronti faxriylari tashkil etadigan korxonalar ozod qilinadi. Savdo, vositachilik, ta'minot-sotish va tayyorlov faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslar ozod kilinmaydi.

Yagona Soliq stavkalari

Kichik biznes subyektlari deb ataluvchi yuridik shaxslar yagona Soliq to'lovini belgilangan Soliq stavkalaridan kelib chiqqan holda mustakil ravishda o'zlari hisoblaydilar. Yagona Soliq stavkalari har yili Prezident tomonidan tasdiqlanadi. 2011 yil uchun tasdiqlangan yagona Soliq stavkalarini quyidagi jadval ma'lumotlaridan kurish mumkin

№	Soliq to'lovchilar	Soliq stavkasi Soliq solinadigan bazaga nisbatan %da
1.	Iqtisodiyotning barcha tarmoklari korxonalari, 2-6-bandlarda k ko'rsatib o'tilganlaridan tashqari	6*
2.	Kompyuter dasturiy mahsulotlarini ishlab chikish va joriy etish tovarlar (ishlar, xizmatlar) realizasiyasi umumiy hajmi ning kamida 80 foizini tashkil etadigan korxonalar	5
3.	Bojxona rasmiylashtiruvi bo'yicha xizmatlarni ko'rsatadigan yuridik shaxslar (bojxona brokerlari).	6
4.	Gastrol-qonsert faoliyati bilan shug'ullanish uchun lisenziyaga ega bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslarni (shu jumladan norezidentlarni) jalb etish yo'li bilan ommaviy tomosha tadbirlarini tashkil etishdan daromad oladigan korxonalar	30
5.	Tayyorlov tashkilotlari, brokerlik idoralari (6-bandda kursatkilganlaridan tashqari), shuningdek vositachilik, topshirik va boshqa shartnomalar bo'yicha vositachilik xizmatlari ko'rsatadigan korxonalar	33**
6.	Qimmatli qog'ozlar bozorida brokerlik faoliyatini amalga oshiradigan korxonalar	13**



7.	Oziq-ovqat va nooziq-ovqat mahsulotlarini realizatsiya qilish uchun turg'un savdo shaxobchalarini ijaraga berishga ixtisoslashgan korxonalar (ijaraga berishdan olingan daromadlar 60 % dan ko'pni tashkil etsa).	30
8/	O'zi ishlab chikargan tovarlar, ishlar, xizmatlar (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997 yil 10 oktyabrda PF-1871-son Farmoni bilan tasdiqlangan ro'yxatda keltirilgan xom ashe mahsulotlaridan tashqari) eksportining (ishlarni bajarish, xizmatlarni ko'rsatish joyidan kat'i nazar) erkin almashtiriladigan valyutadagi xissasi quyidagi miqdorlarni tashkil etadigan korxonalar uchun:	
	sotishning umumiy hajmi da 15 foizdan 30 foizgacha bo'lsa	belgilangan stavka 30%ga pasaytiriladi
	sotishning umumiy hajmi da 30 va undan ortiq foizni tashkil kilsa.	belgilangan stavka 50%ga pasaytiriladi
	Xizmatlar ko'rsatish soxasi korxonalari uchun plastik kartalar qo'llanib haq to'langan holda ko'rsatilgan xizmatlar hajmi bo'yicha	belgilangan stavka 10 %ga pasaytiriladi

*) *Mol-mulkini moliyaviy ijara (lizing)ga beradigan korxonalar uchun – moliyaviy ijara (lizing) bo'yicha foizli daromad so'mmasi;*

*) **Haq** (yalpi daromad) so'mmasiga nisbatan foizlarda.

Kichik biznes subyektlaridan bo'lgan savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari uchun ishchilari sonidan ka'ti nazar yalpi tushumdan yagona Soliq to'lanadi. Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari uchun yagona Soliq stavkalari 2011 yilda quyidagi miqdorlarda belgilangan.

№	Soliq to'lovchilar	Soliq stavkalari, soliq solinadigan bazaga nisbatan % da
1.	Umumiy ovqatlanish korxonalari uchun	10
	shundan:	
	Umumiy ta'lim maktablari, maktab-internatlar, urta maxsus, kasb-xunar va oliy O'quv yurtlariga xizmat ko'rsatuvchi ixtisoslashgan umumiy ovqatlanish korxonalari uchun	8
2.	Chakana savdo korxonalari (4-bandda ko'rsatilganlaridan tashqari); quyidagi joylarda joylashgan:	
	aholisi soni 100 ming va undan ko'p kishidan iborat shaharlarda	4
	boshqa aholi punktlarida	2
	borish kiyin bo'lgan va tog'lik tumanlarda joylashgan	1
3.	Ulgurji savdo korxonalari (4-bandda ko'rsatilganlaridan tashqari)	



		5
4.	Ulgurji va chakana dorixona tashkilotlari; quyidagi joylarda joylashgan:	
	aholisi soni 100 ming va undan ko'p kishidan iborat shaharlarda	3
	boshqa aholi punktlarida	2
	borish kiyin bo'lgan va toglik tumanlarda joylashgan	1
5.	1, 2 va 4-bandlarda ko'rsatilgan korxonalar uchun (ulgurji dorixona tashkilotlaridan tashqari), plastik kartalar qo'llanib haq to'langan holda sotilgan tovarlar (ko'rsatilgan xizmatlar) hajmi bo'yicha	Belgilangan stavka 10%ga pasaytiriladi

Soliq hisobini tag'dim etish va uni to'lash muddatlari

Kichik biznes subyektlari – mikrofirma va kichik korxonalar birinchi chorak, yarim yil va 9 oy yakunlari bo'yicha davlat Soliq inspeksiyasiga hisobot choragining keyingi oyining 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa - yillik moliyaviy hisobotni tag'dim etish muddatida yagona Soliq to'lovi bo'yicha hisob-kitoblarni tag'dim etadilar. Hisob-kitoblar belginlangan shakllarda tag'dim qilinadi.

Mikrofirma va kichik korxonalar yagona Soliq to'lovini har chorakda usib boruvchi yakun bilan hisobot to'zadi va uni tegishli davlat Soliq inspeksiyasiga topshiradi, ya'ni Soliq to'lovini hisobot choragidan keyingi oyning 25-kuniga kadar amalga oshiradi.

Mazkur savol bo'yicha ma'ruza jarayonida talabalarga beriladigan savollar

1. Kichik biznes subyektlari deganda kaysi korxonalar tushuniladi?
2. Kichik biznes subyektlariga solinadigan Soliq obyektini ayting.
3. Kichik korxona va firmalarning Soliq solinadigan bazasi qanday aniqlanadi?
4. Yagona Soliq imtiyozlari deganda nimani tushunasiz?



3-Mavzu: Qishloq xo'jalik korxonalaridan olinadigan yagona yer solig'i.

3.1 Yagona yer **solig'i**ning mohiyati, ahamiyati va uni to'lovchilari.

3.2 Yagona yer **solig'i**ni to'lash tartibini qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari.

3.3 Soliq solish obyekti, bazasi va stavkalari. Imtiyozlar.

3.4 Soliqni hisoblab chiqarish, hisob-kitoblarini taqdim etish va Soliqni to'lash tartibi.

Adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. Rasmiy nashr T.: "Adolat", 2010.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 24-dekabrda "O'zbekiston Respublikasining 2011 yilgi asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari va davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi 1449-sonli qaroriga 20-ilova. "Soliq to'lovchining jurnali" 2011 yil yanvar.

3. Jo'rayev A. va boshqalar. Soliq va Soliqqa tortish. O'quv qo'llanma. T.: 2009 yil

Tayanch iboralar.

Tovar ishlab chikaruvchilar. Yuridik shaxs. Yagona Soliq. Yagona yer **solig'i**. Soliq to'lovchi. Soliq solish obyekti. Soliq bazasi. Soliq imtiyozi. Soliq stavkasi. Soliq so'mmasi.

Ma'ruza o'tishi metodi.

Ma'ruza "Bilaman. Bilishni xoxlayman. Bilib oldim", va aqliy hujum metodlarini qo'llagan holda o'tiladi.

3.1. Yagona yer solig'i ning mohiyati va ahamiyati va uni to'lovchilar

Yer **solig'i** iqtisodiy mazmun-mohiyatiga ko'ra renta to'lovidir.

Mamlakatimiz yer fondi hajmi da Qishloq xo'jaligi tovar ishlab chikaruvchilari yer maydonlari salmokli o'rinni egallaydi.

Mamlakatimizda jami yer maydoni 44410,3 ming gektarni tashkil etadi. Shundan tahmini 60 % ga yakini Qishloq xo'jaligi tovar ishlab chikaruvchilari ixtiyorida yer maydonlari xissasiga to'g'ri keladi.

Yagona yer **solig'i** 1999 yil 1 yanvardan boshlab joriy qilingan. Bu Soliq O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998 yil 10 oktyabrda "Qishloq xo'jalik tovar ishlab chikaruvchilari uchun yagona yer **solig'i**ni joriy etish to'g'risida"gi Farmoniga asosan joriy qilingan.

Yagona yer solig'i ni joriy qilishdan maqsad nimadan iborat?

Yagona yer **solig'i** yerdan foydalanish samaradorligini oshirish, Qishloq xo'jalik tovar ishlab chikaruvchilari mehnatining pirovard natijalaridan iqtisodiy manfaatdorligini kuchaytirish va Soliq solish tizimini soddalashtirish maqsadida joriy qilingan.

Yagona yer **solig'i** yerdan foydalanish samaradorligi va mehnatkashning manfaatdorligini oshirishga yunaltirilishi bilan bir katorda, byudjetning daromad qismini to'ldirishda muxim rol o'ynaydi. Uni o'z vaqtida byudjetga to'lash Iqtisodiyot nuktai nazaridan katta ahamiyat kasb etadi.

Yagona yer solig'i to'lovchilari.

Yer **solig'i**ni to'lovchilar bo'lib, asosan Qishloq xo'jalik kooperativlari (shirkatlar), fermer xo'jaliklari va agrofirmaalar hisoblanadi. Demak, Soliq kodeksining 362-moddasiga ko'ra yagona yer **solig'i**ni to'lovchilar bo'lib, quyidagilar hisoblanadi:



1.Qishloq xo'jaligi tovarlarini ishlab chikaruvchilar;

2.Qishloq xo'jalik yo'nalishidagi ilmiy-tadkikod tashkilotlarining tajriba-eksperimental xo'jaliklari va ta'lim muassasalarining o'quv- tajriba xo'jaliklari.

Quyidagi shartlarga javob beradigan yuridik shaxslar Soliq solish maqsadida Qishloq xujaligi tovarlarini ishlab chikaruvchilar tarkibiga kiradi:

1.Yer uchastkalardan foydalangan holda Qishloq xo'jaligi mahsulotini yetishtirish va o'zi yetishtirgan mahsulotni qayta ishlash yoxud yer uchastkalaridan foydalangan holda faqat Qishloq xo'jaligi mahsulotini yetishtirish asosiy faoliyat turi bo'lgan yuridik shaxslar;

2.Qishloq xo'jaligini yuritish uchun Mahalliy davlat xokimiyati organlari tomonidan o'zlariga belgilangan tartibda yer uchastkalariga ega bo'lgan yuridik shaxslar;

3.Qishloq xo'jalik mahsulotini yetishtirish va o'zi yetishtirgan mahsulotni qayta ishlash ulushi realizasiya qilish va qayta ishlash uchun olingan Qishloq xo'jalik mahsulotini o'z ichiga oluvchi qishloq xo'jaligi mahsulotini yetishtirish va qayta ishlash umumiy hajmi da kamida 50 foizni tashkil etadigan yuridik shaxslar.

Quyidagi yuridik shaxslar yagona yer **solig'ini** to'lovchilar sifatida karalmaydi:

1.O'rmon va ovchilik xo'jaliklari;

2.Yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda to'zilgan dehqon xo'jaliklari.

3.2.Yagona yer solig'ini to'lash tartibini qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari.

Yagona yer **solig'ini** to'lovchi har yili joriy Soliq davrining 1 fevraligacha davlat Soliq xizmati organlariga o'tgan Soliq davrida Qishloq xo'jalik mahsulotini yetishtirish va qayta ishlash bo'yicha ma'lumotnoma taqdim qiladi.

Ma'lumotnomada o'z yetishtirgan va qayta ishlagan mahsulotlarining ularning umumiy hajmiga nisbatan ulushi ko'rsatiladi.O'zi yetishtirgan va qayta ishlagan mahsulotlarning ulushini aniqlashda boshqa daromadlar kushilmaydi. Boshqa cha aytganda boshqa daromadlar hisobga olinmaydi.

Boshqa daromadlarga kaysi daromadlar kiradi?

Tovarlarni(ish va xizmatlarni) ishlab chiqarish va sotish bilan bog'liq bo'lmagan operatsiyalardan olinadigan daromadlar boshqa daromadlarga kiradi.

Boshqa daromadlar Soliq kodeksining 132-moddasida aks ettirilgan.Bularga quyidagi daromatlarni misol qilib ko'rsatish mumkin:

1. Soliq to'lovchini asosiy vositasilari va boshqa mol-mulkklarini chiqib ketishidan olinadigan daromadlar;

2. Mol-mulkni ijaraga berishdan olinadigan daromadlar;

3. Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarni moliyaviy ijaraga berishdan olinadigan daromadlar;

4. Tekin olingan mol-mulk, mulkiy xuquqlar, shuningdek ishlar va qiymatlar;

5. Inventarizasiya natijasida aniqlangan ortiqcha tovar-moddiy zaxiralar qiymati tariqasida yuzaga kelgan daromadlar;

6. Hisobot yilida aniqlangan o'tgan yillardagi daromadlar;

7. Xizmat ko'rsatuvchi xo'jaliklardan olinadigan daromadlar;

8. Karzdor tomonidan tan olingan jarima va penyalari;

9. Valyuta kursidagi ijobiy farq tariqasida yuzaga kelgan daromadlar;

10. Dividendlar va foizlar tariqasida paydo bo'lgan daromadlar;

Agar o'tgan Soliq davri yakunlari bo'yicha yagona yer solig'i to'lovchi 362-moddaning ikkinchi qismida belgilangan shartlarga javob bermasa, Soliq to'lovchi joriy Soliq davrining boshidan boshlab umumbelgilangan Soliqlarni yoki yagona Soliq to'lovini to'lashga o'tishi kerak.

Mikrofimlar va kichik korxonalar toifasiga kiradigan Soliq to'lovchi 362-moddaning ikkinchi qismida belgilangan shartlarga javob bermay kuygan Soliq davridan keyingi yilning 1 fevralidan



kechiktirmay davlat Soliq xizmati organiga Soliq solish tartibini tanlash to'g'risida yozma bildirish taqdim etadi. Soliq to'lovchining yozma bildirishni belgilangan muddatda taqdim etmaganligi uning byudjet bilan hisob-kitoblarni belgilangan tartibda amalga oshirishga roziligi deb hisoblanadi.

Yagona yer solig'ini to'lashda umumbelgilangan Soliqlarni to'lashga o'tgan Soliq to'lovchilar yuridik shaxslardan olinadigan daromad solig'i, obodonlashtirish va ijtimoiy infrato'zilmani rivojlantirish solig'i va yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan Soliq bo'yicha u umumbelgilangan Soliqlarni to'lashga o'tgan Soliq davrining birinchi choragi uchun joriy to'lovlarni to'lashdan ozod qilinadi.

Umumbelgilangan Soliqlarni yoki yagona Soliq to'lovini to'lashga o'tgan yagona yer solig'ini to'lovchi 362-moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan tartibga muvofiq faqat navbatdagi Soliq davri boshidan boshlab yana yagona yer solig'ini to'lashga o'tishga haqlidir.

Kodeksni 362-moddasining ikkinchi qismida belgilangan shartlarga javob beradigan Qishloq xo'jaligi tovarlari ishlab chikaruvchilar, shuningdek Qishloq xo'jaligi yo'nalishdagi ilmiy-tadqiqot tashkilotlarning tajriba-eksperimental xo'jaliklari va ta'lim muassasalarining O'quv-tajriba xo'jaliklari faoliyatning yagona yer solig'ini to'lash tadbiri etiladigan qismi bo'yicha Soliq solishning boshqa cha tartibini tanlash huquqiga ega emas.

Qishloq xo'jaligi mahsulotini yetishtirish va qayta ishlash bilan bog'liq bo'lmagan faoliyat turlarini amalga oshirishda yagona yer solig'i to'lovchi mazkur faoliyat turlari bo'yicha alohida-alohida hisob yuritish shart.

Kodeks 350-moddasining birinchi qismiga muvofiq Soliq solish tartibini tanlash huquqi saqlab qolingan mikrofirmalar va kichik korxonalar faoliyatning boshqa turlari bo'yicha korxonalarning tegishli toifalari uchun belgilangan stavkalar bo'yicha yagona Soliq to'lovi to'lashi mumkin. Mikrofirmalar va kichik korxonalar toifasiga kirmaydigan Soliq to'lovchi umumbelgilangan Soliqlarni to'lashga o'tishi kerak.

Yagona yer solig'ini to'lovchilar uchun boshqa daromadlarga Qishloq xo'jaligi mahsulotini yetishtirish va qayta ishlash bilan bog'liq daromadlar sifatida karaladi hamda ularga Soliq solinmaydi, birgalikdagi faoliyatdan olingan daromadlar bundan mustasno.

Birgalikdagi faoliyatdan olinadigan daromadlarga yagona yer solig'i to'lovchida dividendlarga Soliq solish uchun belgilangan stavkalar bo'yicha Soliq solinadi.

Yer uchastkalari ijaraga (shu jumladan ichki xo'jalik pudratiga) berilganida yagona yer solig'ini to'lash majburiyati ijaraga beruvchining zimmasida saklanib koladi.

3.3 Soliq solish obyekti, bazasi va stavkasi. Imtiyozlar.

Soliq solish obyekti.

Soliq kodeksining 365-moddasida Soliq solish obyekti aks ettirilgan. Ushbu moddaga ko'ra Soliq solish obyekti bo'lib, Qishloq xo'jaligini yuritish uchun egalik qilishga, foydalanishga yoki ijara berilgan yer uchastkasi hisoblanadi.

Soliq solinadigan baza. Yagona yer solig'i bo'yicha Soliq solinadigan baza Soliq Kodeksining 366-moddasida qayd qilingan. Ushbu moddaga ko'ra Soliq solinadigan baza bo'lib, Soliq solinadigan yer uchastkalarining belgilangan normativ qiymati hisoblanadi.

Qishloq xo'jalik yerlarini normativ qiymati O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastr davlat qo'mitasi tomonidan belgilanadi.

Egalik qilish huquqi, foydalanish huquqi yoki ijara huquqi yil maboynda vujudga kelgan yer uchastkalari uchun Soliq solinadigan baza yer uchastkalariga bo'lgan huquq vujudga kelgan oydan keyingi oydan boshlab hisoblab chiqariladi. Yer uchastkasi maydoni kamaytirilgan tagdirga, Soliq solinadigan baza yer uchastkasi maydoni kamaytirilgan oydan boshlab kamaytiriladi.

Yuridik shaxslarda yagona yer solig'i bo'yicha imtiyozga bo'lgan huquqlar vujudga kelganda Soliq solinadigan baza bu huquq vujudga kelgan oydan boshlab kamaytiriladi.

Yagona yer solig'i bo'yicha imtiyozga bo'lgan huquq tugatilgan taqdirda, Soliq solinadigan baza bu huquq tugatilgan oydan keyingi oydan boshlab ko'paytiriladi.



Soliq stavkasi. Qishloqxo'jaligi tovar ishlab chikaruvchilari uchun yagona yer solig'i stavkasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentinig qarori bilan tasdiqlanadi 2010 yil 24- dekabrda PK-1449-sonli qarori bilan 2011 yil uchun yagona Soliq stavkasi yerlarning normativ qiymatiga nisbatan 6 foiz miqdorida belgilangan.

Yerning me'yoriy qiymatiga nisbatan stavka foizlari jamoat binolari va hovlilar bilan band bo'lgan yerlar 2,0 koeffitsiyentini kullangan holda baholanadi.

Soliq imtiyozlari. Yagona yer solig'i bo'yicha belgilangan imtiyozlar Soliq kodeksining 282 va 367 moddalarida qayd qilingan.

Soliq kodeksi 367-moddasining ikkinchi qismida nazarda tutilgan shartlarga muvofik kelgan taqdirda Soliq to'lashdan quyidagi lar ozod qilinadi:

1. Yangi tashkil etilgan Qishloq xo'jaligi tovarlari ishlab chikaruvchilar davlat ro'yxatidan o'tkazilgan oydan boshlab ikki yil muddatga. Mazkur imtiyoz tugatilgan fermer xo'jaliklari bazasida tashkil etilgan fermer xo'jaliklariga tatbik etilmaydi;

2. Ixtiyoriy tugatilayotgan tadbirkorlik subyektlari-yuridik shaxslar davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organ ixtiyoriy tugatish to'g'risida qabul qilingan karor haqida xabardor qilingan kundan e'tiboran. Ixtiyoriy tugatish qonun xujjatlarida belgilangan muddatlarda tugallanmagan yoki tartibi tuxtatilgan va faliyat qayta tiklangan taqdirda ushbu imtiyoz qo'llaniladi hamda Soliq so'mmasi imtiyoz qo'llanilgan butun davr uchun tulik miqdorda undiriladi.

Qishloq xo'jaligi tovarlari ishlab chikaruvchilar- yagona yer solig'i to'lovchilarga kodeksning 282-moddaning ikkinchi qismida nazarda tutilgan yer solig'i bo'yicha imtiyozlar xam tatbik etiladi. Bular Soliq solinmaydigan uchastkalari bo'lib hisoblanadi.

Soliq solinmaydigan yer uchastkalari jumlasiga quyidagi yerlar kiradi (yer solig'i bo'yicha xam bu imtiyozlar bor):

- 1) bog'dorchilik, o'zumchilik yoki polizchilik shirkatlarining umumiy foydalanishdagi (kirish yo'llari, sugorish ariklari, kollektorlar va umumiy foydalanishdagi boshqa yerlar), jamoa garajlarining yerlari;
- 2) muxofaza etiladigan tabiiy xududlarning yerlari, bundan xo'jalik faoliyati yuritilayotgan yerlar mustasno;
- 3) sog'lomlashtirish ahamiyatiga molik yerlar (xo'jalik faoliyati yuritilayotgan yerdar bundan mustasno)-tegishli muassasalar va tashkilotlarga belgilangan tartibda doimiy foydalanishga berilgan, profilaktika va davolash ishlarini tashkil etish uchun kulay tabiiy shifobaxsh omillariga ega bo'lgan yer uchastkalari;
- 4) tarixiy-madaniy ahamiyatga molik yerlar (xo'jalik faoliyati yuritilayotgan yerlar bundan mustasno);
- 5) suv fondi yerlari;
- 6) elektr o'zatish liniyalari va ularning inshootlari egallangan yerlar;
- 7) madaniyat, xalk ta'limi va soglikni saklash obyektlari egallangan yerlar;
- 8) umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llari egallangan yerlar;
- 9) O'zbekiston Respublikasining investisiya dasturiga kiritilgan obyektlar qurilishi uchun ajratilgan yerlar, normativ qurilish muddati davrida;
- 10) yuridik shaxs balansida bo'lgan va xo'jalik faoliyatida foydalanilmaydigan muxofazasi hamda safarbarlik ahamiyatiga molik alohida joylashgan obyektlar egallangan yerlar;
- 11) ixota o'rmon daraxtzorlari egallangan yerlar;
- 12) ilmiy yoki tarixiy ahamiyatga molik o'rmonlar;
- 13) Qishloq xo'jaligi maqsadlari uchun yangi o'zlashtirilgan vaqtdan e'tiboran besh yil mobaynida va boshqa yer uchastkalari (jami 26 punkt).



3.4. Soliqni hisoblab chiqarish, hisob-kitobrini taqdim etish va Soliqni to'lash tartibi

Yagona yer solig'i kodeksning 369-moddasi keltirilgan. Yagona yer solig'i summasi yer uchastkasining normativ qiymati va yagona yer solig'ining uchun belgilangan stavkasidan kelib chiqqan holda hisoblab chiqiladi;

Yagona yer solig'ining hisob-kitobi yer uchastkasi joylashgan yerdagi davlat Soliq xizmati organiga joriy Soliq davrining 1 mayigacha taqdim etiladi.

Yil davomida berilgan yer uchastkalari uchun yagona yer solig'i yer uchastkasi berilganidan keyingi oydan boshlab to'lanadi. Yer uchastkasi olib kuyilgan (kamaytirilgan) taqdirda, yagona yer solig'ini to'lash yer uchastkasi olib kuyilgan (kamaytirilgan) oydan boshlab tuxtatiladi (kamaytiriladi).

Yer uchastkasining tarkibi va maydoni yil davomida o'zgargan, shuningdek yagona yer solig'i bo'yicha imtiyozlarga bo'lgan huquq vujudga kelgan (tugatilgan) taqdirda, Soliq to'lovchilar davlat Soliq xizmati organlariga hisobot yilning 1 dekabrigacha yagona yer solig'ining aniqlik kiritilgan hisob-kitobini taqdim etishlari shart.

Yagona yer solig'ini to'lash quyidagi muddatlarda amalga oshiriladi:

- hisobot yilining 1 iyuligacha – yillik Soliq so'mmasining 20 foizi;
- hisobot yilining 1 sentyabrigacha – yillik Soliq so'mmasining 30 foizi;
- hisobot yilining 1 dekabrigacha – Soliqning qolgan so'mmasi.

Mavzu bo'yicha Ma'ruza jarayoni davrida talabalarga beriladigan savollar.

1. Yagona yer solig'i to'lovchilari kimlar?
2. Yagona yer solig'ining obyekti nima?
3. Yagona yer solig'ining Soliq solinadigan bazasini ayting?
4. Yagona yer solig'ini to'lashdan kimlar ozod etilgan?



4 . Ma'ruza: Jismoniy shaxslardan olinadigan Soliqlar

- 4.1. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad **solig'i**.
- 4.2.. Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan Soliq.
- 4.3. Jismoniy shaxslardan olinadigan yer **solig'i**
- 4.4 Jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yonilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan Soliq..

Adabiyotlar ro'yxati.

1. «O'zbekiston Respublikasining Soliq Kodeks. Rasmiy nashr. T.: "Adolat", 2010.
2. O'zbekiston Respublika Prezidentining 2010 yil 24 dekabrda "O'zbekiston Respublikasining 2011 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari va davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi PK -1449 sonli qarorining 8,18,19- ilovalari. "Soliq to'lovchining jurnali" 2011 yil yanvar.
3. Jo'rayev A va boshqa lar. Soliqlar va Soliqqa tortish. O'quv qo'llanma. Toshkent. 2009.

Tayanch iboralar.

Jismoniy shaxs.Daromadlar.Mulkiy daromadlar.Soliq to'lovchilar.Soliq obyekti.Soliq bazasi.Soliq imtiyozlari.Soliq stavkasi.Soliq davri.Mol-mulk.Mol-mulkning inventarizatsiya qiymati.

Ma'ruzani o'tish metodi.

Ma'ruza «Bilaman. Bilishni xoxlayman. Bilib oldim» va aqliy hujum metodlarini qo'llagan holda o'tiladi.

4.1. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i.

Jismoniy shaxslar daromadidan olinadigan Soliq davlat byudjeti daromad qismining asosiy manbalaridan biri bo'lib, u umumdavlat Soliqlari tarkibiga kiradi. Uning o'ziga xos xususiyati shundaki, Soliq jismoniy shaxslarning bevosita daromadlaridan olinadi.

Soliq kodeksining 167-moddasiga ko'ra Soliq solinadigan daromadga ega bo'lgan jismoniy shaxslar jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini to'lovchilar bo'lib hisoblanadi

Soliq solish obyekti

Soliq solish obyekti bo'lib, Soliq kodeksining 169-moddasiga ko'ra, jismoniy shaxslarning quyidagi daromadlari hisoblanadi:

1. O'zbekiston Respublikasi rezidentlarining O'zbekiston Respublikasidagi va undan tashqaridagi manbalardan olingan daromadlari;
2. O'zbekiston Respublikasi norezidentlarining O'zbekiston Respublikasidagi manbalardan olingan daromadlari.

Yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyatidan olingan, kat'iy belgilangan Soliq solinadigan daromadlar jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining Soliq solish obyekti bulmaydi. Bular kodeksning 58-bobida kat'iy belgilangan soliq tariqasida qayd qilingan.

Soliq solinadigan baza. Daromad solig'i solinadigan bazani aniqlash uchun jami daromaddan Soliq solinmaydigan va Soliq solishdan ozod qilingan daromadlarni chegirib tashlash kerak.

Agar Soliq to'lovchining daromadidan uning ixtiyoriga ko'ra, sud yoki boshqa organlarning qaroriga binoan biron bir ushlab qolishlar amalga oshirilsa, bunday ushlab qolishlar Soliq solinadigan bazani kamaytirmaydi.



Jismoniy shaxsning chet el valyutasida ifodalangan daromadlari ular amalda olingan sanada O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan kurs bo'yicha milliy valyutada qayta hisoblab chiqiladi.

Jismoniy shaxslarning jami daromadi kodeksning 171 moddasida aks ettirilgan.

Jismoniy shaxslarning jami daromadiga quyidagi lar kiradi:

- 1).mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar;
- 2).mulkiy daromadlar;
- 3).moddiy naf tarzidagi daromadlar;
- 4).boshqa daromadlar.

Mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlarga mehnat shartnomalariga yoki ishlar bajarish va xizmatlar ko'rsatish predmeti bo'lgan lik-huquqiy turdagi shartnomalarga muvofiq ishlarni bajarayotgan jismoniy shaxslarga hisoblanadigan va to'lanadigan barcha to'lovlar kiradi.Bulardan tashqari mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlarga quyidagi lar xam kiradi:

1) Rag'batlantirish xususiyatiga ega bo'lgan to'lovlar:

- yillik ish yakunlari bo'yicha muvofot,bir yo'la beriladigan mukofotlar;
- kasb maxorati, murabbiylik uchun tarif stavkalariga va maoshlarga ustamalar;
- yuridik shaxsning mukofotlash to'g'risidagi koidasida nazarda tutilgan rag'batlantirish xususiyatiga ega to'lovlar;
- ta'tilga qo'shimcha haqlar;
- ko'p yil ishlaganlik uchun pul mukofoti va to'lovlar;
- rasionalizatorlik taklifi uchun to'lov;

2) Kompensasiya to'lovlari:

- tabiiy-iklim sharoitlari nokulay bo'lgan joylardagi ishlar bilan bog'liq qo'shimcha to'lovlar;
- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi tomonidan tasdiqlanadigan kasblar va ishlar ro'yxati bo'yicha ogir,zararli, o'ta zararli mehnat sharoitlarida ishlaganlik uchun ustamalar;
- Texnologik jarayon jadvalida nazarda tutilgan tungi vaqtda, ish vaqtidan tashqari, dam olish kunlarida va bayram kunlarida ishlaganlik uchun tarif stavkalariga hamda maoshlarga ustamalar va qo'shimcha to'lovlar;
- Xizmat safarlari vaqtidagi qonun xujjatlarida belgilangan me'yorlardan ortiqcha kundalik harajatlar uchun haq (sutkalik pullar);
- Mehnatda mayib bo'lganlik yoki soglikka boshqa cha shikast yetganlik bilan bog'liq zararining o'rnini qoplash uchun ko'rsatilgan miqdorlardan ortiqcha olingan so'mmalar va boshqalar.

3) Ishlanmagan vaqt uchun haq to'lash. Ishlanmagan vaqt uchun haq to'lashga quyidagi lar kiradi:

- qonun xujjatlariga muvofiq asosiy yillik ta'tillarga haq to'lash;
- asosiy ish haqi kisman saklanib qolgan holda majburiy ta'tilda bo'lgan xodimlarga beriladigan to'lovlar;
- donor xodimlarga ko'rikdan o'tishi, qon topshirish va qon topshirilgan har bir kundan keyin beriladigan dam olish kunlari uchun haq to'lash;
- O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksiga muvofik davlat yoki jamoat vazifalarini bajarganlik uchun mehnatga haq to'lash;
- Qishloq xo'jaligi va boshqa ishlarga jalb qilinadigan xodimlarning asosiy ish joyi bo'yicha saqlab qolinadigan ish haqi;
- yuridik shaxslarning xodimlariga kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimida ishdan ajralgan holda o'qishlari vaqtida asosiy ish joyi bo'yicha ularga to'lanadigan ish haqi;
- xodimning aybisiz bekor turib qolingan vaqt uchun haq to'lash;
- moddiy yordam to'lovi;
- oliy O'quv yurtini tamomlaganidan keyin yosh mutaxassislariga ta'til vaqti uchun yuridik



shaxs hisobidan to'lanadigan nafaqalar va boshqalar.

Mulkiy daromadlar. Jismoniy shaxslarning mulkiy daromadlari 176-moddada qayd qilingan. Ushbu daromadlarga quyidagi lar kiradi:

- foizlar;
- dividendlar;
- mol-mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlar;
- jismoniy shaxslarga xususiy mulk huquqi asosida tegishli bo'lgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan olingan daromadlar;
- sanoat mulki obyektlariga berilgan patent (lisenziya) egasi bo'lgan jismoniy shaxsning olgan daromadi;
- Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar to'laganidan keyin xususiy korxona mulkdori hamda fermer xo'jaligi boshligi, xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius ixtiyorida koladigan foyda so'mmasi.

Moddiy naf tarzidagi daromadlar. Ushbu daromadlar Kodeksning 177-moddasida ko'rsatilgan. Soliq to'lovchi tomonidan moddiy naf tarzida olinadigan daromadlariga, masalan quyidagi lar kiradi:

- Yuridik shaxs tomonidan jismoniy shaxs manfaatlarini ko'zlab, tovarlar (ishlar, xizmatlar) haqini, mulkiy huquqlarni to'lash, shu jumladan jismoniy shaxslarning bolalarini maktabgacha ta'lim muassasalarida ukitish, tarbiyalash va boshqa lar;
- Sovgalar, tyokin berilgan, shu jumladan xadya shartnomasi asosida berilgan tovarlar, Soliq to'lovchining manfaatlarini ko'zlab, bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar qiymati;
- Qonun xujjatlariga muvofik xodimlarga temir yo'l, aviatsiya, daryo, avtomobil transporti va shahar elektr transportida yurish bo'yicha beriladigan imtiyozlar so'mmasi;
- Jismoniy shaxsning yuridik shaxs oldidagi karzining yuridik shaxs qarori bilan hisobdan chiqarilgan so'mmalari.

Boshqa daromadlar. Jismoniy shaxslarning boshqa daromadlari Kodeksning 178-moddasida keltirilgan, shular jumlasiga quyidagi daromadlar kiradi:

- ◆ Pensiyalar va qonun xujjatlarida belgilangan nafaqalar;
- ◆ stipendiyalar;
- ◆ fuqorolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari, xayriya va ekologik jamg'armalari tomonidan jismoniy shaxslarga beriladigan nafaqalar;
- ◆ donorlik uchun pul mukofotlari;
- ◆ alimentlar;
- ◆ xayvonlarni (qoramol, parranda, mo'ynali va boshqa xayvonlarni, baliq va boshqa larni) tirik holda hamda ularni suyib, mahsulotlarini xom yoki qayta ishlangan holda, ipak kurti, chorvachilik, asalarichilik va dehqonchilik mahsulotlarini tabiiy va qayta ishlangan holda sotishdan olingan daromadlar;
- ◆ musobaqalarda, ko'riklarda, tanlovlarda sovrinli o'rinlar uchun beriladigan sovrinlar, pul mukofotlari;
- ◆ yutuqlar;
- ◆ grantlar, shu jumladan chet davlatlar grantlari bo'yicha olingan so'mmalar;
- ◆ yaratilgan fan, adabiyot va san'at asarlari (predmetlari) uchun jismoniy shaxslar tomonidan olingan daromadlar;
- ◆ O'zbekiston Respublikasining davlat mukofotlari va davlat pul mukofotlariga sazovor bo'lgan jismoniy shaxslar olgan bir yo'la beriladigan davlat pul mukofoti yoki shunga teng bahodagi esdalik sovgalarining qiymati va boshqalar.

Yuridik shaxslar amalga oshiradigan harajatlar jismoniy shaxslarning daromadiga kiritilmaydi ya'ni ular daromadi sifatida karamaydi. Ushbu harajatlar 171-moddada aniq ko'rsatilgan. Shular jumlasiga quyidagi larni misol tarakasida keltiramiz;



- Xodimlarni qonun xujjatlarida belgilangan me'yorlarga muvofik sut hamda boshqa davolash-profilaktika oziq-ovqati, shaxsiy himoya va gigiyena vositalari bilan ta'minlash bo'yicha harajatlar:

- Kasaba uyushmasi tomonidan amalga oshiriladigan to'lovlar;

Xodimlarni ish joyiga olib kelish va qaytarib olib ketish harajatlari;

- Xodimga xizmat vazifalarini bajarish uchun zarur bo'lgan maxsus kiyim-bosh, maxsus poyabzal, formal kiyim-bosh berish harajatlari;
- Xodim boshqa joyga ishga o'tkazilganda yoxud ko'chib borganda kuchish, mol-mulkini ko'chirib borish, joy ijarasi (yo'l harajatlari uchun beriladigan pul) bilan bog'liq harajatlarni to'lash yoki bu harajatlarning o'rnini qoplash harajatlari;
- Xizmat safarlaridagi kompensasiya to'lovlari va boshqalar;

Soliq Imtiyozlari. Soliq kodeksning 179 va 180 moddalarida aks ettirilgan.

Soliq kodeksining 179-moddasida "Jismoniy shaxslarning Soliq solinmaydigan daromadlari" va 180-moddasida "Jismoniy shaxslarni Soliq solishdan ozod qilish" to'g'risidagi imtiyozlar keltirilgan.

Jismoniy shaxslarning soliq solinmaydigan daromadlari 179 moddada 30-ta punktda aks ettirilgan. Shular jumlasiga quyidagilar kiradi:

1. Moddiy yordam so'mmalari;

- favqulovddagi holatlar munosabati bilan beriladigan moddiy yordam so'mmalari-to'laligicha;

- vafot etgan xodimning oila a'zolariga yoki oila a'zosi vafot etganligi munosabati bilan xodimga beriladigan moddiy yordam so'mmalari-eng kam ish haqining yigirma baravarigacha miqdorda;

- boshqa xollarda- eng kam ish haqining un ikki baravarigacha miqdorda;

2. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'laganidan keyin xususiy korxona mulkdori, fermer xo'jaligi boshligi ixtiyorida koladigan foyda so'mmasi;

3. O'zbekiston Respublikasining davlat mukofotlariga va davlat pul mukofotlariga sazovor bo'lgan jismoniy shaxslar olgan bir yo'la beriladigan davlat pul mukofoti yoki shunga teng bahodagi esdalik sovgalarining qiymati;

4. Xalqaro sport musobaqalarida sovrinli o'rinlarni egallaganligi uchun sportchilar olgan bir yo'la beriladigan pul mukofoti;

5. Sanoat mulki obyektlariga va seleksiya yutugi patentiga patent (lisenziya) egasi bo'lgan jismoniy shaxsning patentni (lisenziyani) ularning amal qilish muddati doirasida, lyokin foydalanish boshlangan kundan e'tiboran quyida ko'rsatilgan davrdan ko'p bo'lmagan muddatda sotishdan olgan daromadi so'mmasi:

- ixtirolar va selyokiya yutugidan-5 yil davomida;
- sanoat namunasidan- 3 yil davomida;
- foydali modeldan – 2 yil davomida;

6. Uy xo'jaligida, shu jumladan dehqon xo'jaligida yetishtirilgan xayvonlarni (qoramol, parranda mo'ynali va boshqa xayvonlar, baliq va boshqa larni) tirik holda hamda ularni suyib, mahsulotlarini xom yoki qayta ishlatilgan holda sanoatda qayta ishlashdan tashqari, tabiiy va qayta ishlangan chorvachilik, asalarichilik va dehqonchilik mahsulotlarini sotishdan olinadigan daromadlar, bundan manzarali bog'dorchilik (gulchilik) mahsulotlari mustasno;

7. Davlat pensiyalari:

Jismoniy shaxslarni soliq solishdan ozod qilish Soliq Kodeksining 180-moddasida aks ettirilgan. Shular jumlasiga quyidagilarni misol qilib ko'rsatish mumkin:

1. O'zbekiston Respublikasi Mudofaa, Ichki ishlar, Favkulodda vaziyatlar vazirliklarining, Milliy xavfsizlik xizmatining harbiy xizmatchilari, ichki ishlar organlari hamda bojxona organlarining oddiy xizmatchilari va boshliklari tarkibiga kuruvchi shaxslar:



2.Proko'ra tura organlarining daraja unvonlariga ega bo'lgan xodimlari – ularning xizmat vazifalarini bajarish munosabati bilan olgan daromadlari bo'yicha;

3. Gastrol – konsert faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi lisenziyasi bo'lgan shaxslar – ushbu faoliyatdan olingan daromadlari bo'yicha.

Quyidagi jismoniy shaxslar Soliq olishdan kisman (daromad olingan har bir oy uchun eng kam ish haqining to'rt baravari miqdoridagi daromadlar bo'yicha) **ozod qilinadi:**

- “O'zbekiston Kaxramoni”, Mehnat Kaxramoni unvonlariga sazovor bo'lgan shaxslar uchala darajadagi shuxrat ordeni bilan taqdirlangan shaxslar;
- Ichki ishlar organlarining boshliklari va oddiy xizmatchilari jumlasidan bo'lib , xizmat vazifalarini bajarishda yaralanganligi, qonto'ziya bo'lganligi yoki shikastlanganligi okibatida nogiron bo'lib qolganlar;
- Bolalikdan nogiron bo'lib qolganlar, shunindek I va II guruh nogironlari;
- Un va undan ortiq bolasi bor ayollar;
- Xizmatni Afgoniston Respublikasida va jangovar harakatlar olib borilgan boshqa mamlakatlarda vaqtincha bo'lgan qo'shnlarning cheklangan qontingenti tarkibida o'tagan harbiy xizmatchilar hamda O'quv va sinov yiginlariga chakirilgan harbiy xizmatga majburlar;
- Ikki va undan ortiq un olti yoshga to'lmagan bolalari bor yolg'iz onalar;

Soliq stavkalari va Soliq davri. Soliqni to'lash tartibi.

Jismoniy shaxslar daromadidan olinadigan Soliq stavkalari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan belgilanadi. 2011 yil uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 24-dekabrda PK-1449-son qarorining 8-ilovasiga muvofiq jismoniy shaxslarning daromadlariga solinadigan Soliq quyidagi miqdorda belgilangan.

Soliq solinadigan daromad	Soliq stavkasi
Eng kam ish haqining besh baravarigacha miqdorda	Daromad so'mmasining 10 foizi
Eng kam ish haqining besh baravaridan (+1 so'm) o'n baravarigacha miqdorda	Eng kam ish haqining besh baravar miqdordan olinadigan Soliq +besh baravaridan oshadigan so'mmaning 16 foizi
Eng kam ish haqining o'n baravaridan (+1 so'm) va undan yukori miqdorda	Eng kam ish haqining o'n baravar miqdordan olinadigan Soliq +o'n baravaridan oshadigan so'mmaning 22 foizi

Izox:1.Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i so'mmasini hisoblab chiqarish maqsadida eng kam ish haqining miqdori yil boshidan e'tiboran ortib boruvchi yakun bilan hisobga olinadi (yil boshidan tegishli davrning har bir oyi uchun eng kam ish haqi so'mmasi).

2.Belgilangan stavkalardan kelib chiqib hisoblangan, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i so'mmasi,fuqorolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisoblashlariga o'tkaziladigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i solinadigan daromadlaridan 1% miqdorida hisoblab chiqariladigan har oylik majburiy badallar so'mmasiga kamaytiriladi.

Daromadlarning alohida turlariga solinadigan Soliq stavkalari. Ushbu Soliq stavkalari Soliq kodeksining 181-moddasida aks ettirilgan. Jismoniy shaxslarning ushbu turdagi daromadlariga eng kam stavka bo'yicha Soliq solinadi.Bularga quyidagi lar kiradi:

- Baland togli,chul va suvsiz xududlarda ishlaganlik uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi tomonidan belgilangan koeffisiyentlar bo'yicha qo'shimcha to'lovlar tariqasida olingan daromadlarga.Bunda shu xududlarda ishlaganlik uchun yuridik shaxslar xodimlarining ish haqiga koeffisiyentlar hisoblashning eng yukori so'mmani hisoblash paytidagi holatga ko'ra belgilangan eng kam ish haqining to'rt baravari miqdorida belgilanadi:



- Korxonalar, muassasalar, tashkilotlar tomonidan vaqtinchalik Qishloq xo'jaligi ishlariga yuborilgan jismoniy shaxslarning shu ishlarni bajarishdan olingan daromadlariga.
- Mehnat sharoiti o'ta zararli va o'ta og'ir ishlarda band bo'lgan ayollarning daromadlaridan olish darajasi 20 foizdan oshmasligi lozim. Mehnat sharoiti uta zararli va uta ogir ishlar ro'yxati qonun xujjatlari bilan belgilanadi.

Jismoniy shaxsning – O'zbekiston Respublikasi norezidentining O'zbekiston Respublika-sidagi daromadlar manbaidan olingan, daromadlariga manbada chegirmalarsiz quyidagi stavkalar bo'yicha Soliq solinadi:

- Dividendlar va foizdarga – 10 foiz;
- Xalqaro tashishlarda transport xizmatlari ko'rsatishdan olinadigan daromadlarga (fraxtdan olinadigan daromadlarga) - 6 foiz;
- Intelektual mulk obyektlariga bo'lgan mulkiy huquqlarni boshqa shaxsga o'tkazilganlik uchun pul mukofoti, ijara bo'yicha daromadlarga hamda, ishlarni bajarish, xizmatlar ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan, mehnat shartnomalari va fuqarolik-huquqiy tusga ega shartnomalar bo'yicha olingan boshqa daromadlarga – 20 foiz.

To'lov manbaida Soliq solish to'lovi O'zbekiston Respublikasi xududida yoki uning xududidan tashqarida sodir etilganligidan kat'iy nazar amalga oshiriladi.

Kalendar yil Soliq davridir. Yil choragi daromad to'lash manbaidan jismoniy shaxslarning daromad Soliqlarini ushlab koluvchilar uchun hisobot davridir.

Jismoniy shaxslarning daromadlariga solinadigan Soliqni to'lov manbaida **hisoblab chiqarish**, ushlab qolish va to'lash majburiyati yuridik shaxslar, faoliyatni O'zbekiston Respublikasida doimiy muassasa orkali amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasi norezidentlari hamda chet el yuridik shaxslarining vakolatxonalari zimmasiga yuklatiladi.

Jismoniy shaxslarning daromadlariga to'lov manbaida Soliq solinadigan daromadlariga quyidagi lar kiradi:

1. Jismoniy shaxslarning mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlari;
2. Soliq Kodeksining 177-modldasiga muvofiq moddiy naf tarzidagi daromadlar;
3. Jismoniy shaxslarning mulki daromadlari (dividendlar, foizlar, mol-mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlari);
4. Jismoniy shaxslarning boshqa daromadlari (bular Kodeksning 178-moddasida aks ettirilgan);
5. Jismoniy shaxsga yuridik shaxs tomonidan moddiy naf tariqasida to'lanadigan daromadlar.

Soliqni hisoblab chiqarish va ushlab qolish tartibi. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad **solig'ini** hisoblab chiqarish uchun Soliq stavkasini qo'llash maqsadida eng kam ish haqi miqdori yil boshidan ortib boruvchi yakun bo'yicha (yil boshidan tegishli davrning har bir oyi uchun eng kam ish haqlarning so'mmasi) hisobga olinadi.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini hisoblab chiqarilgan so'mmasi qonun xujjatlarida belgilangan tartibda jismoniy shaxslarning shaxsiy jamgarib boriladigan pensiya hisobvaraklariga o'tkaziladigan har oylik majburiy badallar so'mmasiga kamaytiriladi.

Yangi asosiy ish (xizmat, o'qish) joyida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad **solig'ining** hisoblab chiqarish kalendar yil boshidan buyon ilgari va yangi ish (xizmat, o'qish) joylaridan olingan jami daromaddan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

Soliq to'lash tartibi. To'lov manbaida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining hisoblab chiqarilgan so'mmasi byudjetga Soliq agenti tomonidan quyidagi muddatlarda to'lanadi:

- Pul mablag'larini olish uchun xizmat ko'rsatuvchi bankka xujjatlarni taqdim etish bilan bir vaqtda;
- To'lov natura xolida amalga oshirilgan bo'lsa oy tugaganidan keyin besh kun ichida, agar bunday to'lovga qonun xujjatlarida ruxsat berilgan bo'lsa:



Agar yuridik shaxsning bank hisobvaraklarida ish haqini to'lash va bir vaqtning o'zida xodimlarning ish haqidan ushlab qolingani Soliqlarni byudjetga o'tkazish uchun mablag'lar yetarli bulmasa, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bank hisobvaragidagi qoldiq mablag'larga mutanosib so'mmada byudjetga o'tkaziladi.

4.2. Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan Soliq

Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan Soliq Soliq kodeksining 272-277 moddalarida aks ettirilgan, ya'ni Soliq to'lovchilar, Soliq solish obyekti, Soliq solinadigan baza, imtiyozlar, Soliq stavkasi, uni hisoblash va to'lash to'g'risidagima'lumotlar aks ettirilgan.

Soliq to'lovchilar.

Soliq kodeksining 272-moddasiga ko'ra, Soliq to'lovchilar bo'lib, mulkida Soliq solinadigan mol-mulki bo'lgan jismoniy shaxslar, shu jumladan chet el fuqarolari, shuningdek yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda to'zilgan dehqon xo'jaliklari hisoblanadi. Agar ko'chmas mulk egasining joylashgan yerini aniqlash imkoni bulmasa, bu mol-mulk kaysi shaxsning egaligida va (yoki) foydalanishida bo'lsa, o'sha shaxs Soliq to'lovchi bo'lib hisoblanadi.

Soliq solish obyekti.

O'zbekiston Respublikasi xududida joylashgan uy joylar, kvartiralar, dala hovli imoratlari, garajlar va boshqa imoratlar, joylar, inshootlar **Soliq solish obyektidir**

Soliq solinadigan baza.

Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan Soliq bazasi Soliq kodeksining 274-moddasiga muvofik aniqlanadi. Soliq solinadigan baza bo'lib, ko'chmas mulkka bo'lgan xuquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organ tomonidan belgilangan Soliq solish obyektlarining inventarizasiya qiymati hisoblanadi.

Jismoniy shaxslarning mol-mulkini baholash bo'yicha vakolatli organ tomonidan aniqlangan Soliq solish obyektining bahosi mavjud bo'lmagan taqdirda, mol-mulkning qonun xujjatlari bilan belgilanadigan shartli qiymati Soliq solinadigan bazadir. Bitta jismoniy shaxs bir necha Soliq solish obyekti bo'yicha Soliq to'lovchi bo'lgan tagdirda Soliq solinadigan baza har bir obyekt bo'yicha alohida-alohida hisoblab chiqiladi.

Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan Soliq buyiga beriladigan imtiyozlar Soliq kodeksining 275-moddasida batafsil aks ettirilgan.

Quyidagi jismoniy shaxslarning mulkida bo'lgan mol-mulkka jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan Soliq solinmaydi:

1. «O'zbekiston Kaxramoni»,Sovet Ittifoqi Qaxramoni,Mehnat Qaxramoni unvonlariga sazovor bo'lgan, uchala darajadagi Shuxrat ordeni bilan taqdirlangan fuqorolarning;
2. 1941-1945 yillardagi urush nogironlari va qatnashchilari hamda doirasi qonun xujjatlari bilan belgilanuvchi ularga tenglashtirilgan shaxslarning;
3. Un nafar va undan ortiq bolalari bor ayollarning;
4. Chernobil AESdagi avariya okibatlarini tugatishda ishtirok etganlik uchun imtiyozlar oladigan larning, shu jumladan u yerga vaqtincha yo'llangan yoki xizmat safariga yuborilgan shaxslarning;
5. Qonun xujjatlarida belgilangan soliq solinmaydigan maydon o'lchami doirasida pensionerlarning;
6. 1 va 2 guruh nogironlarining;
7. Sobiq SSSRni O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tizimini himoya qilish yoki harbiy xizmatning yoxud ichki ishlar organlaridagi xizmatning boshqa majburiyatlarini bajarish chog'ida



yaralanganligi, kontuziya bo'lganligi yoki shikastlanganligi oqibatida yoxud frontda bo'lishi bilan bog'liq kasallik tufayli halok bo'lgan harbiy xizmatchilarning hamda ichki ishlar organlari xodimlarining ota-onalari va beva xotinlari (beva erlari).

Belgilangan imtiyozlar mulkdorning tanlashiga binoan faqat bir mol-mulk obyektiga taaluqli bo'ladi.

Ushbu imtiyozlar jismoniy shaxslar tomonidan tadbirkor faoliyati uchun foydalaniladigan yoxud yuridik shaxsga yoki yakka tadbirkorga ijaraga berilgan Soliq solish obyektlariga nisbatan qo'llaniladi.

Soliq stavkasi. Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan Soliq stavkasi Prezident qarori bilan tasdiqlanadi. 2011 yil uchun tasdiqlangan stavka va Soliq solinadigan obyektlar quyidagi jadvalda keltiriladi.

Soliq solinadigan obyektlarning nomi	Mol-mulkning inventarizatsiya qiyma-tiga nisbatan Soliq stavkasi, foizda
1. Turar joylar, kvartiralar, dala hovli, qurilmalari, garajlar va boshqa imoratlar, xonalar va inshootlar	0,75
2. Shaharlarda joylashgan umumiy maydoni quyidagicha bo'lgan turar joy va kvartiralar:	
a) 200 kv.m. dan oshiq va 500 kv.m gacha bo'lgan.	0,9
b) 500 kv.m. dan oshiq bo'lgan.	1,13

Izox:

1. Jismoniy shaxslar mol-mulkini baholash bo'yicha organlar belgilagan inventarizatsiya qiymati bulmasa, Soliq undirish uchun Toshkent shaxri va viloyat markazlarida 18480,0 ming so'm, boshqa shaharlar va Qishloq joylarda -8030,0 ming so'm miqdorida mol-mulkning shartli qiymati qabul qilinadi.

2. Soliq solinadigan mol-mulkka egalik qiladigan pensionerlar uchun mol-mulk **solig'i** bo'yicha Soliq solinmaydigan umumiy maydon 60 kv. m hajmi da belgilanadi.

3. Jismoniy shaxslar tomonidan turar joy fondi obyektlari noturar joy fondi toifasiga o'tkazilganda yoki ular tomonidan noturar joy fond obyektlari (binolar, binodagi xonalar) mulk sifatida harid qilinganda jismoniy shaxslar mol-mulkiga solinadigan Soliq yuridik shaxslar uchun belgilangan stavka bo'yicha to'lanadi.

Soliq stavkasini qo'llanishning o'ziga xos xususiyatlari. Soliq solish obyektlari jismoniy shaxslar tomonidan tadbirkorlik faoliyati uchun foydalanilgan yoxud ular yuridik shaxsga yoki yakka tartibdagi tadbirkorga ijaraga berilgan taqdirda, jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan Soliq yuridik shaxslar uchun belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda to'lanadi.

Soliqni hisoblab chiqarish va to'lash tartibi. Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan Soliqni hisoblab chiqarish va to'lash tartibi kodeksning 277- moddasida batafsil bayon qilingan.

Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan Soliqni hisoblab chiqarish Soliq to'lovchining yashash joyidan kat'iy nazar, Soliq solish obyekti joylashgan yerdagi davlat Soliq xizmati organlari tomonidan ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organning ma'lumotlari asosida amalga oshiriladi.

Ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organning ma'lumotlari asosida amalga oshiriladi.

Ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organ Soliq solish obekti joylashgan yerdagi davlat Soliq xizmati organlariga har yili 1 fevralgacha obyektning 1 yanvarga



bo'lgan holatiga ko'ra inventarizasiya qiymatini va uning mulkdorini kursatgan holda ma'lumot taqdim etadi.

Imtiyozlarni olish huquqiga ega bo'lgan shaxslar imtiyozlarni olish huquqini tasdiqlovchi xujjatlarni mustaqil ravishda taqdim etadilar.

Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan Soliq so'mmasi mol-mulkning 1 yanvarga bo'lgan holatiga ko'ra inventarizasiya qiymatidan va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

Bir nechta mulkdorning umumiy ulushli mulkida bo'lgan imoratlar, binolar va inshootlar uchun jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan Soliq mulkdorlarning har biri tomonidan ularning ushbu imoratlar, binolar va inshootlardagi ulushiga mutanosib ravishda to'lanadi.

Mol-mulkka bo'lgan mulk huquqi kalendar yil mobaynida bir mulkdordan boshqa siga o'tgan taqdirda, jismoniy shaxslarning mulkiga solinadigan Soliq avvalgi mulkdor tomonidan shu yilning 1 yanvaridan e'tiboran u mol-mulkka bo'lgan mulk huquqini yo'qotgan oyning boshlanishiga kadar, yangi mulkdor tomonidan esa unda mulk huquqi vujudga kelgan oydan e'tiboran to'lanadi.

Yangi imoratlar, binolar va inshootlar bo'yicha jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan Soliq ular barpo etilgan yildan keyingi yil boshidan e'tiboran to'lanadi.

Meros bo'yicha o'tgan mol-mulk uchun jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan Soliq merosxo'rlarda mulk huquqi vujudga kelgan oydan e'tiboran to'lanadi.

Soliq solish obyekti yo'q qilingan, vayron bo'lgan, buzib tashlangan taqdirda, jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan Soliqni undirish mol-mulk yo'q qilingan, vayron bo'lgan yoki buzib tashlangan oydan e'tiboran to'xtatiladi. Soliq so'mmasini qayta hisob-kitob qilish Mahalliy davlat xokimiyati organi yoki larning o'zini-o'zi boshqarish organi tomonidan berilgan yo'q qilinganlik, vayron bo'lganlik, buzib tashlanganlik faktini tasdiqlovchi xujjatlar mavjud bo'lgan taqdirda, amalga oshiriladi.

Kalendar yo'l mobaynida imtiyoz huquqi vujudga kelgan taqdirda, jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan Soliqni qayta hisob-kitob ushbu huquq vujudga kelgan oydan e'tiboran amalga oshiriladi.

Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan Soliqni to'lash to'g'risidagi to'lov xabarnomasi Soliq to'lovchilarga davlat Soliq xizmati organi tomonidan har yili 1 maydan kechiktirmay topshiriladi.

Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan Soliqni Soliq davri uchun to'lash teng ulushlarda bir yilda ikki marta amalga oshiriladi:

- ✓ Hisobot yilining 15 iyuniga kadar;
- ✓ Hisobot yilining 15 dekabriga kadar.

4.3.Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i.

Jismoniy shaxslardan olinadigan yer **solig'i** Soliq kodeksining 50-bobi tarkibidagi 287-294 moddararda o'z aksini topgan, ya'ni Soliq to'lovchilar, Soliq solish obyekti, Soliq solinadigan baza, imtiyozlar, Soliq stavkasini qo'llanishning o'ziga xos xususiyatlari, Soliqni hisoblab chiqarish va uni to'lash tartibining mazmun-moxiyat va ta'rifining bayoni aks ettirilgan.

Soliq to'lovchilar.

Soliq kodeksining 287-moddasida Soliq to'lovchilarning ta'rifi keltirilgan. Soliq to'lovchilar bo'lib, mulk huquqi, egalik qilish huquqi, foydalanish huquqi yoki ijara huquqi asosida yer uchastkalariga ega bo'lgan jismoniy shaxslar, shuningdek yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklari hisoblanadi.

Uy-joy, yashash uchun mo'ljallanmagan imorat va inshootlar meros bo'yicha o'tishi bilan birgalikda mulk huquqi, egalik qilish huquqi va foydalanish huquqi o'tgan yer uchastkalari uchun yer **solig'i** meros koldiruvchining Soliq majburiyatlari hisobga olingan holda merosxo'rlardan undiriladi.

Soliq solish obyekti.



Soliq solish obyekti Soliq kodeksining 288-moddasida o'z aksini topgan. Shu moddaga ko'ra jismoniy shaxslar uchun quyidagi yer uchastkalari Soliq solish obyekti bo'lib hisoblanadi:

1. Dehqon xo'jaligi yuritish uchun meros kilib koldiriladigan umrbod egalik qilishga berilgan yer uchastkalari;
 2. Yakka tartibda uy-joy qurilishi uchun meros kilib koldiriladigan, umrbod egalik qilishga berilgan yer uchastkalari;
 3. Jamoa bog'dorchiligi, uzumchiligi va polizchiligini yuritish uchun berilgan, shuningdek yakka tartibdagi garajlar egallangan yer uchastkalari;
 4. Xizmat yuzasidan berilgan chek yerlar;
 5. Meros bo'yicha, xadya kilinishi yoki olinishi natijasida uy-joy imoratlar bilan birgalikda mulk huquqi, egalik qilish va foydalanish huquqi xam o'tgan yer uchastkalari;
 6. Qonun xujjatlarida belgilangan tartibda mulk kilib olingan yer uchastkalari;
 7. Tadbirkorlik faoliyati yuritish uchun foydalanishga yoki ijaraga berilgan yer uchastkalari;
- Ko'p kvartirali uylar egallagan yer uchastkalari Soliq solish obyekti bulmaydi.

Soliq solinadigan baza.

Soliq solinadigan baza Soliq kodeksining 289-moddasida aks ettirilgan. Ushbu moddaga ko'ra Soliq solinadigan baza bo'lib, ko'chmas mulkka ega bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organning yer uchastkalari maydoniga doir ma'lumotlari hisoblanadi. Boshqa cha aytganda, yer uchastkalari maydoniga doir ma'lumotlar Soliq solish bazasi bo'lib hisoblanadi.

Jamoa bog'dorchiligi, o'zumchiligi va polizchiligini yuritish uchun larga berilgan, shuningdek yakka tartibdagi garajlar egallagan yer uchastkalarining maydonlari bo'yicha Soliq solinadigan baza ushbu yer uchastkalarini bergan tashkilotlar boshqaruv organlarining ma'lumotlari bo'yicha aniqlanadi.

Xizmat yuzasidan berilgan chek yerlarning maydonlari bo'yicha Soliq solinadigan baza o'z xodimlariga yer uchastkalari bergan korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning ma'lumotlari bo'yicha aniqlanadi.

Imtiyozlar. Yer solig'i bo'yicha beriladigan imtiyozlar kodeksning 290-moddasida qayd qilingan. Shu moddaga ko'ra yer solig'idan quyidagi jismoniy shaxslar ozod qilinadi:

1. Yaylov chorvachiligining chuponlari, yilki bokarlari, mexanizatorlari, veterinariya vrachlari va texniklari, boshqa mutaxassislari va ishchilari;
2. "O'zbekiston Kaxramoni", Sovet Ittifoki Kaxramoni, Mehnat Kaxramoni unvonlariga sazovor bo'lgan, uchala darajadagi Shuxrat ordeni bilan taqdirlanganlar;
3. 1941-1945 yillardagi urush nogironlari va qatnashchilari hamda qonun xujjatlarida belgilanadigan doiradagi ularga tenglashtirilgan shaxslar;
4. I va II guruh nogironlar;
5. Yolg'iz pensionerlar;
6. Bokuvchisini yo'qotgan ko'p bolali oilalar;
7. Chernobil AESdagi avariya okibatlarini tugatishda ishtirok etgan shaxslar;
8. Shaxsiy pensiya tayinlangan shaxslar;
9. Kuchirib keltirilgan lar kelib joylashgan yer uchastkalari bo'yicha – yer uchastkalari berilgan paytdan e'tiboran besh yilgacha;
10. Shaxslar-ularga yakka tartibdagi uy-joy qurilishi va dehqon xo'jaligi yuritish uchun qonun xujjatlarida belgilangan me'yorlar doirasida berilgan yer uchastkalari bo'yicha- yer uchastkasi berilgan oydan keyingi oydan e'tiboran ikki yil muddatga.

Yer solig'i stavkalari.

Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i stavkalari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan tasdiqlanadi. 2010-2011 yillar uchun tasdiqlangan yer solig'i stavkalarini ayrimlarini quyidagicha keltirdik:



Samarqand viloyati shahar va qo'rg'onlarida yer uchastkalaridan foydalanganlik uchun yer solig'i stavkalari.

6-jadval

Shahar, viloyat	Undiriladigan yer solig'i stavkalari							
	Yakka tartibda uy-joy kurish uchun berilgan yer uchun lardan 1 kv. m uchun, so'mda							
	1-zona		2- zona		3- zona		4- zona	
	2010 y	2011 y	2010 y	2011 y	2010 y	2011 y	2010 y	2011 y
Oktosh	35,1	42,1	28,5	34,2	25,8	31,0		
Kattaqo'rg'on	39,4	47,3	33,1	39,7	28,5	34,2		
Samarqand	59,0	70,8	55,8	67,0	53,4	64,1	48,6	58,3
Urgut	35,1	42,1	28,5	34,2	25,8	31,0		

Qishloq joylarda joylashgan yer uchastkalaridan foydalanganlik uchun ulardan undiriladigan yer solig'i stavkalari

8-jadval

Respublika, viloyat	0,01 ga uchun yer solig'i stavkalari, so'm						Jamoabog'dorchiligi va polizchiligini yuritishga berilgan yerlar uchun	
	Dehqon xo'jaligini yuritishga berilgan yerlar uchun							
	Sug'oriladigan zona				Lalmi yerlar			
	Aholi punktlarida		Aholi punktlaridan tashqarida					
	2010 y	2011 y	2010 y	2011 y	2010 y	2011 y	2010 y	2011 y
Samarqand	1896,9	2276,3	948,6	1138,3	219,8	263,8	857,9	1029,5
Toshkent	1892,3	2270,8	946,3	1135,6	218,3	-262,0	852,3	1022,8

Jadvallarga izox :

1. 8-jadvalda keltirilgan stavkalarga yer uchastkalarining joylashish joyiga bog'liq holda quyidagi koeffitsiyentlar qo'llanadi: Toshkent shaxri atrofida 20 km lik aylanada-1,30, Korakolpogiston Respublikasi poytaxti va viloyat markazlari atrofida 15 km lik aylanada-1.20, tuman markazlari atrofida 10 km lik aylanada -1.15, boshqa shaharlar atrofida 5 km lik aylanada-1.10.
2. Dehqon xo'jaliklaridan undiriladigan yer **solig'ini** hisoblab chiqarish chogida 8-jadvalda keltirilgan stavkalarga, yer sifatiga bog'liq holda, quyidagi koeffitsiyentlar qo'llanadi: tuprok boniteti 40 ballgacha bo'lsa-0,75; tuprok boniteti 41 dan 70 ballgacha bo'lsa – 1, 0; Tuprok boniteti 70 balldan ortiq bo'lsa – 1,25.
3. Jismoniy shaxslarga tadbirkorlik faoliyati uchun berilgan yer uchastkalaridan Soliq korxonalar, muassasalar va tashkilotlar uchun tasdiqlangan stavkalar bo'yicha undiriladi.
4. Jamoaviy va shaxsiy garajlar band etgan yer uchastkalari uchun jismoniy shaxslardan Soliq yakka tartibdagi uy-joy qurilishi yerlari uchun tasdiqlangan stavkalar bo'yicha undiriladi.

Soliq stavkasini qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari. Tadbirkorlik faoliyatida foydalaniladigan yoxud uylar, hovli imoratlari, yakka tartibdagi garajlar va boshqa imoratlar, inshootlar, joylar yuridik shaxsga yoki yakka tartibdagi tadbirkorga ijaraga berilganda yer uchastkalari uchun yer solig'i jismoniy shaxslardan yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'ini to'lash uchun belgilanadigan stavkalar bo'yicha undiriladi hamda ularga kodeksning 290-moddasida nazarda tutilgan imtiyozlar tatbik etilmaydi.



Soliqni hisoblab chiqarish va to'lash tartibi. Yer solig'ini hisoblab chiqarish davlat Soliq xizmati organlari tomonidan amalga oshiriladi .

Yer solig'i so'mmasi va uni to'lash muddatlari ko'rsatilgan to'lov xabarnomasi jismoniy shaxslarga davlat Soliq xizmati organlari tomonidan har yili 1-maydan kechiktirmay topshiriladi.

Yil mobaynida yer uchastkasi maydoni o'zgarganda va imtiyozlarga bo'lgan huquqlar vujudga kelganda (bekor qilinganda) davlat Soliq xizmati organlari mazkur o'zgarishlardan keyin bir oy ichida yer solig'ini qayta hisob-kitob qilishlari hamda Soliq to'lovchiga yer solig'i so'mmasi va uni to'lash muddatlari ko'rsatilgan yangi yoki qo'shimcha to'lov xabarnomasini taqdim etishlari kerak.

Yil mobaynida ajratilgan yer uchastkalari uchun yer solig'i jismoniy shaxslar tomonidan yer uchastkasi ajratilganidan keyingi oydan e'tiboran to'lanadi. U maxaliy byudjetga to'lanadi.

Yer uchastkasi maydoni kamaytirilgan taqdirda, yer solig'ini to'lash yer uchastkasi kamaytirilgan oydan e'tiboran tuxtatiladi (kamaytiriladi).

Yer solig'i bo'yicha imtiyozlar belgilangan taqdirda, bu Soliq imtiyoz huquqi vujudga kelgan oydan e'tiboran to'lanmaydi. Yer solig'i bo'yicha imtiyozlar bo'lgan xukular bekor qilingan taqdirda, bu Soliq mazkur huquq bekor qilinganidan keyingi oydan e'tiboran to'lana boshlaydi.

Soliq davri uchun yer solig'i to'lash jismoniy shaxslar tomonidan yiliga ikki marta teng ulushlarda amalga oshiriladi:

Hisobot yilining 15 iyuniga kadar:

Hisobot yilining 15 dekabriga kadar

4.4. Jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yonilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq.

Soliq kodeksining 14-bo'limi tarkibidagi 301-304 moddalarda ushbu Soliqning mazmun-mohiyati bayon qilingan. Ushbu Soliq Mahalliy Soliq va yig'imlar tarkibiga kiradi

Soliq to'lovchilar.

Soliq kodeksining 301-moddasiga ko'ra Soliq to'lovchilar bo'lib ,jismoniy shaxslarga transport vositalari uchun benzin,dizel yonilg'isi va gazni chakana realizasiya qilishni amalga oshiruvchi yuridik shaxslar hisoblanadi.

Soliq solish obykti.

Soliq obykti Soliq kodeksining 302-moddasida aks ettirilgan . Ushbu moddaga ko'ra , Soliq solish obykti bo'lib ,jismoniy shaxslarga transport vositalari uchun chakana savdo orkali sotilgan benzin,dizel yonilg'isi va gazning qiymati hisoblanadi. Ularni chakana realizasiya qilishdan olingan daromad hajmi Soliq solish obykti bo'lib hisoblanadi.

Soliq solinadigan baza.

Soliq solinadigan baza xam 302-moddada o'z aksini topgan. Jismoniy shaxslarga transport vositalar uchun benzin,dizel yonilg'isi va gazning natura xolidagi realizasiya qilingan miqdori (hajmi) Soliq solinadigan baza bo'lib hisoblanadi.

Soliq stavkasi.

Soliq stavkalari mamlakatimiz Prezidenti tomonidan tasdiqlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 va 2011 yillar uchun tasdiqlagan

Soliq stavkalari

№	Soliq turlari	Chegaralangan stavkalar	
		2010 yil	2011 yil
	Iste'mol uchun jismoniy shaxslardan undirilgan Soliq*:		
1	Transport vositalari uchun benzin, dizel yonilg'isi, 1 l uchun	145 so'm	175 so'm
2	Transport vositalari uchun gaz, 1 l uchun	145 so'm	175 so'm



**- Kursatib utilgan stavkalar miqdorlari O'zbekiston Respublikasining butun xududida yagona hisoblanadi. Soliq stavkasining aniq miqdori O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining taklifiga ko'ra Vazirlar Maxkamasi tomonidan belgilanadi.*

Soliqni hisoblab chiqarish va to'lash tartibi.

Jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yonilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan Soliq, soliq solinadigan bazadan va belgilangan stavkalardan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi. Soliq so'mmasini quyidagi formula yordamida hisoblash mumkin:

$$CC=Q \times S$$

Bu yerda: CC- hisoblangan Soliq;

Q- jismoniy shaxslarga sotilayotgan benzin, dizel yonilg'isi yoki gazning natural hajmi ;

S- Soliq stavkasi.

Jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yonilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan Soliq so'mmasi chakana narxga qo'shimcha ravishda belgilanadi, sotib oluvchiga beriladigan chekda alohida katorida ko'rsatiladi hamda jismoniy shaxslardan realizasiya kilinayotgan benzin, dizel yonilg'isi va gaz uchun mablag'larni olish bilan bir vaqtda undiriladi.

Jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yonilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan Soliqning joriy o'n kunlik to'lovlar hisobga olingan holdagi hisob-kitobi yonilg'i quyish shoxobchasi joylashgan yerdagi davlat Soliq xizmati organlariga:

- Mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan yilning har choragida, hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yilik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatda;

- Mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan Soliq to'lovchilar tomonidan har oyda hisobot davridan keyingi oyning 25-*kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yilik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatda taqdim etiladi.

Jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yonilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan Soliqni to'lash jismoniy shaxslarga transport vositalari uchun benzin, dizel yonilg'isi va gaz chakana realizasiya qilingan oyning un kunligi tugaganidan keyingi uchinchi kunidan kechiktirmay, yonilg'i quyish shoxobchasi joylashgan yerda har un kunda amalga oshiriladi.

Mavzu bo'yicha talabalarga ma'ruza jarayoni davrida beriladigan savollar.

1. Jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yonilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan Soliqni byudjetga bevosita to'lovchilar kimlar?
2. Soliq solish obyekti va bazasi qanday aniqlanadi?
3. Jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yonilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan Soliq stavkalarini ayting.

5-MAVZU. IJTIMOIIY JAMG'ARMALARGA MAJBURIY TO'LOVLAR.

- 5.1. Yagona ijtimoiy to'lov va fuqarolarning byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari.
- 5.2. Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalar .
- 5.3. Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy to'lovlar va yig'imlar .

Adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi Rasmiy nashr T.: "Adolat", 2010.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 24-dekabrda "O'zbekiston Respublikasining 2011 yilgi asosiy Makroiqtisodiy ko'rsatkichlari va davlat byudjeti parametrlari to'g'risida " gi PQ-1449-sonli qaroriga 22-25 ilovalar: "Soliq to'lovchining jurnali", yanvar 2011 yil.



3. Jo'rayev A. va boshqalar. "Soliq va soliqqa tortish". O'quv qo'llanma. Toshkent – "NORMA" nashriyoti- 2009 y.

Tayanch iboralar:

Davlat byudjeti. Jismoniy shaxs. Mikrofirma. Kichik korxona. Nol darajali stavka. Rezident. Norezident. Yagona ijtimoiy to'lov. Pensiya jamg'arma. Majburiy ajratmalar. Majburiy yig'imlar. Soliq solish obyekti. Soliq solinadigan baza. Soliq stavkasi. Sug'urta badallari

Ma'ruza o'tish metodi

Ma'ruza "Bilaman. Bilishni xoxlayman. Bilib oldim" va aqliy hujum metodlarini qo'llagan holda o'tiladi.

5.1. Yagona ijtimoiy to'lov va fuqarolarning byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari .

Soliq kodeksining 23-moddasida boshqa majburiy to'lovlar quyidagi 5 ta turga bo'lingan holda ifoda etilgan:

- 1) ijtimoiy jamg'armalarga majburiy to'lovlar ;
- 2) Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy to'lovlar ;
- 3) davlat boji ;
- 4) bojxona to'lovlari ;
- 5) ayrim turdagi tovarlar bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlarni ko'rsatish huquqi uchun yig'im .

Ijtimoiy jamg'armalarga majburiy to'lovlar o'z navbatida 3 ta turga bo'linadi:

- 1) yagona ijtimoiy to'lov ;
- 2) fuqarolarning byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari ;
- 3) byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalar

Yagona ijtimoiy to'lovni to'lovchilar.

O'zbekiston yagona ijtimoiy to'lov 2004 yildan boshlab amal qilib kelmoqda. Yagona ijtimoiy to'lovni to'lovchilari Soliq kodeksining 305-moddasida keltirilgan. Shunga ko'ra , yagona ijtimoiy to'lovni to'lovchilari bo'lib, yuridik shaxslar-O'zbekiston Respublikasi Prezidentlari va O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa, chet ellik yuridik shaxslarning vakolatxonalari va filiallari orqali amalga oshiruvchi O'zbekiston Respublikasi norezidentlari hisoblanadi.

Fuqarolarning byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallarini to'lovchilar bo'lib, jismoniy shaxslar- O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, shuningdek O'zbekiston xududida doimiy ravishda yashab turgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar hisoblanadi.

Soliq solish obyekti

Yagona ijtimoiy to'lov va sug'urta badallarining soliq solish obyekti bo'lib, ish haqi tarzidagi daromadlar hisoblanadi.

Ish haqi tarzidagi daromadlarga: mehnat shartnomalariga muvofiq jismoniy shaxslarga hisoblanadigan va to'lanadigan barcha to'lovlar , ya'ni mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar kiradi .

Soliq solinadigan baza

Yagona ijtimoiy to'lovni va sug'urta badallarini hisoblab chiqarish uchun soliq solinadigan baza bo'lib, mehnat haqi tarzida to'lanadigan daromadlar hisoblanadi. Soliq kodeksining 308-moddasida ko'rsatilgan to'lovlar soliq solinadigan bazaga kiritilmaydi. Bular Soliq imtiyozlari bo'lib hisoblanadi .

Imtiyozlar

Yagona ijtimoiy to'lov va sug'urta badallari quyidagi to'lovlarga nisbatan hisoblanmaydi:



- 1) Kompensasiya to'lovlari;
- 2) Xodimga hisoblanadigan va uning roziligi bilan tegishli byudjet yoki xayriya jamg'armalarga (shanbaliqlar, yakshanbaliqlar va shular kabilar uchun) o'tkaziladigan ish haqi tarzidagi daromadlar ;
- 3) Xodimning muxim sanasi , o'zoq yillik xizmati munosabati bilan unga beriladigan rag'batlantirish tarzidagi to'lovlar;
- 4) Xodimga tabiiy ofat, boshqa favqulodda holatlar munosabati bilan to'lanadigan to'lovlar ;
- 5) Yosh mutaxasislarga oliy o'quv yurtini tamomlaganlaridan so'ng ta'til vaqti uchun yuridik shaxslar hisobidan to'lanadigan nafaqalar.
- 6) Mudofaa, ichki ishlar, Favqulodda vaziyatlar vazirliklarining, Milliy xavfsizlik xizmatining harbiy xizmatchilariga, ichki ishlar organlarining hamda Davlat bojxona qo'mitasining oddiy, serjant va ofisiyer tarkiblarida xizmatni o'tash munosabati bilan to'lanadigan pul ta'minoti, pul mukofotlari va boshqalar.

Yagona ijtimoiy to'lovni va sug'urta badallarini hisoblab chiqarish hamda to'lash tartibi

Yagona ijtimoiy to'lov va sug'urta badallari har oyda soliq solinadigan bazadan hamda belgilangan stavkalardan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

Yuridik shaxslarning mehnat haqi fondiga nisbatan hisoblanadigan yagona ijtimoiy to'lov stavkasi 2010-2011 yillar uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan 25% miqdorida tasdiqlangan. Bu stavka miqdori qarorning 25-ilovasida keltirilgan. Yagona ijtimoiy to'lov stavkasi va uning taqsimoti quyidagi jadvalda keltirildi:

Yagona ijtimoiy to'lov stavkasi	
Soliq solinadigan baza	To'lov stavkasi, %
1.Mehnatga xaq to'lash fondi	25
2. Yagona ijtimoiy to'lov taqsimoti:	
- byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga	24.8
- bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasiga	0.1
- kasaba uyushmalari federasiyasi kengashiga	0.1

Fuqolarning byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari stavkasi 2010 yilda amal qilgan 4 foiz o'rniga 2011 yilda 4,5 foiz miqdorida belgilangan.

Yagona ijtimoiy to'lov yuridik shaxslarning mablag'lari hisobidan to'lanadi, sug'urta badallari esa xodimlarning ish haqidan ushlab qolinadi va soliq agentlari tomonidan jamg'armaga o'tkaziladi.

Soliq agenti deganda qaysi shaxs tushuniladi?

Soliq to'lovchilardan soliqni ushlab qolib, byudjetga o'tkazib beruvchi yuridik shaxslar tushuniladi .

Yagona ijtimoiy to'lovning hisob-kitobi belgilangan shaklda soliq xizmati organlariga taqdim qilinadi. Hisob-kitob soliq to'lovchi tomonidan ortib boruvchi yakun bilan taqdim etiladi.

Mikrofirma va kichik korxonalar tomonidan- yilning har choragida hisobot davrining keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay , yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda taqdim etiladi.

Mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan soliq to'lovchilar tomonidan- har oyda hisobot davridan keyingi oyning 10-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda taqdim etiladi.

Sug'urta badallarining hisob-kitobi soliq to'lovchi tomonidan ortib boruvchi yakun bilan yilning har choragida hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay , yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda taqdim etiladi.



Kodeksning 310-moddasiga ko'ra , to'lov qo'yidagi muddatlarda amalga oshiriladi:
Yagona ijtimoiy to'lov – har oyda , keyingi oyning 10- kunidan kechiktirmay;

Sug'urta badallari- ish haqiga pul mablag'lari olish uchun bankka xujjatlarni taqdim etish bilan bir vaqtda.

Ayrim toifadagi jismoniy shaxslar uchun sug'urta badallarini hisoblab chiqarish va to'lashning o'ziga xos xususiyatlari.

Yakka tartibdagi tadbirkorlar sug'urta badallarini majburiy tartibda oyiga eng kam ish haqidan kam bo'lmagan miqdorda to'laydi. Yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklarining a'zolari sug'urta badallarini oyiga eng kam ish haqining 4,5 barovaridan kam bo'lmagan miqdorda to'laydi.

Yoshga doir pensiya olish huquqiga ega bo'lgan, shuningdek I va II guruh nogironlari bo'lgan yakka tartibdagi tadbirkorlar hamda yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda to'zilgan dehqon xo'jaliklarining a'zolari uchun sug'urta badali miqdori uning belgilangan miqdorining kamida 50%ini tashkil etishi kerak.

Sug'urta badallarini yakka tartibdagi tadbirkorlar har oyda oyning 25 kunidan, yuridik shaxs tashkil etgan va etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklarining a'zolari-hisobot yilining 1-oktyabridan kechiktirmay to'lashi kerak.

To'lov topshiriqnomasida (kirim orderida) soliq to'lovchining identifikasiya raqami va to'lov to'lanayotgan davr albatta ko'rsatilishi kerak. Agar davr ko'rsatilmagan bo'lsa , to'lov u amalga oshirilayotgan oy uchun to'langan deb hisoblanadi.

5.2. Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalar

O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 15 noyabrdagi “ O'zbekiston Respublikasi pensiya ta'minotini takomillashtirish chora- tadbirlari to'g'risida” gi 444-sonli qarori bilan soliq'larga tenglashtirilgan. Ushbu jamg'armaga mablag'larni to'plash va ularning tushishi ustidan nazorat qilish funksiyasi O'zbekiston Respublikasi Davlat Soliq Qo'mitasi zimmasiga yuklatilgan.

Majburiy ajratma to'lovchilari

Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalarni to'lovchilar bo'lib, asosan O'zbekiston Respublikasining rezidentlari bo'lgan yuridik shaxslar hisoblanadi.

Quyidagilar byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalarning to'lovchilari bo'lib hisoblanmaydi:

- 1) notijorat tashkilotlar (bundan ularning tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishdan olgan daromadlari mustasno);
- 2) yagona soliq to'lovini to'lovchi yuridik shaxslar.

Soliq solish obyekti va bazasi

Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalarning obyektlari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 24-dekabrda PQ-1449-sonli qarorining 24-ilovasiga muvofiq tasdiqlangan. Shulardan ayrimlarini quyidagi keltirdik. Bular soliq solish obyekti va soliq solinadigan bazadir.

- 1) Kommunal xo'jalik tizimining issiqlik, suv va gaz ta'minoti korxonalari uchun – Mahsulotlarning (ish va xizmatlarning) qo'shilgan qiymat solig'i va tegishincha issiqlik ta'minoti korxonalari uchun issiqlik quvvatining, suv ta'minoti korxonalari uchun suvning , gaz ta'minoti korxonalari uchun tabiiy gazning harid qiymati chegirib tashlangan holda realizasiya qilingan hajmi ;



- 2) Qurilish, qurilish –montaj, ta'mirlash –qurilish, loyiha- qidiruv va ilmiy- tadqiqod tashkilotlari uchun- o'z kuchlari bilan bajarilgan, tegishincha qurilish , qurilish-montaj kabi ishlarining qo'shilgan qiymat solig'i chegirib tashlangan holdagi qiymati;
- 3) Vositachilik xizmatlari ko'rsatuvchi yuridik shaxslar uchun- ko'rsatilgan xizmatlar uchun qo'shilgan qiymat solig'i chegirib tashlangan holdagi vositachilik haqi so'mmasi;
- 4) Tayyorlov tashkilotlari uchun-QQS chegirilgan holdagi tovar aylanmasi;
- 5) Kredit va sug'urta tashkilotlari uchun –daromadi ;

Majburiy ajratmalar stavkasi

Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalar stavkasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan belgilanadi. Ushbu stavka miqdori 2011 yil uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 24- dekabrda PQ-1449-sonli qarori bilan 1,5% dan 1.6% ga ko'tarildi.

Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalarni hisoblab chiqarish, hisob-kitobini taqdim etish va to'lash tartibi

Majburiy ajratmalar har oyda soliq solinadigan bazadan va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda hisoblab chiqiladi.

Majburiy ajratmalarning hisob –kitobi soliq organlariga ortib boruvchi yakun bilan belgilangan quyidagi muddatlarda topshiriladi:

1) Mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan –yil har choragida, hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda;

2) Mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan soliq to'lovchilar tomonidan –har oyda, hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda.

Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalarni to'lash hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay amalga oshiriladi

5.3. Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy to'lovlar va yig'imglar

Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy to'lovlar ikki turga bo'linadi:

- 1).Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalar.
- 2). Respublika yo'l jamg'armasiga yig'imglar.

Yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalarni to'lovchilar.

Soliq kodeksining 316-moddasiga ko'ra, yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalarni to'lovchilar bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Rezidentlari bo'lgan yuridik shaxslar hisoblanadi.

Quyidagi yuridik shaxslar Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalarni to'lovchilari bo'lib hisoblanmaydi:

- 1) notijorat tashkilotlar ;
- 2) yagona soliq to'lovini amalga oshiruvchi yuridik shaxslar;
- 3) ixtisoslashtirilgan yo'l xo'jaligi boshqaruvi organi to'zilmasiga kiradigan korxonalar.

Soliq solish obyekt va bazasi

Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalarning soliq solish obyekt va soliq solinadigan bazasi bo'lib O'zbekiston Respublikasi Rezidentlari bo'lgan yuridik shaxslarning sof tushumi hisoblanadi.

Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalarning soliq solish obyekt va soliq solinadigan bazasi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalarning soliq solish obyekt va soliq solinadigan bazasining aynan o'zlaridir. Shuning uchun bu yerda ularga takroran to'xtalmadik, chunki u yerda to'liq keltirilgan.



Majburiy ajratmalarni hisoblab chiqarish, hisob-kitobini taqdim etish va to'lash tartibi.

Yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalar soliq solinadigan bazadan va tasdiqlangan stavkadan kelib chiqqan holda har oyda hisoblab chiqariladi.

Ushbu jamg'armaga majburiy to'lovlar stavkalari Prezident qarori bilan tasdiqlanadi. 2010-2011 yillar uchun Prezident tomonidan tasdiqlangan stavkalari quyidagi jadvalda keltirildi.

Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalar stavkalari

№	To'lovchilar	To'lov obyekti	To'lov obyektiga nisbatan stavka, % da	
			2010 y	2011 y
1	Vositachilik topshiriq shartnomalari bo'yicha vositachilik xizmatlarini ko'rsatuvchi korxona va tashkilotlar	QQS ni chegirish orqali aniqlangan vositachilik haqi so'mmasi	1.0	1,0
2	Tayyorlov tashkilotlari	QQS ni chegirish orqali aniqlangan tovar aylanmasi hajmi	1.0	1,0
3	“O'zdonmahsulot” AK korxonalari (donni qabul qiluvchi korxonalar va donni qabul qilish faoliyatiga ega bo'lgan qayta ishlovchi korxonalar)	QQS ni chegirgan holda aniqlangan ustama va chegirmalar	1.0	1,0
4	Kredit va sug'urta tashkilotlari	Daromadlari	1.5	1,4
5	Moliyaviy ijara (lizing) bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi korxonalar	Foizli daromad	1.5	1,4
6	Kommunal xo'jalik tizimining issiqlik va suv ta'minoti korxonalari	QQS va issiqlik energiyasi va suvning harid qiymati chegirilgan holda aniqlangan mahsulot (ish-xizmtlar) sotish hajmi	1.5	1,4
7	Qurilish, qurilish-montaj, ta'mirlash-qurilish, ilmiy tadqiqot tashkilotlari	QQS chegirilgan holda o'z kuchlari bilan bajarilgan ish hajmi	1.5	1,4
8	Avtotransport korxonari	QQS chegirilgan holda mahsulot (ish-xizmtlar) realizatsiyasi hajmi		



9	“O‘zbekenergo” va “O‘zbekneftgaz” kompaniyalarining korxonalari, tegishli ravishda elektr energiyasi va tabiiy gazni realizatsiya qilish qismida	QQS va aksiz solig‘i chegirilgan holda aniqlangan sotilgan mahsulot hajmi	2.5	2,5
10	Iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari korxonalari	QQS va aksiz solig‘i chegirilgan holda aniqlangan sotilgan mahsulot (ish-xizmatlar) hajmi	1.5	1,4

Respublika yo‘l jamg‘armasiga majburiy ajratmalarni hisoblash

Ajratmalar soliq solinadigan baza va tasdiqlangan stavkadan kelib chiqqan holda har oyda hisoblab chiqiladi. Hisob–kitoblar soliq xizmati organi topshiriladi. Mikrofirmalar va kichik korxonalar yilning har choragida, hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, shular jumlasiga kirmaydigan soliq to‘lovchi korxonalar har oyda, hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo‘yicha ikki turdagi korxonalar ham yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda taqdim etadilar.

Majburiy ajratmalarni to‘lash tartibi

Respublika yo‘l jamg‘armasiga majburiy ajratmalarni to‘lash hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay amalga oshiriladi.

Respublika yo‘l jamg‘armasiga majburiy ajratmalardan tashqari yig‘imlar ham to‘lanadi. Bular Soliq kodeksining 54-bobida o‘z aksini topgan.

Respublika yo‘l jamg‘armasiga yig‘imlarni to‘lovchilar bo‘lib, quyidagilar hioblanadi:

- 1) avtotransport vositalarini oluvchi va (yoki) O‘zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirishni amalga oshiruvchi O‘zbekiston Respublikasi rezidentlari va norezidentlari. Bular avtotransport vositalarini olganlik va (yoki) O‘zbekiston Respublikasi hududiga vaqtincha olib kirganlik uchun yig‘im to‘laydilar.
- 2) chet davlatlar avtotransport vositalarining egalari yoki foydalanuvchilari. Bular O‘zbekiston hududiga kirganligi va uning hududi orqali tranzit tarzida o‘tganligi uchun yig‘im to‘laydilar

Respublika yo‘l jamg‘armasiga yig‘imlar stavkalari

Yig‘imlarning turlari	Stavkasi minimal ish haqiga nisbatan % hisobida
1. Sotib olingan va vaqtinchalik O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kiritilgan O‘zbekiston Respublikasi Ichki Ishlar Vazirligi organlarida ro‘yxatdan o‘tgan transport vositalari egalaridan (foydalanuvchilardan) olinadigan yig‘im (har bir ot kuchi uchun eng kam ish haqiga nisbatan foizda):	



Foydalanish muddati 3 yilgacha	10
Foydalanish muddati 3 yildan 7 yilgacha	7
Foydalanish muddati 7 yildan yuqori bo'lsa	5
2. "O'zavto yo'l" DAK korxona va tashkilotlari mol-mulkini sotib olishdan tushgan mablag'larni byudjetga tushishi lozim bo'lgan umumiy summasidan ajratmalar jadvalning 1-bandida keltirilgan yig'imlar miqdori o'rindiqlar soni 40 tagacha bo'lgan avtobuslar va yuk tashish hajmi 20 tonnagacha bo'lgan yuk avtotransport vositalari bo'yicha xarid qiymatining 20 foizdan qolgan avtotransport vositalari bo'yicha xarid qiymatining 6 foizidan kam bo'lmasligi kerak.	50

Jadvalning 1-bandida keltirilgan yig'imlar miqdori o'rindiqlar soni 40 tagacha bo'lgan avtobuslar va yuk tashish hajmi 20 tonnagacha bo'lgan yuk avto transport vositalari bo'yicha xarid qiymatining 20 foizidan, qolgan avtotransport vositalari bo'yicha harid qiymatining 6 foizdan kam bo'lmasligi kerak.

Respublika hududiga kirganligi va uning hududi orqali tranzit tarzida o'tganligi uchun chet davlatlarning transport vositalaridan Respublika yo'l jamg'armasiga olinadigan yig'imlar stavkalari

№	Yig'imlarning turlari	Yig'imlar stavkalari (AQSh dollarida)
1	Xorijiy davlatlardan avtotransport vositalarini O'zbekiston xududiga olib kirganligi va uning hududi orqali tranzit tarzida o'tganligi uchun yig'im, avto tashuvchini olib kirganligi uchun (O'rta Osiyo va Qozog'iston davlatlaridan tashqarisi)	400
2	O'zbekiston Respublikasi hududiga kirgan va uning hududi orqali tranzit tarzida o'tayotgan Tojikiston Respublikasining har bir yuk tashuvchi avtotransport vositasi va avtobusi uchun yig'im: - bir yuk tashuvchi avtotransport vositasi va avtobusi uchun - O'zbekiston hududida bo'lgan yuk avtotransport vositalari va avtobuslarning 3 sutkadan oshgan har bir kuni uchun - O'zbekiston hududi orqali uchinchi mamlakatga (Mustaqil hamdo'stlik davlatlaridan tashqari) tranzit tarzida o'tayotgan avtotransport vositalari va avtobuslar uchun	130 70
3	O'zbekiston Respublikasi hududiga kirgan va uning hududi orqali tranzit tarzida o'tayotgan Qozog'iston Respublikasi yuk avtotransport vositalari va avtobuslari uchun yig'im. O'ZR hududi orqali tranzit qilish bundan mustasno bir yuk avtotransport vositasini olib kirganligi uchun	90
4	Qirg'iziston Respublikasi yuk avtotransport vositalari va avtobuslari kirishi va tranzit tarzida o'tishi uchun	300
5	Turkmaniston Respublikasi yuk avtotransport vositalarini olib kirish va tranzit qilish uchun yig'imlar, avtotransport vositalari turlari bo'yicha: a) quyidagi og'irlikdagi yuklarni ko'taradigan vositalar uchun:	300



10 tonnagacha	
10 tonnadan 20 tonnagacha	
20 tonnadan ortiq	
b) o'rindiqlar soni quyidagicha bo'lgan avtobuslar:	50
12 o'rindiqqacha	100
13 o'rindiqdandan 30 o'rindiqqacha	150
30 dan ortiq bo'lsa	
Tranzit o'tayotgan yengil avtotransport vositalari	25
Tranzit o'tayotgan motosikllar	50
	100
	30
	25

Chet davlatlar avtotransport vositalari O'zbekiston Respublikasi hududiga kirganligi va uning hududi orqali tranzit tarzida o'tganligi uchun yig'im chet davlatning avtotransport vositasi O'zbekiston Respublikasi hududiga kirayotganida untiriladi.

Mavzu bo'yicha Ma'ruza jarayoni davrida talabalarga beriladigan savollar:

1. Yagona ijtimoiy to'lovni to'lovchilari bo'lib, qaysi shaxslar hisoblanadi?
2. Yagona ijtimoiy to'lovni soliq solinadigan bazasi bo'lib, qaysi daromadlar hisoblanadi?
3. Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalar stavkasi 2011 yil uchun necha foiz qilib, qachon kim tomonidan belgilangan?
4. Respublika yo'l jamg'armasining obyektini tushuntiring?

Amaliy mashg'ulotlarda bajariladigan vazifalar to'plami

1-Mavzu: Soliq tizimi asoslari .

Ushbu mavzu bo'yicha amaliy mashg'ulot seminar shaklida o'tiladi

Seminar savollari:

- 1.Soliqlarning iqtisodiy mohiyati
- 2.Soliqlarning obyektiv zarurligi
- 3.Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar deganda nimalar tushuniladi ?
- 4.Yuridik va jismoniy shaxslarning mazmunini bayon kiling
- 5.Soliq va majburiy to'lovlarning qanday turlarini bilasiz ?
- 6.Soliq elementlari tarkibi
- 7.Soliq subyekti va Soliq agenti
- 8.Soliq solish obyekti va Soliq solinadigan baza
- 9.Soliq stavkasi va Soliq imtiyozlari
- 10.Soliqni hisoblab chikarib,Soliq davri va ularni to'lash tartibi
- 11.Soliq solish obyekti buyicha Soliqlarning guruhlar
- 12.Tugri va egri Soliqlar
- 13.Soliq solish prinsiplari va ularning mazmuni
- 14.Soliq to'lovchilarning huquqlari
- 15.Soliq to'lovchilarning majburiyatlari



2-Mavzu. Yuridik shaxslardan olinadigan Soliqlar

2.1 Yuridik shaxsslardan olinadigan foyda solig'i

1-vazifa

Xo'jalik yurituvchi subyektning Soliq solinadigan foydasi hisobot davrida 2500 ming so'mni tashkil qilgan. Xo'jalik tomonidan yosh oilalar toifasiga kiruvchi xodimi olgan ipoteka kreditlari bo'yicha badallarining to'lashga yunaltilgan mablag'lari so'mmasi 300 ming so'mga teng bo'lgan.

Berilgan ma'lumotlar va berilgan Soliq stavkasidan foydalanib aniqlang:

1. Xo'jalikning Soliq solinadigan foydasini kamaytiruvchi mablag' so'mmasini;
2. Soliq solinadigan bazani;
3. Hisobot davri uchun xo'jalik to'lash lozim bo'lgan foyda solig'i so'mmasi;
4. Xulosa yozing

2-Vazifa

Yuridik shaxs to'laydigan foyda solig'ini hisoblash uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar

T/R	Ko'rsatkichlar	So'mma ming.so'm
1	Mahsulotlarini sotishdan olingan sof pul tushumi	8200
2	Shu jumladan eksportdan olingan sof pul tushumi	1640
3	Soliq to'langunga qadar bo'lgan foyda	1780
4	Soliq solinadigan foydani aniqlashda chegirib tashlanmaydigan harajatlar	650
5	Olingan dividendlar	205
6	Soliq bo'yicha beriladigan imtiyozlar	305

Berilgan ma'lumotlar va belgilangan Soliq stavkasi asosida aniqlang:

1. Ekspertdan olingan sof pul tushumining jami sof pul tushumiga nisbatan xissasini (% hisobida);
2. Foyda solig'ining haqiqiy stavkasini;
3. Soliq solish bazasini;
4. Byudjetga to'lanadigan foyda solig'i so'mmasini;
5. Xulosa yozing:

2.2 Qo'shilgan qiymati Solig'i

3-vazifa

Yuridik shaxs bo'yicha hisobot davrida Qo'shilgan qiymat **solig'**ini hisoblash uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar

T/R	Ko'rsatkichlar	So'mmasi ming.so'm
1	Hisobot davrida Qo'shilgan qiymat solig'i bilan harid qilingan xom ashyo va materiallar	9500



2	Hisobot davrida junatilgan tovarlar qiymati Qo'shilgan qiymat solig'i bilan	18050
3	Junatilgan tovarlar qiymatidan gaz ta'minoti bo'yicha aholiga ko'rsatilgan xizmatlardan olingan daromad	9900

Berilgan ma'lumotlar va Soliq stavkasi asosida aniqlang:

1. Qo'shilgan qiymat solig'iga tortiladigan jami sotilgan tovarlar qiymatini (oborotini) ;
2. Jami sotilgan tovarlar qiymati bo'yicha 1 foiz ahamiyatini;
3. Qo'shilgan qiymat solig'i so'mmasini;
4. Sotilgan tovarlarning haqiqiy qiymatini;
5. Vazifa yechimiga xulosa yozing.

4-vazifa

Quyidagi jadvalda keltirilgan ma'lumotlaridan foydalanib, Qo'shilgan qiymat solig'i so'mmasini aniqlang va xulosa yozing.

T/R	Ko'rsatkichilar	So'mmasi ming.so'm
1	Hisobot davrida sotib olingan xom ashyo va materiallar	10200
2	Hisobot davrida junatilgan tovarlar qiymati shundan erkin almashtiriladigan valyutaga eksport qilingan tovar qiymati	15000 7200
3	Qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi %	20

Berilgan ma'lumotlar va Soliq stavkasi asosida hisoblang:

1. Nulevoy stavka bilan Qo'shilgan qiymat solig'iga tortiladigan tovarlar qiymatini;
2. Berilgan stavka bo'yicha Qo'shilgan qiymat solig'iga tortiladigan tovarlar qiymatini;
3. Byudjetga to'lanadigan Qo'shilgan qiymat solig'i so'mmasini;
4. Xulosa yozing.

2.3 Aksiz solig'i

5-vazifa

Hisobot davrida ishlab chiqarish korxonasi o'zida ishlab chiqarilgan 150 dol etil spirtini sotgan. Etil spirti aksiz solig'i to'lanadigan tovar bo'lib hisoblanadi.

Ushbu va amaldagi xujjat ma'lumotlaridan foydalanib aniqlang:

1. Etil spirti birligi uchun berilgan aksiz solig'ini stavkasini;
2. Sotilgan etil spirti bo'yicha aksiz solig'i so'mmasini;
3. Aksiz solig'i obyekti va bazasini tushuntiring.

6-vazifa

Hisobot davrida sotilgan zargarlik buyumlari bo'yicha aksiz solig'ini hisoblash uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar:

1. Hisobot davrida harid qilingan xom ashyo va materiallar qiymati – 4560 ming so'm
2. Korxona bo'yicha sotilgan tovarning hisob qiymati – 8436 ming so'm

Ushbu ma'lumotlar asosida aniqlang:



1. Sotilgan zargarlik buyumlari qiymatiga nisbatan foiz hisobida berilgan Soliq stavkasini;
2. Aksiz solig'i so'mmasini;
3. Aksiz solig'ini to'lash muddatini;

2.4 Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i

7-vazifa

Samarqand shaxrida yuridik shaxslar uchun yer solig'i stavkasi 1-zona bo'yicha 2009 yilda 1 gektar yer uchastkasi uchun 5706928 so'm kilib belgilangan. 2010 yildan boshlab yer uchastkalaridan foydalanganlik uchun yer solig'i stavkasi 1,15 baravarga indensasiya qilingan.

Ushbu ma'lumotlar asosida aniqlang:

1. Yer solig'i stavkasi necha foizga oshganligini (kamayganligini);
2. 2010 yilda 1 gektar yer uchastkasi uchun yer solig'i stavkasini;
3. Hisoblangan mutlok miqdordagi Soliq stavkasini Prezident qarori bilan tasdiqlangan Soliq stavkasiga solishtirib, tugri aniqlanganligini.

8-vazifa

Samarqand shaxrining IV-zonasida joylashgan ishlab chiqarish korxonasidan 2010 yilda undiriladigan yer solig'i uchun talab qilinadigan ma'lumotlar:

T/R	Ko'rsatkichilar	So'mmasi ming.so'm
1	Shahar xokimiyati qarori bilan ajratilgan yer maydoni, ga	8,0
2	1 gektar uchun undiriladigan yer solig'i stavkasi, so'm	5319719

Berilgan ma'lumotlar asosida aniqlang:

1. Hisobot yilida to'lash lozim bo'lgan yer solig'ini;
2. Har chorakda to'lanishi zarur Soliq miqdorini;
3. To'lash muddatlarini aniqlang va har bir muddat bo'yicha Soliq so'mmalarini belgilang.
4. Kiskacha xulosa yozing:

3-Mavzu. Qishloq xo'jalik korxonalaridan olinadigan yagona yer solig'i

9-vazifa

Okdaryo tumanidagi fermer xo'jaligi to'laydigan yagona yer solig'ini hisoblash uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar.

T/R	Ko'rsatkichilar	So'mmasi ming.so'm
1	Foydalanish uchun berilgan yer uchastasi, ga	130
2	Yer uchastkasining sifat ko'rsatkichii-ball-bonitet hisobida	71-80
3	Yagona yer solig'ining 1 gektar uchun belgilangan bazaviy	6771,8
4	stavkasi, So'm ball bonitetiga mos keluvchi koeffitsiyent	11,68

Berilgan ma'lumotlar asosida hisoblang:

1. Bir gektar yer uchastkasining haqiqiy belgilangan stavkasini;



2. Fermer xo'jaligi to'lashi lozim bo'lgan yagona yer solig'i so'mmasini;
3. Belgilangan muddatlar bo'yicha to'lanadigan Soliq so'mmalarini;
 - hisobot yilining 1 iyuligacha
 - hisobot yilining 1 sentyabrigacha
 - hisobot yilining 1 dekabrigacha
4. Xulosa yozing

10-vazifa

Okdaryo tumanidagi «N.Kodirov» nomli fermer xo'jaligi bo'yicha Yagona yer solig'ini hisoblash uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar

T/R	Ko'rsatkichlar	So'mmasi ming.so'm
1	Jami yer uchastkalari, ga	145
2	Sport inshootlari va maydonchasi egallagan yerlar , ga	2
3	Ta'lim, madaniyat va Soliqni saklash obyektlari band etgan yerlar,ga	2
4	Ishlab chiqarishda foydalaniladigan yer uchastkasining ball-boniteti ko'rsatkichii, ball hisobida	81-90

Berilgan ma'lumotlar asosida aniqlang va xulosa kiling:

1. Ball-bonitetiga muvofiq 1 gektar uchun belgilangan yagona Soliq stavkasi so'mmasini;
2. Yagona yer solig'i solinadigan yer uchastkalari maydonini;
3. Yagona yer solig'i so'mmasini;
4. Yagona yer solig'i kaysi muddatlarda va kancha miqdorlarda to'lanadi, shularni;
5. Xulosa yozing.

11-vazifa

Fermer xo'jaligi ixtiyorida bo'lgan mavjud yerlar:

1. Paxta yetishtirishda band bo'lgan yerlar - 30 ga
2. Galla yetishtirishda band bo'lgan yerlar - 50 ga
3. Sabzavot yerlari - 3 ga
4. Mevali dov-daraxtlar - 2 ga
5. Sport inshootlari egallagan yerlar - 2 ga
6. Maktablar band etgan yerlar - 2 ga
7. Yangi tub ko'chatlari ekilgan yerlar - 1 ga
8. Yaylovlar - 2 ga

Ushbu ma'lumotlardan foydalanib olingan:

1. Xo'jalik ixtiyoridagi jami maydonni;
2. Soliqqa tortiladigan yer uchastkalari maydonini;
3. Soliq solinmaydigan yer uchastkalari maydonini;
4. Yagona yer solig'i so'mmasini (Soliq stavkasi 31637,4 so'm kilib belgilangan).
5. Xulosa kiling

4-Mavzu. Jismoniy shaxslardan olinadigan Soliqlar

4.1 Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i

12-vazifa

2010yilning yanvar va fevral oyilarda jismoniy shaxsdan daromad solig'ini ushlash



uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar

T/R	Ko'rsatkichilar	Yanvar oyi	Fevral oyi
1	Ish haqi, ming so'm	550	550
2	Mukofot, ming so'm	-	120
3	2010yil 1 dekabrda boshlab oyiga belgilangan eng kam ish haqi, so'm	45215	45215

Berilgan ma'lumotlar va daromad solig'i stavkalari asosida jismoniy shaxsdan ushlanishi lozim bo'lgan daromad **solig'i** so'mmasini hisoblang:

- A) yanvar oyi uchun
- B) yanvar – fevral oyi uchun
- V) fevral oyi uchun

13-vazifa

II-guruh nogironiga 2010yil yanvar va fevral oyilarida 730000(350000+380000) ish haqi hisoblangan.

Yanvar oyida 21920,8 so'm daromad solig'i ushlangan.

Fevral oyida ushlanishi lozim bo'lgan daromad solig'i so'mmasini hisoblang.

Berilgan ma'lumotlar va tasdiqlangan daromad solig'i stavkalari asosida aniqlang:

1. Yanvar-fevral oyilari uchun Soliq to'lashidan ozod qilinadigan daromad (ish haqi) so'mmasini:
2. Soliqqa tortiladigan daromad (ish haqi) so'mmasini (yanvar fevral oyilari uchun):
3. Yanvar – fevral uchun Soliq so'mmasini
4. Fevral oyi uchun Soliq so'mmasini:

14-vazifa

Afg'oniston Respublikasida vaqtincha bo'lgan qo'shinlarning cheklangan kontingenti tarkibida harbiy xizmatni o'tagan fuqaro A.Isroilovdan 2010 yil yanvar oyi uchun daromad **solig'ini** hisoblash uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar

T/R	Ko'rsatkichilar	So'mmasi so'm.hisobida
1	Yanvar oyi uchun lavozim maoshi	300000
2	Lovazim maoshiga ustama (30%)	90000
3	2009yilning IV- choragi uchun lavozim maoshi miqdorida mukofot	300000
4	Eng kam ish haqi so'mmasi	37680

Ushbu ma'lumotlardan foydalanib yanvar oyi uchun undirilishi lozim bo'lgan Soliq miqdorini hisoblang. Buning uchun aniqlang:

1. Jami daromad hajmi (so'mmasini); 69000 so'm (Soliq solish obyektini)
2. Daromad solig'iga solinadigan bazani (Soliqqa tortiladigan daromadni).
3. Yanvar oy uchun undirilishi lozim bo'lgan daromad solig'i miqdorini
4. xulosa yozing.

4.2 Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan Soliq

15-vazifa



Fuqarodan undirilgan mol-mulk **solig'ini** hisoblash uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar

T/R	Ko'rsatkichilar	So'mmasi yoki foizi
1	Fuqaroning harid qilgan 3 xonali kvartirasini texnik inventarizasion byurosi tomonidan narxlangan qiymati, ming so'm	10450
2	Jismoniy shaxs mol-mulkni stavkasi (mol-mulking) inventarizasiya qiymatiga nisbatan Soliq stavkasi), %	0,75

Berilgan ma'lumotlar asosida aniqlang:

1. Fuqarodan olinadigan mol- mulk solig'i so'mmasini;
2. Xulosa yozing

16-vazifa

Noturar joy sotib olgan fuqarodan undirib olinadigan mol-mulk solig'i uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar

T/R	Ko'rsatkichilar	So'mmasi yoki foizi
1	Fuqaro Ibragimov Ulugbek 4,5 sotik maydanga ega bo'lgan noturar joy sotib oldi. Uning texnik inventarizasion byurosi tomonidan narxlangan qiymati, ming so'm	16200
2	Yuridik shaxslar mol mulki solig'i stavkasi, %	3,5
3	Jismoniy shaxslar mol-mulki solig'i stavkasi,%	0,75

Berilgan ma'lumotlar asosida hisoblang:

1. Ibragimov Ulugbekdan olinadigan mol-mulk solig'i so'mmasini
2. Xulosa yozing

17-vazifa

Pensioner Sharipov Baxrining uy-joyidan olinadigan mol –mulk solig'ini hisoblash uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar

T/R	Ko'rsatkichilar	So'mmasi yoki foizi
1	Uy-joy maydoni, m2	124
2	Uy-joyning inventarizasiya byurosi tomonidan baholangan qiymati, ming so'm	20584

Berilgan ma'lumotlar asosida hisoblang:

1. Bir kvadrat metr uy-joy maydonining qiymatini
2. Soliq solinmaydigan maydonning qiymati
3. Soliq solinadigan uy-joy umumiy maydonining qiymatini
4. Mol-mulk solig'i so'mmasini
5. Xulosa yozing

4.3 Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i

18-vazifa



Samarqand shaxrida jismoniy shaxslarning yakka tartibda uy-joy kurishi uchun yer solig'i stavkasi 1-zona bo'yicha 1 kv.m yer uchastkasiga 2009 yilda 53,1 so'm kilib belgilangan. 2010 yilda Prezidentining 2009 yil 24- dekabrda qaroriga ko'ra yer solig'i stavkasi 1,15 baravarga indeksasiya qilingan.

Ushbu ma'lumotlar asosida aniqlang:

1. Jismoniy shaxslar uchun yer solig'i stavkasi 2010 yilda 2009 yilga nisbatan necha foizga oshganligini;
2. 2010 yilda 1 kv. m yer uchastkasi uchun belgilangan Soliq stavkasini;
3. Xulosa yozing

19-vazifa

Samarqand viloyati Oktosh shaxrida yashovchi fuqaro 2010 yil 25 yanvarda 4 sotik yer uchastkasini uy-joy kurish uchun sotib oldi. Yer uchastkasi Oktosh shaxrining 2-zonasida joylashgan.

Ushbu ma'lumotlar asosida aniqlang:

1. 1kv.m uchun belgilangan yer solig'i stavkasini;
2. Yer solig'i so'mmasini;
3. To'lash muddatlarini belgilang:

20-vazifa

Samarqand viloyati Urgut tumanida yashovchi fuqaro Salimov Tulkinning yer uchastkasi 6 sotikni tashkil qiladi, u 2008-2009 yillar davomida yer uchastkasidan foydalangan emas. U Sug'oriladigan aholi punktining 8-30 sida joylashgan. Shulardan foydalanib aniqlang:

1. 1 gektar uchun Soliq stavkasini;
2. 1 sotik uchun Soliq stavkasini;
3. Yer uchastkasi uchun to'lanadigan haqiqiy Soliq miqdori so'mmasini;
4. Yer solig'i so'mmasini;

4.4 Jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yonilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan Soliq

21-vazifa

2010 yilning yanvar oyida benzin, dizel yonilg'isini sotuvchi xo'jalik yurituvchi subyekt jismoniy shaxslarga transport vositalari uchun 20 tonna benzin sotgan, uni sotishdan olingan daromadi 34000 ming so'mni tashkil qiladi.

Ushbu ma'lumotlar asosida aniqlang:

1. Bir litr uchun O'zbekiston xududi bo'yicha belgilangan Soliq stavkasini;
2. Sotilgan benzin uchun Soliq so'mmasini;
3. Sotilgan benzinning chakana baho bo'yicha sotilgan qiymatini;
4. 1 litr benzinni chakana sotish bahosini;

22-vazifa

2010 yil yanvar oyida jismoniy shaxslarning transport vositalari uchun 15 tonna gaz sotildi. Soliq so'mmasini aniqlang:

5-Mavzu: Ijtimoiy jamg'armalarga majburiy to'lovlar



5.1 Yagona ijtimoiy to'lov va fukoralarning byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari

23-vazifa

2010 yil iyun oyi uchun ishchi va xizmatchilarning ish haqiga nisbatan yagona ijtimoiy majburiy to'lov so'mmasini hisoblash uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar

T/R	Ko'rsatkichilar	So'mmasi ming so'm hisobida
1	Hisoblangan ish haqi	206000
2	Doimiy ishi yo'lda kechadigan, kuchib yurish xususiyatiga ega bo'lgan xodimlarning ish haqiga ustamalar	20100
3	Xizmat safarlari vaqtidagi qonun xujjatlarida belgilangan normalardan ortiqcha kundalik harajatlar uchun haq (sutkalik pullar)	800
4	Fuqaro T.Ibragimovga yubiley munosabati bilan mukofot puli berilgan	200

Berilgan ma'lumotlar asosida aniqlang:

1. Korxona bo'yicha yagona ijtimoiy to'lov bazasini;
2. Yagona ijtimoiy to'lov so'mmasini;
3. Yagona ijtimoiy to'lovni maqsadli jamg'armalar va kasaba uyushmalari federasiyasi kengashi o'rtasidagi taksimotini;
4. Xulosa yozing

24-vazifa

2010 yil iyun oyi uchun fukoralarning byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasiga sug'urta badallarini hisoblash uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar

T/R	Ko'rsatkichilar	Fuqaro Ibragimov Samandar	Fuqaro Isroilov Shuxrat
1	Ish haqi, ming.so'm	600	520
2	Yubiley munosabati bilan berilgan mukofot puli, ming.so'm	150	-
3	Doimiy ishi yo'lda kechadigan xodimning ish haqiga ustama	45	52

Berilgan ma'lumotlar asosida aniqlang:

1. Har bir fuqaro bo'yicha sug'urta badallarini hisoblanadigan bazani (ish haqi so'mmasini);
 - Ibragimov bo'yicha:
 - Isroilov bo'yicha:
2. Har bir fuqaro bo'yicha sug'urta badallari so'mmasini:
 - Isroilov bo'yicha:
 - Ibragimov bo'yicha:
3. Sug'urta badallari so'mmasining jami ish haqiga nisbatan xissasini:
 - Isroilov bo'yicha:
 - Ibragimov bo'yicha:
4. Xulosa yozin

25-vazifa

«Jismoniy shaxsdan olinadigan daromad solig'i» mavzusida (14 – vazifada) fuqaro



A.Isroilovning yanvar oyi uchun hisoblangan daromadlari to'g'risidagi ma'lumot keltirilgan.

Ushbu ma'lumotlardan foydalanib, aniqlang:

1. Yanvar oyi uchun ish haqining majburiy sug'urta badallari hisoblanadigan jami daromadlar so'mmasini:
2. Pensiya jamg'armasiga o'tkazilishi lozim bulgan ish haqidan majburiy sug'urta badallari so'mmasini:
3. Soliq solinadigan ish haqi so'mmasini:
4. Jamg'arib boriladigan pensiya hisob varagiga o'tkazilishi lozim bo'lgan pensiya badallarining so'mmasini:
5. Byudjetga o'tkazilishi lozim bo'lgan Soliqning so'mmasini:
6. Qisqacha xulosa yozing:

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

Asosiy adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. (2010 yil 1-martgacha bo'lgan o'zgarish va qo'shimchalar bilan). Rasmiy nashr Toshkent "Adolat" 2010 yil.
2. O'zbekiston Respublikasi Qonuni "Davlat soliq xizmati to'g'risida". 1997 yil 29-avgust.
3. Jo'rayev A va boshqalar. Soliq va soliqqa tortish. O'quv qo'llanma. T.: 2009.
4. Zavalishina I.A. Soliqlar: nazariya va amaliyot: O'quv qo'llanma. T. "Iqtisodiyot va huquq dunyosi" nashriyoti, 2005.
5. Latipov A. Yerdan foydalanish va soliqqa tortish: O'quv qo'llanma. T. "Iqtisodiyot va huquq dunyosi" nashriyoti, 2005.
6. V.F.Tarasova, T.V.Savchenko, L.N.Semykina «Nalog i nalogoblojeniy» uchebnik posobiye M.: KNORUS. 2005.
7. D.G.Chernika. M.: Yunita «Nalogi: Uchebnik dlya vuzov». 2004.
8. B.X.Aliyeva «Nalogi i nalogoblojeniy» uchebnoye posobe. M: Finansi i statistika. 2005.

Qo'shimcha adabiyotlar:

9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining 2011 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari va davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi 2010 yil 24-dekabrda PK-1449-sonli qarori. soliq to'lovchining jurnali, 2011 yil yanvar.
10. Karimov I.A. "Jaxon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari". T.: "O'zbekiston", 2009 yil.
11. Karimov I.A. "2010 yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo'ljallangan eng muhim ustivor yo'nalishlariga bag'ishlangan VM majlisidagi ma'ruza. "Bank axborotnomasi (bank xodimlari, ishbilarmonlar va tadbirkorlar gazetasi)", 2011 yil 26 yanvar.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili" Davlat Dasturi to'g'risidagi PQ-1046-sonli Qarori 2009 yil 26-yanvarda qabul qilingan.
13. 2010 yilda Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar stavkalaridagi o'zgarishlar, shuningdek soliq solishning ayrim masalalari to'g'risida Axborot. "Soliq to'lovchilar jurnali", yanvar 2011 yil.
14. Mahkamov U.-"Axloq-odob saboqlari". Ilmiy asar T.: "Fan"-1994.
15. K.Yaxyoyev. "Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyoti".-T.: 2003 yil.
16. "Soliq solish va buxgalteriya hisobi" jurnali.
17. "Soliqlar va bojxona xabarnomasi" gazetasi.
18. Internet saytlari:
www.nalog.ru
www.mf.uz
www.gov.uz
www.lex.uz

